

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy
JURNAL

2023-yil 3-4-son

Urganch-2023

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Tahrir hay’ati:

Z.Do’simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.

G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O’razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G’ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

D.I.Yo’ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

E.Ro’ziyev – Pedagogika fanlari doktori, professor.

M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.

D.A.O’razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

M.J.Jumaniyazov – Texnika fanlari doktori, professor.

S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.

O’I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.

Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.

B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).

J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (UrDPI rektori v.b.)

R.Y.Ro’ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori.)

B.Rasulov – Tarix fanlari doktori, dotsent (AnDPI rektori).

Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).

H.H.Tadjiev – Turkologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog’iston).

I.S.Yusupov – Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

D.Y.Batirov – Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent.

J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

B.B.Nurullayeva – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

J.B.Davletov – Falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

M.S.Abdullayev – San’atshunoslik fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD).

D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori (PhD).

ISSN

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
№3-4 (2), Urganch innovatsion universiteti, 2023-yil.

MUNDARIJA:

TARIX

G.Kangarlinskaya, U.Bekmuhammad. Al-Xorazmiyning aql mash'ali. ...	4
I.Yusupov. Mustaqillik yillarida “O‘zbekiston pochta” AJ Namangan filialining rivojlanish tarixi.	9
M.G‘affarov. O‘zbekistonda eneolit davri turar-joylarining joylashish geografik yechimlari	13
J.Eshniyazov. O‘zbekiston hududlarida xalq tabobatini rivojlanish tarixi ...	18

FILOLOGIYA

A.Ulviy. Zulfiya Ozarbayjonda.	21
G.Kazakova. Essenavis Qulman Ochilov ijodiga badiiy chizgilar	26
M.Matqurbonova. “O‘tkan kunlar” romanida leksik-semantik tahlil me’yorlari.	31
J.Sobirov. O‘zbek tili uchun morfologik va sintaktik teglangan korpus yaratish.	35
Z.Sharipova. O‘g‘uz shevalaridagi sug‘orish leksikasiga doir ayrim terminlar.	40
D.Tojiboyev. Xorazm yodnomalari anomostikasi.	45
G.Sabirova, S.Soatboyeva. Til o‘rganishda o‘yinlarning roli	50

BIOLOGIYA

Z.Narboyev. Baliqlar tabiiy oziqasining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi organizmlar.	54
--	----

MATEMATIKA

E.Sariyeva, D.Ahmedova. Matematika darslarida matnli masalalarni yechish metodikasi	58
---	----

IQTISODIYOT

D.Xudayberganov, D.Uzakbergenov, D.Urinova. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari.	61
G.Matrizayeva. O‘zbekistonda zamonaviy iqtisodiy nazariyalar rivojlanishining amaliy ahamiyati.	66

SAN‘ATSHUNOSLIK

A.Saparbayev, B.Shahanov. “Changak lazgi” haqida mulohaza	70
A.Saparbayev, Sh.Samandarova. “Lazgi” ansambli tarix va bugun.	74
A.Umrzaqova. Iste’dod yoxud “Yetmish beshga kirgan o‘n besh yashar qiz”.	79

TARIX**AI-XORAZMIYNING AQL MASH'ALI**

**Gulshan
Kangarinskaya**

Ozərbaycan Milli
Bilimler
akademiyası
şərqşünaslıq
institutı
katta ilmiy xodimi



**Umid
Bekmuhhammad**

Tarix fanlari
bo'yicha falsafa
doktori

UO'K 574.511

Annotatsiya: Ushbu maqolada Al-Xorazmiyning hayoti va ilmiy faoliyati u yashagan davrdagi jarayonlar bilan bog'langan holda yoritib berilgan.

Аннотация: В статье жизнь и научная деятельность Аль-Хорезми освещаются в связи с процессами его времени.

Annotation: In this article, Al-Khorazmi's life and scientific activities are covered in connection with the processes of his time.

Kalit so'zlar: Majusiy, Al-Xorazmiy, mudarris, Xiva, Marv, Bag'dod, algoritm, arifmetika, "Bayt-ul-hikma".

Ключевые слова: Маджуси, Аль-Хорезми, мударрис, Хива, Марв, Багдад, алгоритм, арифметика, «Байт-уль-хикма»

The keywords: Majusi, Al-Khorazmi, mudarris, Khiva, Marv, Baghdad, algorithm, arithmetic, "Bayt-ul-hikma".

783-yili Xivada tavallud topgan allomaning to'liq ismi Abu Ja'far Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy al-Majusiy al-Katrobuliy bo'lib, Muhammadning bobolari zardushtiylikka e'tiqod qo'ygani bois, majusiy laqabi ishlatilgan. Biroq al-Xorazmiy islomiy e'tiqodli inson sifatida dovuq qozongandi.

Tabiatan iqtidorli bo'lgan Muhammad Xiva, Kat va Gurganj madrasalarida tahsil olgach, nafaqat tabiiy fanlarni, balki arab, hind, fors, yunon, yahudiy va suryoniy tillarini ham mukammal o'rgandi. Xorazm, Marv madrasalarida mudarrislik qildi. Hisob va ilmi nujum fanlari bo'yicha tadqiqotlar olib borib, Marv hukmdori al-Ma'mun e'tiborini qozondi. Al-Ma'mun 813-yilda xalifalik taxtiga chiqqach, Marvdagi olimlarni poytaxt Bag'dodga olib ketdi.

Al-Xorazmiy dunyo ilm-fan taraqqiyotiga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. "Algebra" so'zining o'zi esa uning "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning

arifmetika risolasi hind raqamlariga asoslangan bo‘lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o‘nlik pozitsion hisoblash tizimi va shu tizimdagi amallarning Yevropada tarqalishiga sabab bo‘ldi. Olimning “Al-Xorazmiy” nomi esa necha asrlardirki “algoritm” shaklida fanda abadiy o‘rnashib qoldi va qolajak. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o‘nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, Al-Xorazmiyning “Zij” asari Yevropada ham, Sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq oydin yo‘lni ko‘rsatib berdi. Biroq negadir shu paytgacha fanning bir necha tarmoqlariga asos



solgan, o‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlarni nazarga olsa, hamma davrlarning ham eng buyuklaridan biri bo‘lgan bunday siymoning shaxsiy hayoti to‘g‘risida ma‘lumotlar deyarli saqlanmagan.

Xorazm o‘lkasida tug‘ilib o‘sgani bois, taxallusini ham shu zaminga ehtirom yuzasidan tanlagan allomani fanda 783-yil tug‘ilgan yili deb qabul etilgan. O‘sha davr sharoitidan kelib chiqqan holda dastlabki ma‘lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o‘z yurtida, Movarunnahr shaharlarida ko‘pgina ustozlardan olgan deb aytish mumkin. Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana Al-Majusiy va Al-Qutrubbuliy degan atamalar ham qo‘shib aytiladi.

Tarixdan ma‘lumki, Al-Ma‘mun 809-yildan Marvda dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi, so‘ngra 813-yildan boshlab xalifa bo‘ladi va 819-yili Bag‘dodga borib hukmdorlik qiladi. Al-Ma‘mun Marvda bo‘lganida nafaqat Al-Xorazmiyni, balki Movarounnahrlilik va Xurosonlik boshqa olimlarni ham o‘z saroyiga jalb qilgan. Natijada Vizantiya, Hindistondan ko‘plab kitoblar keltirilib, “Bayt ul-hikma”ning faoliyat doirasi bir muncha kengaytiriladi va uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchisi 828-yilda Bag‘dodning ash-Shammosiya

mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog‘ida 831-yilda barpo etiladi. Har ikkala rasadxonaning faoliyatini ham Movarunnahr va Xurosondan kelgan olimlar boshqaradi. Al-Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatiga boshchilik qiladi.

Bag‘dodga kelgan movarunnahrlik olimlar orasida yana bir mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg‘oniyning nomini faxr bilan tilga olish lozim. Shu kabi marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag‘dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo‘ldi. Rasadxonadagi ishlar haqida u “Bayt ul-hikma”ning mudiri Al-Xorazmiyga hisobot berib turardi. Yahyo ibn Abu Mansur 831-yili vafot etganidan so‘ng Al-Xorazmiy ushbu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi tadqiqotlarda faol qatnashadi. Tarixdan ma‘lumki, Yahyo ibn Abu Mansurning qalamiga mansub “Zij al-mumtahan” (“Sinalgan zij”) nomli astronomik asari ma‘lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog‘idagi rasadxonani esa Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi.

Albatta, Al-Xorazmiy bilan Bag‘dodda, keyinchalik “Ma‘mun akademiyasi” deb tanilgan “Bayt ul-hikma”da faoliyat olib borgan olimlarning barchasini ham Markaziy Osiyolik yoki xurosonlik deyish xato bo‘lardi. U yerda Suriya, Iroq va xalifalikning boshqa hududlaridan kelgan olimlar ham ishlagan. Zero, bu davrda Bag‘dod sharqning ilmu fani markazi sifatida dong taratgan va ilmga talpingan banda borki Bag‘dod sari intilardi. Biroq ular orasida Markaziy Osiyoliklar salmoqli o‘rinni egallagan. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850-yilda Bag‘dodda vafot etdi.

“Al-Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning, afsuski, faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular “Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”-algebraik asar, “Hind hisobi haqida kitob” yoki “Qo‘shish va ayirish haqida kitob” – arifmetik asar, “Kitob surat-ul-arz” – geografiyaga oid asar. “Zij”, “Asturlob bilan ishlash haqida kitob”, “Asturlob yasash haqida kitob”, “Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida”, “Kitob ar-ruhoma”, “Kitob at-ta‘rix”, “Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola”. Bu asarlarning to‘rttasi arab tilida, bittasi Farg‘oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchta hali topilgan emas.”⁽¹⁾

Al-Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma‘lum. Biroq unda olim algebraik risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma‘lum bo‘ladi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko‘chirilgan yagona qo‘lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola “Diksit Algorizmi”, ya‘ni “Al-Xorazmiy aytdi” iborasi bilan boshlanadi. U shunday deydi: “...Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o‘z ichiga oluvchi “Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob”ni ta‘lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o‘lchash, kanallar o‘tkazishda, geometriya va boshqa shunga o‘xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir”.

Al-Xorazmiyning eng yirik astronomik asari uning “Zij”idir. Olim bu asarini 830-yillar atrofida yozgan. “Zij” 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning

avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, "to'fon", "iskandar", "safar" va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko'chirish qoidalari keltiriladi.

Al-Xorazmiy "Zij"i nafaqat arab xalifaligidagi, balki sharq olamidagi dastlabki astronomik asarlardan edi desa bo'ladi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o'ziga jalb etdi. Unga Al-Xorazmiyning zamondoshlaridan Farg'oniy, al-Hoshimiy va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu "Zij"ni sharhlashga uchta asarini bag'ishlagan. Ayniqsa, bu asarning dovruq taratishida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007 yili ko'chirilgan nusxa diqqatga sazovor. Bu nusxani 1126-yili Adelard Bat Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi.

"Al-Xorazmiyning "Zij"i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjimaning to'rt qo'lyozma nusxasi asosida 1914-yili X.Zuter "Zij"ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida O.Neygubauer esa 1962-yili uning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida "Zij"ning to'la ruscha va qisman o'zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi. Xorazmiyning "Zij"i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo'ldi. Xorazmiy geografik asarining yozilgan yili aniq ma'lum emas. Akademik V.V.Bartold ushbu asar 836-847-yillar orasida yozilganligini aniqlagan. Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi." (2)

Aytish mumkinki, shu va boshqa asarlarining yaratilishi va ulardan nusxalar ko'paytirilib, keng ommaga yetib borishida ma'rifatparvar hukmdorlarning o'rni katta. Qolaversa saroyda yaratib berilgan sharoit tufayli Al-Xorazmiy Bag'dodda hozirgacha o'z qimmatini yo'qotmagan asarlar yaratdi. "Al-jabr val-muqobala", "Hisob al-Hind", "Ziji Xorazmiy", "Kitob at-tarix", "Kitob surat al-Arz", "Kitob al-amal usturlab", "Quyosh soati to'g'risida kitob" kabi asarlar yozib, o'z davrida bemisl xizmat qildi. Ayniqsa, sanoq tizimidagi chalkashliklar, hayotiy bir qoidaning yo'qligi ko'plab qiyinchiliklarni tug'dirar edi. Bu yechimni al-Xorazmiy kashf etdi. Ya'ni, sanoq tizimiga "0" sonini kiritib, 10 lik tizimni to'ldirdi.

Tarixdan ma'lumki, Bag'dod xalifalaridan al-Ma'mun hamda al-Vosiq ilm-u ma'rifatli hukmdorlar bo'lishgan. Ular al-Xorazmiyni oltin-u javohirlar izlash uchun emas, kitob to'plash va tadqiqotlar olib borish maqsadida 830-yili g'arbiy Hindistonga safarga yuborishadi.

Ikkinchi bor al-Xorazmiy Vizantiyaga borib, Efes shahri yaqinidagi g'or bilan bog'liq rivoyatni tadqiq etadi. Uchinchi safari esa Xazariyaga - Volga daryosining quyi oqimiga uyushtiriladi.

Ana shu tashriflari davomida to'plagan ma'lumotlar va boshqa manbalar orqali Al-Xorazmiy "Kitob surat al-arz" nomli jug'rofiyaga oid asar ham yozdi. Mazkur kitobda 209 ta tog'ning jug'rofik joylashuvi, daryo, dengiz va okeanlar havzasining shakli bayon qilingan.

Bundan tashqari, alloma boshchiligidagi yetmish nafar olim dunyo xaritasini tuzish bo'yicha ish olib borishgan. Al-Xorazmiyning o'zi esa 827-yili ona zaminimiz kattaligini aniqlash maqsadida yer meridianining bir gradusini

o‘lchab chiqdi. Meridian gradusi uzunligi o‘rta hisobda 112 km ga teng qilib olingan bo‘lib, bu aniq natijadir.

Al-Xorazmiyning insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi 10 lik sanoq tizimini yaratishdan tashqari, ko‘p ildizli tenglamalarni yechish usullari, sinus, kosinus, tangens qoidalarini IX asrdayoq kashf qilganligi bilan ham bog‘liq.

Al-Xorazmiy madrasalarda dars berib, saroyda tadqiqotlar o‘tkazish jarayonida olimlar faoliyatini kuzatgan va ilm-fan namoyondalarini uch guruhga bo‘lgan. Alloma nazarida, birinchi guruhga o‘zlarigacha amalga oshirilmagan ishlarni qilib, uni kelajak avlodga qoldirib, boshqalardan o‘zib ketuvchilar kiradi. O‘tmishdoshlari mehnatini sharhlab berib, bu bilan qiyinchiliklarni yengillashtirgan holda qulflarni ochuvchi, yo‘llarni yorituvchi, tushunishni osonlashtiruvchilar ikkinchi guruh olimlar sirasiga kiritilgan. Ba’zi kitoblardagi nuqsonlarni topib, uzilganlarni ulovchilar, Al-Xorazmiy ta’biri bilan aytganda, uchinchi guruhga mansubdir.

Muhammad Muso Al-Xorazmiy (783-850) o‘zi yaratgan kashfiyotlari, qomusiy bilim sohibi bo‘lgani tufayli insoniyat tafakkuri xazinasiga beqiyos ulush qo‘shgan alloma sifatida tarixda qoldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xorazm tarixi”. 1-jild. Urganch-1996, “Xorazm” nashriyoti.
2. U.Bekmuhamad “Xorazm va xorazmliklar”. Uchinchi kitob. Buxoro – 2022, “Durdona” nashriyoti.

TARIX


**MUSTAQILLIK YILLARIDA “O‘ZBEKISTON POCHTASI” AJ
NAMANGAN FILIALINING RIVOJLANISH TARIXI**

UO‘K 521.30



**Izzat
YUSUPOV**

**Toshkent tibbiyot
akademiyasi
Urganch filiali
Yoshlar
masalalari va
ma’naviy-
ma’rifiy ishlar
bo‘yicha
direktorning
birinchi
o‘rinbosari, tarix
fanlari bo‘yicha
falsafa doktori
(PhD), dotsent**



Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda mustaqillik yillarida “O‘zbekiston pochta” AJ Namangan filialiga qarashli aloqa bo‘limlari joylashgan binolar filial balansiga olindi. O‘tgan yillar davomida moddiy-texnik ta’minotiga katta e’tibor qaratildi, soha taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnikalari bilan jihozlanishi darajasini yangilanib borishi xizmatlar hajmi va sifatining oshishiga, shuningdek, yangi xizmat turlari joriy qilinishi natijasida “O‘zbekiston pochta” AJ Namangan filialini yangi bosqichga ko‘tarilish tarixiga e’tibor qaratilgan.

Аннотация: В статье в годы независимости в нашей стране на баланс филиала были включены здания, в которых располагались отделения связи, принадлежащие АО «Наманганский филиал Почты Узбекистана». В последние годы большое внимание уделяется материально-техническому обеспечению, обновлению уровня оснащения современными информационно-коммуникационными средствами, необходимыми для развития отрасли, увеличению объема и качества услуг, а также внедрению новых виды услуг.

Annotation: In this article, during the years of independence in our country, the balance sheet of the branch included buildings in which there were post offices belonging to the Namangan Branch of Uzbekistan Post JSC. In recent years, much attention has been paid to logistics, updating the level of equipment with modern information and communication tools necessary for the development of the industry, increasing the volume and quality of services, as well as introducing new types of services.

Kalit so‘zlar: Pochta aloqa bo‘limi, korporativ tarmoq, E-hujjat, post.uz, nampost.uz, elektron pul o‘tkazmalari, to‘lovlarni qabul qilish, pensiya dasturi.

Ключевые слова: Отдел почтовой связи, корпоративная сеть, электронный документ, post.uz, nampost.uz, электронные денежные переводы, прием платежей, пенсионная программа.

The keywords: Postal department, corporate network, electronic document, post.uz, nampost.uz, electronic money transfers, payment acceptance, pension program.

Mustaqillik yillarida va jamiyat hayotining barcha sohalari kabi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning muhim tarmog‘i hisoblangan pochta xizmatini tubdan isloh etish, uni jahon andozalari asosida takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

1992-yilda pochta aloqasi tashkilotlari va matbuot tarqatuvchi negizida “O‘zbekiston pochta” aksiyadorlik jamiyati Namangan filiali tashkil qilingan bo‘lib, o‘sha vaqtda filial tarkibida Namangan shahar ishlab chiqarish uchastkasi, 11 ta tuman pochta aloqasi tarmog‘i va 204 ta pochta aloqa bo‘limlari (shundan 1 ta ko‘chma aloqa bo‘limi) faoliyat ko‘rsatgan. Aloqa bo‘limlarining 44 tasi shaharda, 159 tasi qishloq joylarida joylashgan bo‘lib, 417 nafar pochta xizmatkorlari aholi va tashkilotlarga pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatgan. Viloyatda jami 518 ta pochta jo‘natmalarini eltib berish bo‘limlari faoliyat olib borgan¹.



Filial va tarmoqlar 272 ta kompyuter texnikasi, 184 ta elektron o‘lchov vositalari, 3 ta faks apparati, 160 ta printer, 94 ta modem bilan jihozlangan bo‘lib, ularning 182 tasi “O‘zbekiston pochta” AJ korporativ tarmog‘iga ulangan. Qog‘ozsiz hujjat almashish maqsadida filialda “O‘zbekiston pochta” AJ korporativ tarmog‘i orqali 2009-yildan boshlab, “E-hujjat” tizimi faoliyat ko‘rsatgan. Mazkur tizimda ishlash uchun filialning 11 nafar, shahar va tuman pochta aloqasi tarmoqlarining 12 nafar xodimi elektron raqamli imzo kaliti sertifikatiga ega bo‘lishgan. Pochta jo‘natmalarini ishlash, manzillari bo‘yicha ajratish maqsadida 1 dona “AKA 7202” rusumli metall detektor qurilmasi, “Rd 1503” rusumli dozimetr va “AUTO CLEAR 46-26” rusumli rentgen-televizion apparati o‘rnatilgan. Pochta jo‘natmalari va pul mablag‘larining xavfsizligini ta‘minlash maqsadida 8 ta avtomashina kuzatuvchilari uyali aloqa vositalari, 218 nafar xabarchilar va 12 nafar PXX texniklari velosiped bilan ta‘minlangan. 203 ta aloqa bo‘limlari joylashgan binolarning 152 tasi (74,9%) filial balansiga olingan².

¹ “O‘zbekiston pochta” AJ Namangan filialining 2022-yil 10-sentabrdagi 34-11/547-sonli javob xati. – B.1.

² “O‘zbekiston pochta” AJ Namangan filialining 2022-yil 10-sentabrdagi 34-11/547-sonli javob xati. – B.2.

“O‘zbekiston pochta” AJ korporativ tarmog‘i orqali filial va shahar, tuman pochta aloqasi tarmoqlarida, aloqa bo‘limlarida “post.uz” domenida 19 ta, “nampost.uz” domenida 71 ta elektron pochta ishlatilib kelingan. “Post.uz” domenidagi elektron pochtalardan 9 tasi internet orqali xalqaro kiruvchi va chiquvchi ma’lumotlarni qabul qilish va jo‘natish imkoniyatiga ega. Moliyaviy to‘lov operatsiyalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatish maqsadida aloqa bo‘limlariga 219 ta bank terminallari o‘rnatilgan. Ularning 46 tasi shahar aloqa bo‘limlariga, 160 tasi qishloq aloqa bo‘limlariga, 13 tasi shahar-tuman pochta aloqa tarmoqlari markaziy bo‘limlariga o‘rnatilgan. Ma’lumotlar uzatishning mavjud korporativ tarmog‘ini zamonaviylashtirish yo‘li bilan pochta aloqasining avtomatlashtirilgan tizimi yaratilib, “Elektron pul o‘tkazmalari”, “To‘lovlarni qabul qilish”, “Pensiya” dasturi, “Ro‘yxatga olinuvchi pochta jo‘natmalarining o‘tishini nazorat qilish” avtomatlashtirilgan tizimlari amalda qo‘llanilmoqda.

2013-yil aprel oyidan boshlab pensiya to‘lovlari hisob-kitobi va nazoratini avtomatlashtirilgan tizim orqali amalga oshirish maqsadida “Pensiya” dasturi joriy etilib, filial tarkibidagi 146 ta pochta aloqasi obyektida kunlik pensiya to‘lovi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritib borilgan. Pochta aloqa obyektlarida “To‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi” joriy etilib, “O‘zbekenergo” DAK bilan billing tizimi orqali “On-line” rejimida ma’lumotlar almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Filial tarkibidagi 146 ta pochta aloqasi obyektlarida “To‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi”ga kunlik ma’lumotlar kiritilib borilgan. Elektron pul o‘tkazmalari (EPO‘) va “to‘lovlarni qabul qilish” xizmatini ko‘rsatishda 176 ta elektron raqamli imzo kalitidan foydalanilgan¹.

2014-yilga kelib filial tarkibida 11 ta tuman pochta tarmoqlari, 1 ta shahar va 160 ta qishloq aloqa bo‘limlari hamda 1 ta ko‘chma aloqa bo‘limi faoliyat yuritgan bo‘lib, tizimda 1046 nafar xodim mehnat olib borgan. 2014-yil filial bo‘yicha o‘rtacha bir oylik pochta ayirboshlash ko‘rsatkichlari: 807854 ta davriy matbuot nashri, 142028 ta xat, banderol pochta kartochkalari va paketlar, 1469 ta posilka, 9004 ta pul o‘tkazmasi, 194130 ta pensiya va nafaqa to‘lovlari o‘z egalariga yetkazib berildi. Deyarli barcha ish jarayonlari avtomatlashtirilgan bo‘lib, korporativ kompyuter tarmog‘i orqali elektron ma’lumotlar almashinuvi tizimida amalga oshirilgandi².

Bunday tartibda ishlayotgan aloqa shoxobchalari hozirda viloyatda 153 tani tashkil etadi. Elektron pul o‘tkazmalari hamda to‘lovlarni qabul qilish ishlari ham elektron shaklda. Shuningdek, elektron raqamli imzo kalitlaridan foydalanish tobora ommalashib bormoqda. Hozirga kelib, undan foydalanuvchi soni 2000 tadan oshdi. Keyingi yillarda xalqaro elektron pul o‘tkazmalari (EPU)ni rivojlantirishga alohida e‘tibor berilayotir. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari bo‘lmish Rossiya, Ukraina, Belarus, Qozog‘iston, Moldova kabi davlatlar bilan elektron pul almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan. Ayni vaqtda filial va uning joylardagi obyektlarida 271 ta kompyuter, 160 ta printer, 94 ta modem, 3 dona faks apparati, 8 skaner, 31 nusxa ko‘chirish qurilmasi va yana ko‘plab

¹ “O‘zbekiston pochta” AJ Namangan filialining 2022-yil 10-sentabrdagi 34-11/547-sonli javob xati. – B..3.

² Mavlanov O‘., Axmedov S., Umarov B., O‘zbekiston pochta tarix va taraqqiyot. – B.212.

zamonaviy texnikalar ishlab turibdi. Sohani axborot texnologiyalari bilan ta'minlash darajasi ortib borayotganligi pochta aloqasida xizmatlar sifati va mehnat unumdorligiga ijobiy ta'sir o'tkazmoqda¹.

2020-yilda filial tarkibida 11 ta tuman pochta aloqasi bog'lamalari va 1 ta Namangan shahar pochta aloqasi bog'lamasidan iborat bo'lib, 435 nafar xodimlar faoliyat yuritadi. Shundan 37 nafar oliy, 269 nafari o'rta maxsus, 112 nafari o'rta ma'lumotga ega. 2021-yilda pochta aloqasi sohasiga 32 turdagi elektron davlat xizmatlari, 2 turdagi bank xizmatlari (plastik kartadan naqd pul yechish va mablag' bilan to'ldirish), infokiosk orqali xizmat ko'rsatish, mijozlar nomiga kelgan pochta jo'natmalarini olishi uchun mo'ljallangan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatuvchi avtomatlashtirilgan komplekslardan (pochtamat) foydalanish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning mahsulotlarini Respublika ichida onlayn sotish va mijozlarga yetkazib berishni yo'lga qo'yish bo'yicha milliy onlayn savdo maydonchasining veb versiyasi ishga tushirildi.

Viloyat va tuman markazlariga xizmat ko'rsatuvchi pochta talyonlarni markazdagi saralash bo'limidan "bog'lama-mijoz" sxemasi asosida pochta jo'natmalarini olib manzilgacha yetkazib berish amaliyotini joriy etish maqsadida 26 dona elektroskuter, 1 dona "Gazel" yuk avtomashinasi, 4 dona "Wolkswagen Caddy Cargo" yengil avtomashinasi, 152 dona to'lovlarni onlayn ravishda qabul qiluvchi mobil qurilma, 100 dona kompyuter texnikasi ajratildi. Bundan tashqari, 22 ta aloqa bo'limlarini zamonaviy shaharsozlik talablariga mos ravishda ta'mirlash va yagona korporativ dizayn asosida jihozlash ishlari boshlangan. Shu bilan birga pochta aloqasi obyektlarini qaytadan zamonaviy ko'rinishda qurish, yagona dizayn asosida shaharsozlik talablariga mos ravishda Yangiqo'rg'on tumanidagi Iskovot va Kalisho aloqa bo'limlari binolari davlat xususiy sherikchilik asosida amalga oshirilayotgan qurilish ishlari tugallanib, aholi va tashkilotlarga pochta aloqasi xizmatlari ko'rsatilmogda².

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston pochta" AJ Namangan filialining 2022-yil 10-sentabrdagi 34-11/547-sonli javob xati. – B.1.
2. Mavlanov O., Axmedov, S., Umarov, B. O'zbekiston pochta tarix va taraqqiyot. – B.212.
3. "Xabar" gazetasi, 2016, 7 oktabr, 41(1255). – B. 14.

¹ "Xabar" gazetasi, 2016, 7-oktabr, 41(1255). – B. 14.

² "O'zbekiston pochta" AJ Namangan filialining 2022-yil 10-sentabrdagi 34-11/547-sonli javob xati. – B 4.

TARIX


**O‘ZBEKISTONDA ENEOLIT DAVRI TURAR-JOYLARINING
JOYLASHISH GEOGRAFIK YECHIMLARI**

UO‘K 520.40



**Maqsadbek
G‘AFFAROV**

**Urganch
innovatsion
universiteti
stajyor-
o‘qituvchisi**



Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning tarixiy-madaniy hududlarida eneolit davri aholisi turar-joylarining joylashish xususiyatlari tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются особенности расположение населённых пунктов историков – культурном территории энеолитического периода Узбекистана.

Annotation: The article analyzes the features of the settlements of the Eneolithic population in the historical and cultural regions of Uzbekistan.

Kalit so‘zlar: Xlopin.I.N, Berdiyev O.K, Sagdullayev A, Bijanov E.B, Tolstov S.P, Itina M.A, Xolmatov N.U, Juraqulov M.J, Maqsudov F.A, Normadov.D.R, O‘rta Osiyo, Kapetdog‘, Murg‘ob, Ustyurt, Janubiy Orolbo‘yi, Quyi Zarafshon vodiysi, Qizilqum, Toshkent, Farg‘ona, Alan, Isatay va Markaboy, Qoraquduq, Oqtaylik, Yonbosh-4, Tolstov manzili.

Ключевые слова: Хлопин.И.Н, Бердыев О.К, Сагдуллаев А, Бижанов Е.Б, Толстов С.П, Итина М.А, Холматов Н.У, Журақулов М.Ж, Мақсудов Ф.А, Нормадов.Д.Р, Средняя Азия, Капетдог, Мургаб, Устюрт, Низовья Приаралья, Низовья Зарафшон, Кызылкум, Ташкент, Фергона, Алан, Исатай, Маркабой, Каракдук, Октайлик, Ёнбош-4, Стоянки Толстов.

The keywords: Khlopin.I.N, Berdiev O.K, Sagdullaev A, Bijanov E.B, Tolstov S.P, Itina M.A, Kholmatov N.U, Jurakulov M.J, Maksudov F.A, Normadov.D.R, Central Asia, Capetdog, Murgob, Ustyurt, Southern Arolboi, Lower Zarafshan Valley, Kyzylkum, Tashkent, Fergana, Alan, Isatay and Markaboy, Karakuduy, Oktaylik, Yonbosh-4, Tolstov settlement.

XX asrdagi arxeologik adabiyotlarida qayd qilingan ma‘lumotlar vatanimizda neolit davri urug‘ jamoalarining yangi avlodlari kasbi-korlarini olib borishida erishgan natijalarini yoritishda nazariy manba bo‘lib hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti uzluksiz davom etishi munosabati bilan vujudga kelgan rang-barang muammolarni yechimini ijobiy hal qilish neolit urug‘ jamoalarining bu turfa olamga chiqqan avlodlarning zimmasiga tushgan edi. Miloddan avvalgi IV ming yillik O‘rta Osiyo tarixida yuz bergan o‘zgarishlari bilan neolit davri jamiyatida kechgan jarayonlardan tubdan farqlanish xususiyatiga ega. O‘rta Osiyo mintaqasida neolit davri urug‘-jamoalari joylashishi, turarjoylari tuzilishi, xo‘jalik sohasining o‘ziga xos xususiyatlari jihatidan o‘zlashtiruvchi va ishlab chiqarish xo‘jaligi hududlarining geografik chegaralari mavjud edi. Chunonchi

Oʻrta Osiyoning bepoyon hududlar geografik manzarasi (dashtlar, tekisliklar, daryo irmoqlari, togʻ etaklari) da umrguzaronlik qilgan aholi ovchilik, baliqchilik va termachilik kabi oʻzlashtiruvchi xoʻjalikni olib borib, neolit davri iqtisodiy munosabatlar asosini tashkil etgan boʻlsa, Janubiy Turkmanistonning Kapetdogʻ oldi etaklari va Murgʻob daryosi havzasi atroflarida istiqomat qilgan aholi tomonidan turar-joylar qurishida yangi ixtirolar paxsa-guvakni ishlatganlar. Ularning xoʻjaligi “qayr” dehqonchiligi, xonaki chorvachiligi sohalarini olib borib, ishlab chiqarish xoʻjaligini yoʻlga qoʻyganlar. Miloddan avvalgi IV ming yillikda Oʻrta Osiyo mintaqasida mis-tosh davri boshlanib, u ibtidoiy jamoa tuzumi tarixida oʻziga xos belgilarga ega edi.

Oʻrta Osiyo mintaqasi tarkibiy qismi boʻlgan Vatanimiz hududida neolit davri urugʻ-jamoalarining eneolit davrida xoʻjalik sohalarini rivojlantirishda olib



borgan tarixni yoritish nazarda tutilgan.

Oʻrta Osiyo mintaqasi geografik joylashishi jihatidan farqlanish xususiyatiga ega boʻlgan hududlarda neolit davri urugʻ jamoalarining yoyilishi ularning xoʻjalik sohalarini rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlari oʻzlashtiruvchi xoʻjaliklarda saqlanib qolishi, eneolit davrida davom etgan boʻlsa (Ustyurt chinki, Janubiy Orolboʻyi, Quyi Zarafshon vodiysi, Qizilqum) Janubiy Turkmanistonda istiqomat qilgan aholi ishlab chiqarishning yangi shakli, yaʼni qoʻshimcha oziq-ovqat mahsulotlari, oʻtroqlashgan kundalik hayot, bunyod qilingan turarjoylar uzoq muddatlarga xizmat qilishi, uy chorvachiligi hamda hunarmandchilikni bir qancha tarmoqlarini rivojlantirish, savdo aloqalarini yoʻlga qoʻyish kabi belgilari bilan jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish boʻlgan.

Tadqiqotchilar qayd qilishicha, Oʻrta Osiyo eneolit davrida xoʻjalikni olib borgan aholini quyidagi innovatsiyalarni ixtiro qilib, xoʻjalik manzarasini belgilab bergan:

- shakllangan ziroatchi chorvachilik xoʻjaligi asosida mustahkam oʻtroq hayot va sugʻorma dehqonchilikning vujudga kelishi;

- katta hududlarning jadal oʻzlashtirilishi va hududiy joylashishi zichligining oʻsib borishi;

- metallurgianing paydo bo'lishi va rivojlanishi natijasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiy etishi;
- hunarmandchilik va binokorlik bilimida ixtirolar qilinishi (mis qurollari, zeb-u ziynat buyumlari, xumdonlar, ko'p xonali uylar, mudofaa devorlar, xom g'ishtlar, me'moriy rejalashtirish) [1. 2. 3].



O'rta Osiyo hududlarining eneolit davri jamiyatida yuqorida qayd qilingan innovatsiyalar natijalari O'zbekiston hududida xo'jalik yo'nalishlari urug'-jamoalari faoliyatlarida o'z ma'nosini topmaydi. Ustyurt chinki, Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon vodiysi va Qizilqumda istiqomat qilgan neolit urug'-jamoalari uyushmalari geografik muhit, iqlim sharoitidan kelib chiqib, xo'jalik an'alarining tadrijiy rivojlanishi davom etganligini mavjud bo'lgan adabiyotlar ma'lumotlarini asos qilib o'rganish asosiy qismini tashkil qiladi.

Natijada, O'zbekistonning Ustyurt, Janubiy Orolbo'yi, Quyi Zarafshon, Qizilqum tekisligi va tog'li (Toshkent va Farg'ona vodiylari) hududlarida neolit davri urug'-jamoalari uyushmalarining eneolit davri turarjoylarida olib borgan xo'jalik sohalari natijalar to'g'risida ma'lumotlar qayd qilindi.

O'zbekiston hududida tekislik va tog'li hududlarda eneolit davri aholisining turar-joylari joylashishi hamda xo'jalik sohasida olib borgan faoliyatlarining o'ziga xosligi to'g'risida yakuniy g'oyalar izohlangan.

O'zbekiston hududining geografik holatini namoyon qilgan tekislik va tog'li hududlarda xo'jalik yo'nalishlarini olib borgan mezolit urug'-jamoalari neolit davrida faoliyatlarini olib borib, mis-tosh davrida mavjud bo'lgan imkoniyat asosida davom ettirganlar.

E.B. Bijanov Ustyurt platosi, Borsa-kelmas, Alan va Borliboy hududlarida hamda aholi manzilgohlari Alan, Isatay va Markaboy manzilgohlarida olib borgan qazishma ishlari natijasida olingan moddiy ashyolarni miloddan avvalgi IV-III ming yilliklarga oidligini qayd qilgan [4].

Tadqiqotchi Ustyurt hududida Qoraquduq, Churuk, Oqtaylik, Adjiboy, Oltuba manzilgohlari ovchilarning neolit davri xo'jaligi to'g'risida ma'lumotlari kuzatilmaydi. Quyi Amudaryo havzasi Sulton Uvays tog'i shimoli-g'arbiy, Yonboshqal'a tevarak-atroflarida Yonbosh-4, Tolstov manzili urug'-jamoalari uyushmalarining mis-tosh davrida xo'jaligi to'g'risida ma'lumotlar arxeologik adabiyotlarda qayd qilinmaydi, ammo Uzboy shimoliy va janubiy hududlarida

mazkur davr xo‘jalik sohalari hamda mozor-qabrlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kuzatish mumkin [5].

Charishli, Togolok soylari atroflarida Bala-Ishem-8,9 manzilgohlari madaniy qatlamlaridan hamda Tumek-kichikjik qabridan olingan antropologik ashyolar eneolit davriga mansub bo‘lgan [6.7].

Xorazmning Oqchadaryo havzasi hududiga ulanib ketgan Quyi Zarafshon vodiysi hamda Qizilqumda neolit urug‘-jamoalari avlodlari eneolit davrida ajdodlari xo‘jalik an‘analarini davom ettirganlar. Tadqiqotchilar asarlarida Quyi Zarafshon daryosi quyi havzasida neolit davrida o‘zlashtiruvchi xo‘jalik olib borgan Darvozaqir-1 ona urug‘i uyushmalarining bir qismi mis-tosh davrida etnik munosabatlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni kuzatish qiyin. [8]. N.I.Xolmatov asarida qayd qilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, Zarafshon quyi vodiysi, Qizilqum hududlari geografik holatini tasvir etgan Echkiliksoy, Daryosoy va Ayakagitma havzalari sohili etaklariga ulangan hududlarda neolit davri aholisining xo‘jalik an‘analari eneolit davrida davom etgan. O‘rta Zarafshon hududida Sozag‘on II aholisi mis-tosh davrida mehnat qurollari modernizatsiyasi munosabati bilan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy xo‘jaligini olib borganlar [9].

Sozag‘onlik ovchilar aholi soni oshganligi sabab, tevarak-atroflarga ko‘chib, Tepaqul soyi o‘ng sohili etagida shu atamada qurilgan turarjoyda amaliy mashg‘ulotlarini davom ettirishgan degan xulosaga kelish mumkin [10].

Farg‘ona va Toshkent hududlarida tog‘ oldi etaklarida soy bo‘ylari sohili tevarak-atroflarida neolit davri aholisi eneolit davrida xo‘jalik an‘analarini davom ettirganlar. E‘lon qilingan arxeologik adabiyotlarga ko‘ra, Markaziy Farg‘ona tekisligida 80 dan ortiq neolit davri urug‘-jamoalari zich joylashib (Zanbar, Yangiqadam, Dorozko‘l, Mingbuloq, Uzunko‘l va boshqalar) geografik kenglikda mis-tosh davrida ajdodlari kasbi-korlarini yo‘lga qo‘yganlar [11].

Toshkent viloyati Ohangaron vodiysi neolit davri aholisi mis-tosh davrida geografik muhit sharoitida tog‘-kon sanoati ashyosidan foydalanib xo‘jalik an‘analarini olib borganlar [12].

Shu tariqa yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar quyidagi xulosani qayd qilish imkoniyatini hosil qildi:

O‘zbekiston hududini geografik manzarasini hosil qilgan tog‘ etaklari va tekislik hududlarida neolit davri urug‘-jamoalarining moslashgan geografik kenglikda suv ta‘minoti darajasidan kelib chiqib, turar-joylarni o‘zgartirib, amaliy mashg‘ulotlarini davom ettirganlar.

Ustyurt, Oqchadaryo havzasida neolit davri urug‘-jamoalari vorislari mis-tosh davrida ajdodlari xo‘jalik an‘analarini moslashgan hududda olib borgan bo‘lsa, Sariqamish bo‘yi havzasi Davdon irmog‘i quyi havzasi janubi-g‘arbiy qismida neolit davri aholini bir qismi shimoliy va janubiy Uzboy hududida xo‘jalik madaniy jihatidan ixtirolar qilmasdan ko‘nikkan mehnat qurollaridan keng foydalanganlar. Turar joylar yerto‘la shaklida bo‘lgan. Xuddi shunday xo‘jalik yo‘nalishlarda Quyi Zarafshon va Qizilqum aholisi kundalik faoliyatlarida kuzatiladi.

Toshkent vodiysi Ohangaron daryosi atroflari va Farg‘ona vodiysi neolit davri urug‘-jamoalari Markaziy Farg‘ona tekisligi qulay tabiiy resurslardan

unumli foydalangan Ko‘lbuloqlik va Seleng‘ur ovchilarning vorislari yerto‘la shaklida chaylalarda istiqomat qilib, amaliy kasb-korlar bilan shig‘ullanishgan.

Eneolit davri urug‘-jamoalari uyushmalarining xo‘jalik sohalari erishgan zafarlarining bronza jamiyati rivojlanishiga ta’sir etish jarayonini alohida mavzu sifatida o‘rganishni taqozo etadi.


Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хлопин.И.Н. Энеолит юго-запада Средней Азии// Средняя Азии в эпоху камня бронзы – М-Л; Наука. 1966. – С. 92-93.
2. Бердыев О.К. Новые раскопки на поселениях Песседжикдепе и Чакмакли депе// Каракумские древности. –Ашхабад,1968. Вып-II. – С. 10-17.
3. Сагдуллаев А. Қадимги Ўрта Осиё тарихи. – Тошкент.: Университет. 2004. –Б. 23-26.
4. Бижанов Е.Б. Новые данные о неолите Юго-Западного Устюрта// Вестник Каракалпакского филиала АН УзССР – Нукус. 1980. №3. – С. 70-75
5. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М. Наука. 1962. – С. 23-38.
6. Итина М.А. Работы Узбойского отряда в 1957 г//КСИЭ. – М; 1957. Вып-XXVI. – С. 105-113.
7. Итина.М.А. Памятники первобытной культуры Верхнего Узбоя//ТРХАЭЭ. – М.; Наука. 1958. Т-II. – С. 258-308.
8. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Нижнего Зарафшана-Ташкент.: Фан. 2007. – С. 27-44.
9. Журакулов М.Ж. Холматов Н.У. Самарқанд Университети тадқиқотлардан//Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2003 йил.-Тошкент. 2004. №4. – Б. 38-41.
10. Холматов Н.У. Тепакул неолит даври макони тадқиқотлари саҳифасидан//Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2002 йил.- Тошкент. 2003. №3. – Б. 61-65.
11. Мақсудов Ф.А. К проблеме сложения производящего хозяйства в Ферганской долине//История и археология Турана. – Самарқанд. 2017. №3. – С. 45-58.
- 12.Нормадов.Д.Р. Куйи Оҳангарон ҳавзасида Бурганлик маданиятига оид мулоҳазалар// Марказий Осиё тарихи ва археологияси: Анъаналар, инновациялар ва материаллар. –Тошкент. 2021. – Б. 185-189.

TARIX**O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA XALQ TABOBATINI RIVOJLANISH TARIXI****UO‘K 530.60**

**Jamshid
ESHNIYAZOV**

**Toshkent tibbiyot
akademiyasi
Urganch filiali
kengash kotibi**



Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimiz hududida tibbiyot va tabobatning IX-XII asrlardagi rivoji bilan bir qatorda shu davrda yetishib chiqqan buyuk tabiblar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda Temuriylar davri va undan keyingi davrda xalq tabobati borasida amalga oshirilgan ishlar tarixiga e'tibor qaratilgan.

Аннотация: В статье приводятся сведения о развитии медицины и народной медицины на территории нашей страны в IX-XII вв., наряду со сведениями о великих врачах, развивавшихся в этот период. Кроме того, внимание уделяется истории народной медицины в период Тимуридов и последующее время.

Annotation: This article provides information about the development of medicine and traditional medicine on the territory of our country in the 9th-12th centuries, along with information about the great doctors who flourished during that period. In addition, attention is paid to the history of traditional medicine in the Timurid period and beyond.

Kalit so‘zlar: renessans, tabib, ibodatxona, “Ash-shifo”, “Dorush-shifo”, “Maskani olimon”, chopar, ayg‘oqchi.

Ключевые слова: Ренессанс, целитель, храм, пенел-целитель, лекарь, местный ученый, бегун, шпион.

The keywords: Renaissance, healer, temple, ash healer, healer, local scientist, runner, spy.

O‘rta Osiyoda tibbiyot fanlari ko‘hna va boy tarixga ega. Hozirgi O‘zbekiston hududida qadimda keng ko‘lamda olib borilgan ilmiy-amaliy ishlar ko‘pgina xastaliklar masalan: zotiljam, bo‘qoq, saraton, o‘t pufagi va buyrak toshi kasalliklari temirtki, go‘sh yara, bezgak, terlama, vabo, toun, chechakni xalq tabobati yordamida davolash imkonni bergan. “IX-XII asrlarda tibbiyot fani Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekiston hududlarida ravnaq topdi. Bu davrda O‘rta Osiyoda bir qator feodal davlatlar shakllandi, ularda buyuk tabiblar va hakimlar yetishib chiqdi”[1]. O‘rta Osiyo renessansi (uyg‘onishi) deb baholanayotgan bu davrda Abu Ali ibn Sino, Sharofiddin ibn Abdulloh Iyloqiy, Ismoil Jurjoniy, Mahmud ibn Umar Chag‘miniy kabi hakimlar yashab o‘tgan.

Tibbiy bilimlar va tibbiy xizmat ko‘rsatish sirlari, odatda, avloddan avlodga meros sifatida o‘tib, bu sohada nom qozongan ko‘plab tabiblar sulolalari paydo bo‘lishiga olib kelardi. Bunday tabiblar mintaqamizning deyarli barcha yirik shaharlari va viloyatlarida azaldan mavjud bo‘lib kelganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.



“O‘zbekiston hududlaridagi yirik shaharlarda qadimgi davrlardan boshlab aholiga, yo‘lda betob bo‘lib qolgan yo‘lovchilar, savdogarlarga tibbiy yordam ko‘rsatiladigan maxsus shifoxonalar bo‘lgan. Bunday maskanlar, odatda, ibodatxonalar qoshida bo‘lib, davolash bilan ham ko‘pincha ruhoniylar shug‘ullangan”[2]. Marv, Urganch, Buxoro kabi yirik shaharlarda o‘rta asrlarda shifoxonalar bo‘lgan. Ma‘lumki mintaqamizda tibbiyot rivojlangan o‘rta asrlarda yuksak cho‘qqiga ko‘tarildi. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asarida keltirilgan ma‘lumotlar bu sohada qo‘lga kiritilgan yutuqlarning eng yorqin dalilidir.

Keyingi bosqich Temuriylar davri bilan bog‘liq. O‘rta Osiyo va Sharqning turli hududlaridan kelgan tabib va hakimlar Temuriylar xonadoni a‘zolari va amaldorlarga yuqori malakali tibbiy yordamni yetkazib berardilar. Ular orasida xorazmlik hakimlar ham bor edi. Ilm-fan rivoji natijasida Temuriylar davlatining har ikki hududi – Movarounnahr va Xurosonda katta shifoxona va boshqa davolash maskanlari faoliyat yurita boshladi. “Mutafakkir hukmdor Shohruh Mirzo va o‘g‘li Ulug‘bek, ma‘rifatparvar vazir Mir Alisher Navoiyning rahnamoligida Hirot, Astrobod va boshqa shaharlarda “Ash-shifo”, “Dorush-shifo”, “Maskani olimon” deb nomlangan tibbiyot va tabobat maskanlari, maktab va madrasalar tashkil qilindi, qobiliyatli tabib va hakimlar faoliyatiga sharoit yaratildi”[3]. XIX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo hududlarini chor Rossiyasi istilosi bilan Yevropa tibbiyoti ham kirib keldi. Bu hol ijobiy rol o‘ynasa ham, o‘z navbatida, xalq tabobati an‘analarining asta-sekin amaliyotdan chiqib borishiga sabab bo‘ldi.

Xususan, mintaqaning chekka hududlari, asosiy karvon yo‘llarida chetda bo‘lgan joylarda ham yo‘lovchilarga va ulov vositalariga malakali tibbiy xizmat

ko'rsata oladigan mahalliy tabiblar bo'lganligi so'ngi davrlarda rus sayohatchilari va harbiylari asarlarida ham qayd etiladi.

“XX asr boshlarida Surxon vohasidan Boysundan Denov bekligiga ketayotgan rus harbiylaridan iborat guruh a'zosi D.N.Logofat safdoshlaridan birining otini ilon chaqib olganda qishloqdagi mahalliy mulla (tabib) tomonidan Yevropa tibbiy an'alaridan begona bo'lgan usulda tezda va asoratsiz davolaganligini xayrat bilan yozib qoldirgan”[4].



Elchilik missiyalari va yirik savdo karvonlari tarkibida maxsus tabiblar ham bo'lgan. Bu bir tomondan turli hududlar o'rtasida siyosiy-iqtisodiy aloqalar rivojiga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, tibbiy bilimlarning savdo yo'llari bo'ylab turli mintaqalarga tarqalishiga xizmat qilgan. Maxsus choparlar, ayg'oqchilar va davlat xizmatidagi boshqa kishilar, odatda, eng zarur tibbiy dori darmonlar, turli giyohlar bilan ta'minlanib, ular o'zlariga va sheriklariga birlamchi tibbiy yordam ko'rsata olish malakasiga ham ega bo'lishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zME. - Toshkent: Qomus, 1997. – B. 457.
2. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. - T.: Akademiya, 2008. – B. 303-305.
3. Navoiy davri tibbiyoti / Tuzuvchilar: Mahmud Hasaniy va Surayo Karimova.- Toshkent: Ibn Sino, 1991. - B.126.
4. Кадиоров А.А. История медицины Узбекистана. – Ташкент: Ибн Сина, 1994. – 233 с.

FILOLOGIYA

ZULFIYA OZARBAYJONDA



**Almaz
Ulviy**

**Ozarbayjon
Milliy bilimlar
akademiyasi
N.Ganjaviy
institutining
bo‘lim mudiri.
Professor**



UO‘K 821.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Zulfiya ijodiy merosi va uning Ozarbayjonga tashrifi, qardosh xalq tiliga o‘g‘irilgan tarjima asalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

Аннотация: *В статье рассказывается о творческом наследии Зульфийи, о её визите в Азербайджан, и о её произведениях переведённых на языки братских народов.*

Annotation: *This article tells about the creative heritage of Zulfiya, about her visit to Azerbaijan, and about her works translated into the languages of the fraternal peoples.*

Kalit so‘zlar: *Zulfiya, Ozarbayjon, Boku, Samad Vurg‘un, Dilboziy, Oybek, Aliakbar Ziyotoy.*

Ключевые слова: *Зульфийа, Азербайджан, Баку, Самед Вургун, Дильбози, Ойбек, Алиакпер Зиятой.*

The keywords: *Zulfiya, Azerbaijan, Baku, Samed Vurgun, Dilbozi, Oybek, Aliakper Ziyatoy.*

Zulfiya XX asr o‘zbek adabiyotining mashhur namoyandalari G‘ofur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhordan tortib, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Mirtemirlar bilan birgalikda adabiyot maydoniga kirib keldi va o‘z ijodining yorqin sahifalarini ochdi. Shoiraning o‘zi ham qayd etganidek: “shoirlik kasb-hunar emas, qismatdir, qismat esa insonni tark etmaydi”. Shoirlik toleyi ila yolg‘iz qolgan o‘lmas san’atkor, dilbar ona – Zulfiyaxonim she’riyatidagi go‘zallik, oshiqona tuyg‘ular, umuman, insoniy munosabatlar tasviri o‘quvchini chuqur o‘yga toldiradi.

Shoira haqida yozmoqlik, o‘ylamoqlik, tadqiqotlar olib bormoqlikning o‘zi kishida yoqimli taassurotlar uyg‘otadi:

Zulfiya – ko‘kdan tushgan malakka o‘xshardi.

Zulfiya – sevilgan, tanlangan, parilar bulog‘idan suv ichgan qiz edi.,

Zulfiya – shoirona qalbi ila shoir qalbli inson bilan oila qurdi.

Zulfiya – onalik saodatidan sarmast baxtiyor inson bo‘ldi.

Zulfiya – hayotni sevdi, hayotning quvonchli kunlariga qo‘l uzatdi. Hayotning talx sharobini-da sabot bilan simirmoqqa o‘zida kuch topa oldi. Umr yo‘ldoshining ko‘magini hamisha qalban his etib yashadi.



Uning yuragi dunyoning ezgu niyatli shoir-yozuvchilari bilan jo‘rovoqlikda kuyladi. Hindistonda o‘tkazilgan xalqaro anjumanda raislik qildi va o‘z so‘zi bilan ko‘z yetmagan olis manzillargacha yetib bordi. “Mushoira” poemasi Osiyo va Afrika taraqqiyparvar yozuvchilarining 1956-yilda Hindistonda o‘tkazilgan konferensiyasi taassurotlari natijasi o‘laroq dunyoga keldi. Xalqlar do‘stligi, insonparvarlik kabi ezgu g‘oyalarni o‘zida aks ettirgan doston Javoharlar Neru nomidagi mukofotga loyiq ko‘rildi. Shoira “Nilufar” mukofoti bilan ham taqdirlandi.

Zulfiyaning ocherklari, publitsistik qaydlari maroq bilan o‘qildi. Shoira tarjima maydoniga kirdi – Nekrasov, Mustay Karim, Demyan Bedniy, Nozim Hikmat, Marvarid Dilboziyini... o‘zbek tiliga o‘girdi. Shoira qalbini chiroq qilib yoqib, dunyo kezdi. Yo‘li Ozarbayjonning Bokusidan ham o‘tdi.

Zulfiyaning ozarbayjon tiliga qilingan tarjimalarini havas, maroq, zavq-shavq bilan o‘qiysiz. Men ularni “O‘zbek adabiyoti antologiyasi”, “O‘zbek she‘rlari”, “Navoli O‘zbekiston” nomli almanaxlarda, shuningdek, 1969-yilda Marvarid Dilboziyning so‘zboshisi bilan chop etilgan “She‘rlar” kitobida o‘qiganman. Ibrohim G‘afurovning “So‘zning olovi” majmuasidagi Zulfiya ijodiyotiga oid adabiy tahlillarga maftun bo‘lganman.

Zulfiya she‘rlarining aksariyat qismini Aliakbar Ziyotoy, shuningdek, Ilyos Topdiq, Marvarid Dilboziylar ozar tiliga o‘giranlar. Ozarbayjonda O‘zbekiston haftaligi arafasida shoir Muso Aliakbarli muharrirligi ostida nashr etilgan “Tuproqqa sajda” kitobida shoiraning 35 ga yaqin she‘rlari havola qilinadi. Umuman, Ozarbayjon matbuotida Zulfiya ijodidan ko‘plab namunalar, tahliliy maqolalar nashr etildi, nashr etilmoqda.

Zulfiya she'rlarining bosh g'oyasi nimadan iborat? Javobni Marvarid Dilboziy ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, "shoira asarlarining eng buyuk qiymati ularning obrazlilikidadir". U qalam tebratgan mavzular xilma-xil va rango-rang; o'jar hayotsevarlik ruhi bilan, hijron yengolmagan muhabbat bilan sug'orilgan. Bu nekbin she'riyat insonni yuksalishga, boshni baland ko'tarib yashashga, matonatli bo'lishga o'rgatadi.

*Cheksiz go'zalliklarga
Nazar solganimda men,
Sevimli do'st, aziz do'st,
Yodimga sen tusharsan.*

*O'tli yurak, o'tli so'z,
Po'lat iroda senda,
Unutmoqqa ularni
Darmon qayerda menda?..*



Zulfiyaning ajoyib tarjimon ekanligini ozar she'riyatidan qilgan tarjimalari ham tasdiqlaydi. U bir gal o'z nutqida shuni alohida qayd etgan ediki, "men Ozarbayjon shoirlaridan Madina xonim, Nigor xonim, Marvarid xonim, Hukumat xonim asarlaridan iftixor tuyaman. Ularning she'rlarini seva-seva o'zbek tiliga tarjima qilaman. Ozarbayjon mumtoz shoiri, jamoat arbobi Mulla Panoh Voqifning she'rlarini o'girarkanman, ulkan sevinch hissini tuydim". Shoironing ikki-uch jumlasida aks ettirilgan ummoncha muhabbatni ortiq sharhlashga zarurat yo'q.

Har ikki xalq adabiyot hamda san'at ahli Zulfiya va Marvarid Dilboziy do'stligini yuksak darajada qadrlab, tarixiy ahamiyatga molik deya qaraganlar. Marvarid xonim ham Zulfiya she'rlarini tarjima qilishdan charchamadi. U Zulfiyaga "Quyosh qizi" deya nom bergan: "Zulfiya deganimda, xayolimda bir quvvat bulog'i mavjlanadi. Bu chashmaning mavjlari – ezgu ishlar, orzular, qo'shiqlar – Zulfiyaning yurak so'zlaridir". M.Dilboziyning "Aziz Zulfiya", "Zulfiya", "Zulfiya o'zbek xalqining shoiridir" va boshqa shu kabi maqolalari adabiyotshunosligimizning o'zbek qiziga bergan yuksak bahosi, ular do'stligining aziz xotirasidir.

1956-yilning ilk aprel kunlari Samad Vurg'un xastalik to'shagiga mixlandi. Dunyoning, jumladan, O'zbekistonning butun yozuvchi va shoirlari buyuk san'atkordan hol-ahvol so'rab, chin dildan unga salomatlik tilardilar. Jahon adabiyotining mashhur namoyandalari Bokuga qarab oqib kelardilar. Ozarbayjonda Samad Vurg'unning bayrami – shoirning 50 yilligi nishonlanardi. Samad Vurg'unning o'zi bu tadbirda ishtirok eta olmasdi. Tashrif buyurgan mehmonlarga qarindoshi Mahdixon Vakilov shoirning tashakkurnomasini o'qib eshittirdi. Shoirning rozi-rizolik so'zlari, sevgisi bildirildi.

O'sha kunlarda O'zbekistondan G'ofur G'ulom, Oybek, Zulfiya xonim Bokuga kelgandilar. Hammalari Samad Vurg'uniga atalgan she'rlarini o'qidilar, matbuotda chop ettirdilar. Oradan ko'p o'tmay Samad Vurg'un yorug' dunyoni

tark etdi. Mehmonlar Bokuga yetib keldilar. Bu safar hamma motamda, ma'yus edi. G'afur G'ulom, Zulfiya, Oybek...

So'ng 20 yilga yaqin vaqt o'tdi. Bokuda Samad Vurg'un uy-muzeyi ochildi. O'sha kunlari – 1975-yilning oktabri edi. Ozarbayjonda adabiyot kunlari o'tkazilayotgandi. O'zbekistondan ham katta bir guruh mehmonlar kelishdi. Adabiyot kunlarining ilk tongida Samad Vurg'un uy-muzeyi ochilish marosimi tashkil etildi. Bayram ishtirokchilari yoppasiga bu tantanali tadbirning ishtirokchilariga aylandilar. O'zbek xalqi farzandi Zulfiyaning unutilmas hodisa ta'sirida yozgan yangi she'ri barchaning qalbini to'liqlantirdi:

*Bugun butun o'lka
Vurg'unning mehmonidir,
U hammaga kerakdir!
O'z o'g'illariga va do'stlariga...*

Zulfiya xonim ayni taassurotlarini “Shoirning uyida” nomli turkum she'rlarida aks ettirgan. “Bir dona papiros” (bu she'r ozarbayjonchaga Muhammad Aslan tomonidan o'girilgan) she'ri ayriliq tufayli yaratilgan edi. Bu yerda shoir chekkan oxirgi papiros qoldig'ini ko'rgan shoira yuragi larzaga keladi:


*Qalbdan intizorlik,
Ko'zida maroq,
U bilan o'pishib
Umrining so'ngida.*

*Papirosda bo'lgan
Ishonchga qara,
Yarimta qolibdi
Uning umri ham.*

*Yarimta papiros
Qara, nelar der,
Faqat o't so'nmagan
Uning kulida.*

*Ey so'zning xoqoni,
Sarrofi shoir,
Qancha nag'ma so'ndi dudoqlaringda?!*

Sakkiz bandli bu she'ri hayajonsiz o'qimoq mushkul. Muzeyning istak-mulohazalar kitobiga o'zbek elchilari ko'plab dil so'zlarini yozganlar. Zulfiya ham shunday yozgan ekan: “Buyuk Samad Vurg'un asrlar bo'yi millionlarning yuragida abadiy yashaydi. Inchunun, uni juda ham sevgan o'zbek xalqining



qalbida ham mangudir”. Zulfiyaning she’rlarida yorqin bo‘yoqlar bilan o‘z badiiy ifodasini topgan mavzulardan biri ham xalqlar do‘stligi, birodarligidir.

Professor Panoh Xalilov shoiraning bu yo‘nalishdagi asarlarini yuksak baholab, shunday yozadi: “Bu she’riyatda Zulfiyagagina xos intim, alohida tuyg‘ular va tushunchalar bor. Lekin bu o‘ziga xos intim olam qismatning zarbasiga duchor bo‘lib, orzusiga yetolmay qolgan ayollarning, yigirma to‘qqiz yoshida beva qolib, umrini oilasiga, umidini qalamiga bog‘lagan onalarning va shoiralarning ko‘ngil olamini aks ettirganligi bilan ham qadrlidir”.

O‘zbekiston xalqi shoiraning tavalludini har yili tantana qiladi. Biz esa do‘stlik, qardoshlik ehtiromimizga tayanib, she’rga, san’atga bo‘lgan muhabbatimizga suyanib, bir necha sahifa so‘zimiz ila Zulfiyaning poetik umr yo‘lini varaqladik. Shoirona umrning yashil sahifalarida birga bo‘ldik.

FILOLOGIYA**ESSENAVIS QULMAN OCHILOV IJODIGA BADIY CHIZGILAR**

**Gulasal
KAZAKOVA**

**Urganch
innovatsion
universiteti
o'qituvchisi.**



UO'K 821.512.133.09-4

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek adabiy tanqidchiligida esse janri taraqqiyoti hamda Qulman Ochilov esselarida qahramon yaratish mahoratining o'ziga xos jihatlari tahlil qilingan.*

Аннотация: *В статье проанализировано развитие жанра эссе в узбекской литературной критике, а также особенности мастерства создания героя в эссе Кульмана Ачилова*

Annotation: *The article analyzes the development of the esse genre in Uzbek literary criticism and the peculiarities of the skill of creating a hero in the essays of Kulman Ochilov*

Kalit so'zlar: *esse, munasqad, hikoya, qissa, roman, adabiy tahlil, konsepsiya.*

Ключевые слова: *эссе, манаккид, рассказ, рассказ, роман, литературный анализ, концепция.*

The keywords: *essay, munakkid, story, short story, novel, literary analysis, conception.*

Qulman Ochilovning “Adibning jasorati” essesi iste’dodli ijodkor Erkin A’zamning “Qahratonda gul ko’tarib” nomli hikoyasi ta’sirida yozilgan. Unda ijodkorning yaratgan barcha asarlari mustaqil O‘zbekistonning iqtidorli yoshlariga alohida maktab vazifasini o‘tayotganligini, asarlari adabiyot va san’at ixlosmandlari tomonidan yuksak qadrlanishini alohida ta’kidlaydi. Asarlarida ilgari surilgan ezgu g‘oyalar yosh avlodni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qilishini aytarkan, kino va teatr rivojida ham Erkin A’zam ijodining o‘rni bo‘lakcha ekanligi haqida to‘xtalib o‘tadi. Xalqaro kinofestivallardagi ssenariylari, teatrlarda sahnalashtirilgan pyesalari orqali shuhrati yana ham balandligi, ayniqsa, teatr sohasida “Jannat o‘zi qaydadir”, “Tanho qayiq”, “Farrosh kampirning tushi” pyesalari yozuvchiga katta omad keltirganligini faxr bilan tilga oladi.

Q.Ochilovning bu essesda yozuvchining ijodidagi o‘ziga xosliklarni, asarlaridagi bosh g‘oyaning dolzarbligini ta’kidlashdan tashqari, Erkin A’zamning inson sifatidagi barkamollik jihatlarning har birining nomini alohida sanaydi. Deylik, hikoya, qissa, romanlarining boshqa tilga tarjima qilinishi, xalqaro taqdimotlarda asarlarining muhokama qilinishi G‘arb-u Sharq olimlari,

kinossenaristlar, fan va madaniyat arboblari, munaqqidlar orasida Erkin A'zamning hurmat-e'tibori nihoyatda baland ekanligini aytib o'tadi.

Erkin A'zam publitsistik asarlari orqali omma va adabiyot ixlosmandlari, ijodkorlar orasida qalami o'tkir, fikri tiniq, tafakkuri teran yozuvchi sifatida



tanilgan. Garchi publitsistik janr ayrim insonlar nazdida “Umri kapalak umridek qisqa” kabi mulohaza bilan mensimay qaralsa-da, yozuvchi bu janrda yaratgan asarlari orqali xalqning ko'ngliga yana ham chuqurroq kirib borgan. Aynan shu xislati bilan Erkin A'zam “Ertalabki xayollar” kitobini yozganligini va bu asar publitsistikaning barcha janrlarida baravar ijod qiluvchi serqirra ijodkor ekanligidan dalolat ekanligini aytib o'tadi. Kitobdan joy olgan maqola, esse, adabiy o'ylar va xotiralar ushbu fikrlarning yorqin isboti ekanligini Qulman Ochilov “Adibning jasorati” essesida alohida ta'kidlab o'tadi. Janri, mavzusi, chop etilgan vaqtdan qat'i nazar barcha publitsistik asarlarining bosh g'oyasini Vatanga muhabbat, yurt tinchligini asrash, mustaqillikni

mustahkamlashga qaratilgan ezgu g'oyalar birlashtirib turadi. Bu esa Erkin A'zamning ijodkor va shaxs sifatidagi kamoloti, boshqalarda uchramas serqirra qobiliyati bilan adabiyot maydonida o'ziga xos o'rni bor ekanligini anglatadi.

Publitsistikaning yana bir yo'nalishini Erkin A'zam ijodisiz tasavvur qilish qiyin. Ha, bu sezganingizdek nashriyot sohasi edi. “Guliston”, “Yoshlik”, “Tafakkur” jurnallarida, yirik nashriyotlarda tahrir san'atini buyuk mezon darajasiga ko'targan muharrirlik faoliyatida katta yutuqlarga egaligi, Milliy axborot agentligi – O'zA bosh direktorining birinchi o'rinbosari sifatida davlatimizning ommaviy-axborot sohasida o'z so'ziga ega xodim ekanligini ta'kidlarkan, Q.Ochilov yozuvchidagi serqirralikning boisi ijodga, ilmga ixlos tufayli ekanligini Erkin A'zamning o'z ta'biri bilan: “Bir ishni qildingmi, pishiq va puxta qil, aks holda, urunib ham o'tirma!” so'zi bilan aytadi. Bizningcha ham, ijodkor bu hayotiy prinsipni faoliyatining har bir yo'nalishiga tadbiiq eta olgan qalam egasidir. Yozuvchining bu jihatini bilib olish uchun ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlaridan ham bilib olish mumkin. Iste'dodning shakllanishi faqat tug'ma qobiliyat tufayli emas, barchasiga kishi mehnati bilan erishishini ta'kidlovchi efirlardagi mulohazalari buning yaqqol isbotidir. Bir chiqishida Erkin A'zam kitob o'qishga ishtiyoq va adabiyotga ixlos o'zida yoshligidan boshlanganligi, o'shanda juda yosh ekanligi, ulug' Navoiyning “Xamsa” asarini ijodkor asarni “Hamza” deb nomlashning o'rniga so'zni noto'g'ri qo'llagan, shekilli” degan xulosaga kelgan ekan. Shu faktga tayanib Erkin A'zamda adabiyotga ixlos qo'ygan payti juda yosh ekanligi, istak insonni mana shunday yuksak marralarga erishishda yordam berishini, insonga esa buning uchun faqat intilish darkor ekanligini anglash mumkin.

Erkin A'zamning "Qahratonda gul ko'tarib" hikoyasi bundan 45 yil avval yaratilgan bo'lsa-da, "Radioda ishlab yurgan kezlarim yozganim, yoziboq do'stim shoir Muhammad Rahmonga o'qib berib maslahat so'rganlarim yodimda. Endi o'ylasam, xuddi o'sha kunlar "Guliston" jurnaliga xizmatga o'tgan ekanman". Donishmand yozuvchining yarim asr avval bitgan, ammo "ko'ngli to'lmay, bisotiga tashlab qo'ygan" asari yoqutdek ko'zni qamashtirib, kishini entiktirib turishi, Q.Ochilov nazdida aytganda kitobxon yuzini ko'rishga intiq bo'lib sarg'ayib yotgan bunday asarlar ijodkor sandig'ida juda ko'p bo'lsa kerak. Bu haqda yozuvchi shunday deydi: "Erkin A'zamga xos "so'zga ziqnalik" bilan bitilgan qisqa-lo'nda, ba'zan latif yumor, ba'zan beozor kinoya, ba'zan jindak "qalampir sepilgan" satrlar, tasvirning tiniqligi har qanday kitobxonni rom qilib qo'yadi" [2:3]

Asarning ayni mana shu jihatlariga alohida e'tibor qaratadi: Yo'l bo'yi qo'lida gul, poyezdda "dunyo qo'shiqqa aylanib ketishi"dan sarmast kelgan yigit "Ajrim" ajrim atalmish dardisar bekatda mushkul vaziyatga tushib qolishi, tog'ning narigi tomonidagi qishlog'iga tezroq yetay desa, dovonni tizza bo'yli qor bosishi, "Undan yuradigan shopirning yuragi bir gaz bo'lishi kerakligi...Ikki kundan beri mashina qatnamaydi" Yordam kutgan odamlari, hatto doim joniga oro kiradigan "garaj mudiri, qo'lida o'ttiz-qirq mashina bor" amakisi ham sim qoqqanida sovuq muomala qilishi "Bu yer sovuq ekan, amaki, qotib qolaman" degan so'ziga javoban "Qotib ham ko'rish kerak, jiyan, ana shunda bilasiz amakining qadrini!... Bizda shaxsiy maqsadlarda foydalaniladigan ulov yo'q!



Yoki bo'lmasa talaba qor so'qmog'i bo'ylab tiyg'ana-tiyg'ana, xatarli dovon ortidagi o'n besh chaqirimlik manzilga poy-u piyoda yo'l tortadi. Shunda hozirgina "turgan-bitgani pastkash, bemuruvvat kimsalar" bo'lib ko'ringan odamlardan biri unga otini va kiyib o'tirgan qalin po'stinini yechib beradi.

Asarning aynan shu qismlari orqali Erkin A'zam ijodida insonlardagi shijoatning mukofoti oliy ekanligi, hayotdagi mehr-oqibatni ulug'lash oqibatli bo'lish, insonlar bir-biriga yordam berish uchun yaratilgan ekanligini tushunib yetib, dilingiz yorishadi, odam va olamga mehringiz tovlanib ketadi.

Q.Ochilov ijodkor E.A'zam ijodida mana shunday yuksak g'oyali, teran nigoh bilan yaratilgan asarni qanday qilib yarim asr chop qilmasdan "bisotida qo'yishi mumkinligi" haqida gapirarkan, adabiyotning asosiy muammosi hisoblangan "yozgan asarining siyohi qurimasdan bosmaxonaga olib yuguradigan ijodkorlar kam emas" bir zamonda Erkin A'zam o'rni beqiyos ekanligi, yozishdan va chop ettirishdan avval uzoq mushohada yurituvchi talabchan bir inson ekanligiga diqqatni qaratadi. Erkin A'zam nazarida "adabiyotga xiyonat – kam yozish emas,

bo‘lar-bo‘lmasni yozish” va ayni “har narsani yozaverish” ham adabiyot ildiziga urilgan bolta kabi ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Bu ijodkorning yutuqlari kaliti, bugungi kundagi muvaffaqiyatlarining garovi edi.

Darvoqe, Erkin A’zamning mana shu xislatlari uning shaxsiy kamolotidagi o‘ziga xoslikni belgilovchi bosh mezondir. Qulman Ochilov ushbu esse orqali ijodkorni faqat yozuvchi sifatida emas, inson sifatida anglab yetish va asarlarini shu nuqtayi nazar bilan o‘qish foydasi ko‘p bo‘lishi haqida aytarkan, o‘zbek adabiyotida bu kabi ijodkorlar yaratgan asarlar umri ham boqiy bo‘lishi haqida alohida faxr bilan yozadi. Zamon bilan hamnafas bu yozuvchi, ko‘plarga o‘rnak fidoyi adibga Yaratgan yuksak tafakkur, zahmatkashlik, Vataniga, xalqiga mehr ato etganki, bularning barchasi asarlarida, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida, hayotga o‘ta talabchan munosabatida yorqin bo‘y ko‘rsatib turadi. Bunday fidokorona faoliyat, ijodiy jasorat, ulug‘ shaxsiyat hammaga ham nasib etavermasligi haqida faxr bilan gapiramiz.

Bu haqda yozuvchining o‘zi shunday deydi: “adabiyot insonni garchi har taraflama teran tadqiq etishi lozim ko‘rilsa-da, iloji boricha uning ijobiy jihatlari, olijanob xislatlarini qalamga olgani ma’qul ekan. Bunda, albatta, yozuvchi do‘stim aytganidek, qanday yozish, ya’ni o‘xshatib ifodalash muhim” [3:2]

Filologiya fanlari doktori, professor N.Jabborov “Yoshlik” jurnalining 2020-yil 7-sonida “Erkin A’zamning ijod tutumi” maqolasida adabiyotni odil-sudlov tizimiga o‘xshatarkan, adabiyotning qonun tarozisi KO‘NGIL ekanligini aytib o‘tadi. Va ayni Erkin A’zam ijodida kishining botiniy olamidagi tuyg‘ularni yozuvchi shu qadar mahorat bilan tasvirleydiki, obrazlar tizimi, qahramonlar ruhiyati hali to‘la-to‘kis tadqiq etilgan emasligi, adabiyot mana shu jihati bilan Erkin A’zam oldida qarzdor ekanligini yozadi. Biz boshlagan mavzu ham ijodkorning aynan mana shu tadqiq qilinmagan jihatlarni qalamga olish, asarlaridagi qahramonga va o‘ziga nisbatan talabchanlikni ko‘rsata bilish, bir so‘z bilan aytak ijodkor konsepsiyasini o‘rganishdir.

Ijodkor Qulman Ochilovning yana bir “Savob” essesi nashr etilarkan, unda insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat, ezgu amallarni qo‘llab-quvvatlash, inson faqat o‘z ehtiyojlari uchun emas, jamoa manfaatlarini ko‘zlagan keng ko‘lamli ishlarga bel bog‘lamog‘i lozimligi haqida so‘z yuritiladi. Inson o‘zining naqadar ulug‘vor qarashlar sohibi ekanligini anglamoq uchun biron bir mansab egasi bo‘lishlikni kutmasdan, kuch-g‘ayratini ilmga, xayrli ishlarga sarflamoq insoniylik burchimiz ekanligi haqida so‘z ochadi. Yoshligida o‘zi tahsil olgan maktabni obod qilish yo‘lida qilgan sa’y-harakatlari ko‘pchilik amaldorlar tomonidan qadrsizlanishi, yerga urilishi, ba’zan shubhalar girdobida qolgan bosh qahramon maqsadlari oliy – ya’ni savob ishni hamma har kun qilmog‘i lozimligini anglab yetgandi. Taraqqiyot kushandasi bo‘lmish korrupsiya va uning oldini olish, insonni xato ishlar va gunohlar iskanjasidan asrab to‘g‘ri yo‘lga qaytarmoq haqiqiy insoniylik tuyg‘usi ekanligi esse badiiy g‘oyasida o‘z ifodasini to‘la qonli aks ettirgan.

Bugungi hayotimizda ham saxovatpesha insonlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga dastak bo‘lish eng ezgu amallardan biri deyiladi. Afsuski, ularning maqsadlarini yanglish anglovchi yoxud yo‘liga to‘g‘anoq bo‘luvchilar ham yo‘q

emas. Har qanday vaziyatda insonlar ezgulik dunyoni qutqarishi, barcha amallarimizning xayrli bo‘lmog‘ida harakat qilishimiz zarur. Xuddi shuningdek, Qulman Ochilov esselarining bosh maqsadi ham inson fe‘l-atvori go‘zalligini yorqin aks ettirish hisoblanadi. Bosh qahramoni ijodkor bo‘ladimi yoki zamonamiz qahramonlari bu bizning go‘zal xislatli xalqimiz insonlari obrazini badiiy gavdalantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Yo‘ldoshev “Yoniq so‘z”. T. “Yangi asr avlodi”. 2006.
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2020-yil 12-avgust.
3. Erkin A‘zam. “Adabiyot – inson sirlari haqidagi fan”. 2015–2022 © “Yoshlik” jurnali sayti.
4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989-yil
5. U.Normatov. “Ijod va shijoat”. T.: 2006.
6. M.Qo‘shjonov. “Mahorat sirlari”. T.: 1968
7. M.Qo‘shjonov. “Hayot va nafasat”. T.: 1970.
8. M.Qo‘chqorova. “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari”. T.: 2011

FILOLOGIYA**“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA LEKSIK-SEMANTIK
TAHLIL ME‘YORLARI**

**Muhabbat
MATQURBONOVA**

**Urganch innovatsion
universiteti
o‘qituvchisi**

UO‘K 512.133

Annotatsiya: Maqolada “O‘tkan kunlar” romanida leksik-semantik me‘yorlar va matn semantikasi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье анализируются лексико-семантические нормы и семантика текста в романе “O‘tkan kunlar”

Annotation: The article analyzes lexical-semantic norms and textual semantics in the novel “O‘tkan kunlar”

Kalit so‘zlar: roman, leksik-semantik me‘yor, til birliklari, dennotativ ma’no, konnotativ ma’no, leksema, matn semantikasi

Ключевые слова: Роман, лексико-семантическая норма, единицы языка, деннотативное значение, коннотативное значение, лексема, семантика текста

Key words: novel, lexical-semantic norm, Language units, dennotative meaning, connotative meaning, lexeme, textual semantics

Til birliklarining har birining o‘z vazifasi, ma’no doirasi va boshqa til komponentlari bilan bog‘lanish qonuniyati mavjud. So‘z sezgisi va ijod mahorati yuksak yozuvchi ana shu qonuniyatlarni chuqur anglar, so‘z qudratidan kutilmagan badiiy tasvirga boy birliklarni tanlaydiki, kitobxon badiiy asarning nafaqat g‘oyasi, balki go‘zal tilining asiriga aylanadi. Mana shunday badiiy yuksak asarlardan biri bo‘lgan “O‘tkan kunlar” romanida biz Abdulla Qodiriyning faqatgina yozuvchilikdagi yutuqlarini emas, hatto ijodkorning mohir tilshunos ekanligini ham anglab olishimiz mumkin. Umumxalq tilidagi badiiy tasvirga boy birliklarni tanlash, saralash, sayqal berish asosida lisoniy-badiiy qonuniyatlarni ushbu go‘zal asar mohiyatiga singdira olgan: “Yozmoqqa niyatlanganim ushbu – “O‘tkan kunlar”, yangi zamon ro‘monchilig‘i bilan tanishish yo‘lida kichkina bir tajriba, yana to‘g‘risi, bir havasdir. Ma’lumki, har bir ishning ham yangi –ibtidoiy davrida talay kamchilik-lar bilan maydong‘a chiqishi, ahllarining yetishmamlari ila sekin-sekin tuzalib, takomulga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jasorat etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho‘chib turmadim”. [1:1] Aynan mana shu so‘z boshi uchun berilgan yozuvchi nutqida dastlab “havas”, kengroq ma’noda “kichkina bir tajriba”, tajriba ishining Qodiriy orzusidagi “takomulga yuz tutishi” millionlab kitobxonlarning

ong-u shuurini zabt etdi. Demak, yuqoridagi matnning asl mazmunini teran tushuntirish uchun yozuvchi fikrga munosib jumalarni shunday tanlaydiki, bu bilan soʻz sanʼati qudrati naqadar yuksakligini anglash mumkin.

Til ichki qurilishi jihatdan denotativ va konnotativ maʼno eng asosiy birlik ekanligini nazarda tutsak, aslida “havas” va “tajriba” soʻzlari konteks tarkibidagina ichki bogʻlanishni yuzaga keltirib, lugʻaviy maʼnolari bir-biridan keskin farq qiluvchi leksema hisoblanadi. “Kamchiliklar”ning “takomulga yuz tutishi” bilan esa yozuvchi soʻzning konnotativ maʼno ottenkalaridan unumli foydalangan, yaʼni yuqoridagi ikkita jumla munosabat darajasiga koʻra farqlanuvchi attenklar sifatida qoʻllanilgan. Aynan shu jihat konnotativ maʼno butunligi mezon hisoblanadi.


Ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan boʻlgan ichki munosabatidan kelib chiqadigan mustaqil tizim ekanligi bilan chambarchas bogʻliqligini nazarda tutsak, tilshunoslikda leksik-semantik tahlil va soʻz semantikasi badiiy asar uchun ham muhim mezon ekanligini taʼkidlash joiz.



“Saroyning toʻrida boshqalargʻa qaragʻanda koʻrkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiygiz toʻshalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda boʻz koʻrpalar koʻrilgan boʻlsa, munda ipak va adras koʻrpalar, narigilarda qora charogʻ sasigʻanda, bu hujrada shamʼ yona-dir, oʻzga hujralarda yengil tabiʼatlik, serchaqchaq kishi-lar boʻlgʻanida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda”[1:1]. Otabek portretini yaratishda ijodkor mazmunan bir uyaga mansub soʻzlar (hujra, kiygiz, gilam, boʻz koʻrpa, charogʻ, sham)ni qoʻllarkan, uyadosh soʻzlar matn semantikasida mavjud boʻlgan lugʻaviy vosita yoki lisoniy birlik ekanligini taʼkidlash joiz. Bundan tashqari,

“narigilarda qora charogʻ sasigʻanda, bu hujrada shamʼ yonadir” jumlasini qoʻllarkan tilning lugʻaviy jihatdan boylik darajasini koʻrsatib beruvchi oʻziga xos vosita sifatida zid maʼnolilikni keltirib oʻtgan va bu Abdulla Qodiriyning soʻz qoʻllash mahorati sifatida baholanadi.

Tilda maʼnodosh soʻzlarning koʻp boʻlishi tilning estetik vazifasini toʻliq bajara olishini osonlashtiradi. Shunga koʻra matn tarkibida soʻzning ayni muqobillarini izlab topish, ifoda yoʻsinida bu soʻzni matn tarkibiga silliq joylashtirish ijodkor asarlarining oʻqimishliligini taʼminlash bilan birga, oʻzbek adabiy tilining naqadar boyligi yoki imkoniyatlar koʻlamini namoyish etadi. “Azizbekdan zulm, jaf oʻrganlar bilan birgalikda endi oʻninchi shikoyatnomamizni yuborgʻandirmiz” [1:7].



Badiiy matnda ma'nodosh so'zlar tahliliga asosan, ikki jihatdan e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Birinchi – muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun maqbul birini tanlashi, ikkinchi – bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga muvofiq tarzda qo'llash masalasidir. Shunga muvofiq yuqoridagi jumlada qo'llangan leksik ma'nodoshlik matn mazmuniga badiiylik, so'z qo'llashda yuksak mahoratni ifoda etmoqda. Yozuvchi asarlarida har bir jumlaning ahamiyati va o'z xizmati bor.

Ma'nodosh so'zlardan mohirona

foydalanish matnning keyingi jumalari semantikasiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi, ya'ni semantik mazmunning matn bo'ylab yoyilishini, obrazli ifoda bir maromda saqlanib turishini ta'minlashga xizmat qiladi. Deylik, xalqqa ko'rsatilgan zulm bora-bora xalqning noroziligiga sabab bo'larkan asar bosh qahramonlarining taqdiri ham mana shu zulmlar iskanjasida yonardi. Matn semantikasi ham aslida badiiy asar mukammal, asrlar osha sevimli bo'lishi uchun bosh mezon sanalarkan, tilni adabiyotdan, adabiyotni esa tildan ayro tasavvur qilish mushkul.

So'z birikmasi tarzidagi metaforalar "Kechirasiz, ota, — bizning Homidboy shunaqa qo'lansa gaplar uchun yaratilg'an odam" [1:9]; gap shaklidagi va matn-metaforalar, ya'ni o'zida boshqa bir nutqiy vaziyat ifodasini namoyon etuvchi gaplar ham badiiy matnga xos xususiyatlardan biridir. Masalan: "Ariqning musaffo tiniq suvi yuvoshg'ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig'a yetkanda go'yoki, uning ta'zimi uchun sekingina bir charx urib qo'yar, o'z ustida o'lturgan sohiraning sihriга musaxxar bo'lg'an kabi tag'i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag'ina ko'prik ostig'a oqib ketar edi. Ariq suvining nihoyatsiz bu harakatini uzoq ko'zdan kechirib o'lturg'ach, qo'l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi. Uning

yuzini o‘pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatga kelib chayqaldi, go‘yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... Ikkinchi, uchinchi qaytalab yuz yuvishda bu fitna tag‘i ham kuchaydi...” [1:15]

Matnda suvning yuvoshgina oqib kelishi, Kumushbibi qarshisiga kelganda charx urishi, qizning yuzini o‘pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatga kelib chayqalishi va bu chayqalish go‘yo bir fitna kabi yuz berishi asarda metafora san’atining turli ko‘rinishlari (so‘z-metafora, so‘z birikmasi-metafora, gap-metafora va matn-metafora kabilar)dan yozuvchi unumli foydalanganligini ko‘rish mumkin.

Bunday matnlarda ifodalangan mazmun global xarakterga ega bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan voqea-hodisalarning ikkilamchi nominatsiyasi sifatida amal qiladi. Matn-metaforalarga xos bo‘lgan xarakterli xususiyat shundaki, unda matn subyektning metaforik ma’noda qabul qilinishi matndan anglashilgan vaziyatning ham o‘quvchi ongida metaforik xarakter kasb etishiga olib keladi.

“O‘tkan kunlar” asarida milliy qadriyatlar tarannum qilinarkan, bu shoh asarlar osha xalqimizning milliy dunyoqarashini dunyoga tanitib kelmoqda. Milliy tilning go‘zal ifodasi ham ayni shu asarda mujassamdir. Tilimizga badiiy tafakkur jozibasi sifatida qarash joiz bo‘lsa har bir xalqning milliyligini shu yurtning milliy tili va badiiy adabiyoti ko‘rsatadi. Tildagi imkoniyatlarning badiiy asarlarga joylanishida eng yuqori pog‘onani egallovchi ushbu asar o‘zbek xalqining milliy g‘ururi desak ayni haqiqat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Yo‘ldoshev “Yoniq so‘z”. T. “Yangi asr avlodi”. 2006.
2. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2020-yil 12-avgust.
3. Erkin A‘zam. “Adabiyot – inson sirlari haqidagi fan”. 2015–2022 © “Yoshlik” jurnali sayti.
4. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 1989-yil
5. U.Normatov. “Ijod va shijoat”. T.: 2006.
6. M.Qo‘shjonov. “Mahorat sirlari”. T.: 1968
7. M.Qo‘shjonov. “Hayot va nafasat”. T.: 1970.
8. M.Qo‘chqorova. “Badiiy so‘z va ruhiyat manzaralari”. T.: 2011

FILOLOGIYA

O'ZBEK TILI UCHUN MORFOLOGIK VA SINTAKTIK TEGLANGAN KORPUS YARATISH



**Jasurbek
SOBIROV**

Tadqiqotchi



Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ilm-fanning ajralmas qismi hisoblangan kompyuter lingvistikasi fanining tilshunoslikka taalluqli qismi, xususan, soʻzlarni hamda gaplarni morfologik hamda sintaktik tahlil qilish haqida soʻz yuritiladi. Bunday tahlil metodlari anʼanaviy tilshunoslikda koʻplab qoʻllanishiga qaramay, haligacha soʻzlarning mukammal avtomatik tahlili usullari ishlab chiqilmagan. Bu ish oʻsha maqsadning poydevori boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Аннотация: В статье рассматривается лингвистическая часть компьютерной лингвистики, которая является неотъемлемой частью современной науки, в частности морфологический и синтаксический анализ слов и предложений. Несмотря на то, что такие методы анализа широко используются в традиционной лингвистике, совершенные методы автоматического анализа слов до сих пор не разработаны. Эта работа может служить основой для достижения этой цели.

Annotation: This article deals with the linguistic part of computer linguistics, which is an integral part of modern science, in particular, the morphological and syntactic analysis of words and sentences. Despite the fact that such analysis methods are widely used in traditional linguistics, perfect automatic word analysis methods have not yet been developed. This work can serve as a foundation for that goal

Kalit soʻzlar: korpus, teg, morfologiya, sintaksis, analiz

Ключевые слова: корпус, тег, морфология, синтаксис, анализ

Key words: corpus, tag, morphology, syntax, analysis

Til – oʻzgaruvchan jarayon. Avlodlar almashgan sayin tilning turli jabhalarida muayyan oʻzgarishlar boʻlishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan bir paytda tilning mohiyatini anglay olish hamda chuqur oʻrganishda inson omili bilan birgalikda kompyuter texnologiyalarining oʻzbek tilini qayta qayta ishlashiga muhtojligimiz

sezilmoqda. Bu bosqichdan ko‘pchilik rivojlangan tillar deyarli o‘tgan. Afuski, hozirgi kungacha o‘zbek tili uchun bu boradagi ishlar juda sust amalga oshirilgan. O‘zbek tilining oddiy hamda teglangan korpusiga talab benihoya ortmoqda. Xo‘sh, teglangan korpus o‘zi nima va u qanday shakllanadi?

Bilamizki, til korpusidan ko‘plab sohalarda hamda ilmiy ish jarayonlarida asos sifatida foydalanishimiz mumkin. Korpus matnlari turli xil janr va kategoriyalardan tashkil topganini hisobga olsak, har bir so‘z ketidan uning morfologik hamda sintaktik tasnifi (qaysi so‘z turkumiga tegishli ekanligi hamda gapda qaysi sintaktik vazifada kelgani) keltirib o‘tilsa, ushbu korpusdan foydalanish yanada osonlashadi va so‘zlarning hamda gaplarning kompyuter tomonidan oson tushunilishi ta‘minlanadi. Ana shu jarayon matnning teglanish (izohlanish) jarayoni hisoblanadi.



O‘zbek tili uchun buni qanday amalga oshirish mumkin?

Dastavval, o‘zbek tilidagi so‘zlarni izohlab olishimiz uchun bizga morfologik hamda sintaktik ma‘no ifodalovchi qisqartmalardan iborat teglar (izohlar) kerak bo‘ladi. Biz yaratgan bunday teglardan ayrimlarini quyida keltirib o‘tamiz:

T/r.	Belgilash nomi	Ma‘nosi	Misollar
OT SO‘Z TURKUMI UCHUN			
1.	BOT	Birlik ot uchun	Mashina, kitob, olma
2.	KOT	Ko‘plik otlar	Mashinalar, kitoblar, talabalar
3.	SOT	Shaxs oti	O‘qituvchi, duradgor, sartarosh

4.	NOT	Narsa oti	Sumka, temir, atir
5.	JOT	Joy oti	Qishloq, daryo
6.	FOT	Faoliyat-jarayon otlari	Bazm, o‘tirish, terim
7.	MOT	Mavhum otlar	Sevgi, hayo, xafagarchilik
8.	POT	Payt oti	Soniya, bahor, daqiqa

FE’L SO‘Z TURKUMI UCHUN			
1.	SIFL	Fe’lning sifatdosh shakli	Borgan, ko‘rgan, aytgan
2.	RFL	Fe’lning ravishdosh shakli	Borib, ko‘rgach, aytgani
3.	HFL	Fe’lning harakat nomi shakli	Borish, aytish, gapirmoq, o‘quv
4.	SFL	Sof fe’l shakli	Ayt, o‘qi, yugur
5.	SDFL	Sodda fe’l	Bormoq, aytmoq
6.	QFL	Qo‘shma fe’l,	E’lon qildi
7.	JFL	Juft fe’l	Yirtidi-tashladi, aytdi-qo‘ydi
8.	TFL	Takroriy fe’l	Ayta-ayta
9.	KFL	Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi	Tashlab yubordi, o‘qib chiqdi

Yuqorida keltirib o‘tilgan misollar umumiy morfologik teglarning ot va fe’l so‘z turkumiga tegishli ayrim namunalardir. Shunga o‘xshagan teglardan umumiy 106 ta mavjud bo‘lib, 12 ta so‘z turkumi kesimida qo‘llaniladi.

Xuddi shu singari teglar so‘zlarning sintaktik tahlilida ham ishlatiladi. Quyidagi jadvalda 14 ta sintaktik teg hamda ularning qo‘llanishiga doir misollar keltiramiz:

T/r.	Belgilash nomi	Ma’nosi	Misollar
1.	EG	Ega	Ukam uyga keldi
2.	OK	Ot kesim	Urganch – chiroyli shahar
3.	FK	Fe’l kesim	Salimboy hozir keldi
4.	QA	Qaratqich aniqlovchi	Baxilning bog‘i ko‘karmas
5.	SA	Sifatlovchi aniqlovchi	Yaxshi o‘quvchilar taqdirlandi
6.	VL	Vositali to‘ldiruvchi	Vatan haqida suhbatlashdik
7.	VS	Vositasiz to‘ldiruvchi	Pichoq qo‘limni kesdi
8.	VH	Vaziyat holi	Ilojsizlikdan rozi bo‘ldi
9.	PH	Payt holi	Kechgacha ishlarni bitir
10.	OH	O‘rin holi	Toshkentda yashashni istaydi
11.	SH	Sabab holi	Kasallangani uchun kelmadi

12.	MH	Maqsad holi	Ataylab binoga kirmay turibdi
13.	UN	Undalma	Anvar , menga qarashib yubor
14.	KR	Kiritma	Menimcha , kecha uyga qaytdi

Hozir esa bir necha gaplar misolida teglarning qay tarzda ishlatilishini ko‘rib o‘tamiz (a – morfologik teglash; b – sintaktik teglash):

1. Derazani biroz ochib, toza havodan nafas olgim keldi.

- a) Derazani/NOT/SOOT/BOT biroz/MIRV/SDRV ochib/RFL/SDFL/OTZ/3B, toza/XSF/SSF havodan/MOT/SOOT/BOT nafas olgim keldi/SFL/QFL/KEZ/3B.
- b) Derazani/VL biroz/VH ochib/VH, toza/SA havodan/VL nafas olgim keldi/FK

2. Anvar to‘satdan eshik tarafga qarab yurdi.

- a) Anvar/ASOT/ATSH to‘satdan/HRV/SDRV eshik/SOT/BOOT/BOT tarafga/JOT/SOOT/BOT qarab/KM yurdi/SFL/SDFL/OTZ/3B.
- b) Anvar/EG to‘satdan/VH eshik tarafga qarab/OH yurdi/FK.

3. Faqat bugun ushbu narxda mashina xarid qila olasiz.

- a) Faqat/AYK bugun/PRV/SDRV ushbu/KROL/SDOL narxda/NOT/SOOT/BOT mashina/NOT/SOOT/BOT xarid qila olasiz/SFL/QFL/KEZ/2K
- b) Faqat bugun/PH ushbu/SA narxda/VL mashina/VS xarid qila olasiz/FK

4. Ilon yassi yuzada, masalan, ko‘zgu ustida harakatlana olmaydi.

- a) Ilon/NOT/SOOT/BOT yassi/MSF/SSF yuzada/JOT/SOOT/BOOT, masalan/MD, ko‘zgu/NOT/SOOT/BOT ustida/JOT/SOOT/BOT harakatlana olmaydi/KFSQ/SFL/QFL/KEZ/3B.
- b) Ilon/EG yassi/SA yuzada/OH, masalan, ko‘zgu ustida/OH harakatlana olmaydi/FK.

5. Yuqori balandlikdan tushish telefon ekraniga jiddiy zarar yetkazadi.

- a) Yuqori/MSF/SSF balandlikdan/MOT/SOOT/BOT tushish/HFL/SFL telefon/NOT/BOOT/SOT ekraniga/NOT/BOOT/SOT jiddiy/XSF/SSF zarar yetkazadi/SFL/QFL/KEZ/3B
- b) Yuqori balandlikdan tushish/EG telefon/QA ekraniga/VL jiddiy/VH zarar yetkazadi/FK

Endi ushbu belgilarning qay tarzda ishlatilayotganiga qisqacha izoh bersak. Bunda izohlanishi kerak bo‘lgan har bir so‘zdan so‘ng “slesh” belgisi (/) qo‘yilib, ushbu so‘zning morfologik yoki sintaktik xususiyatini bildiruvchi qisqartma teg(lar)i keltirib o‘tilyapti (Masalan: narsa oti uchrasa uning ketidan /NOT qo‘yiladi). So‘zdan so‘ng qo‘yilayotgan teglar soni birdan ortiq ham bo‘lishi mumkin (telefon/NOT/BOOT/SOT).

Hozirda yuqoridagi misollardagi kabi 3000 ga yaqin soʻz, soʻz birikmalari va ajralmas birikmalar teglab chiqilgan. Ushbu teglangan korpusdan avtomatik teglash uchun dasturiy taʼminot yaratish, turli ilmiy tadqiqotlarda foydalanish va oʻzbek tilini morfologik hamda sintaktik tahlil qilish, oʻrganish uchun rejalashtirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Принципы синтаксической разметки Хельсинкского аннотированного корпуса русских текстов ХАНКО [Текст] / Мустайоки, А., Ко-потев М. В., Гурин Г. Б., Саломатина М. С. // Труды международной конференции “MegaLing-2005. Прикладная лингвистика в поиске новых путей». – СПб.:Изд-во Институт русского языка им. В. В. Вино-градова, 2005. – С. 90-95.
2. Мустайоки, А. Принципы создания Хельсинкского аннотированного корпуса русских текстов ХАНКО в сети Интернет / Научно-техническая информация. – 2003. – Сер. 2, № 6. – С. 33-37.
3. Proceedings of the 2013 Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, pages 1022–1031, Seattle, Washington, USA, 18-21 October 2013. c 2013 Association for Computational Linguistics.

FILOLOGIYA**O‘G‘UZ SHEVALARIDAGI SUG‘ORISH LEKSIKASIGA DOIR AYRIM TERMINLAR**

UO‘K 512.130



**Zebiniso
SHARIPOVA**

**Urganch
davlat universiteti
o‘qituvchisi**



Annotatsiya: *mazkur maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi sug‘orish leksikasini tashkil qiluvchi ayrim lisoniy birliklar tahlilga tortilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируются некоторые языковые единицы, составляющие лексику ирригации в хорезмско-огузских говорах.*

Annotation: *this article analyzes some linguistic units that make up the lexicon of irrigation in the Khorezm Oghuz dialects.*

Kalit so‘zlar: *milliy til, shevalar leksikasi, tabiiy sug‘orish obyektlari, sun‘iy sug‘orish obyektlari, leksik sath, lug‘aviy qatlam, dialektal leksika.*

Ключевые слова: *национальный язык, диалектная лексика, объекты естественного орошения, объекты искусственного орошения, лексический уровень, лексический пласт, диалектная лексика.*

Key words: *national language, lexicon of dialects, natural irrigation objects, artificial irrigation objects, lexical level, lexical layer, dialectal lexicon.*

Keskin, shiddatli va shaxdam qadamlar bilan rivojlanib borayotgan yangi O‘zbekiston hayotining barcha jabhalarida yuz berayotgan o‘zgarishlar, milliy tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilining taraqqiyoti, yuksalishiga, ayniqsa, uning leksikasi rivojiga yetarli darajada ta’sir ko‘rsatayotgani shubhasizdir. Ana shu davr mobaynida xalqimiz o‘z yurti, milliy tili, ma’naviyati, madaniyati, qadriyatlarini va urf-odatlarini tarixini bilishga hamda o‘zligini anglashga qiziqish avvalgilarga qaraganda yanada ortdi.

Demak, o‘zbek tili va uning tarkibiy qismlari bo‘lgan shevalar taraqqiyotining zamon bilan hamqadam ilmiy kuzatish, mazkur yo‘nalishda zaruriy ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, o‘zbek tili va shevalari leksikasining bugungi kun talablari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ilmiy asoslangan xulosalar bilan uyg‘unlashtirish, shevaga xos so‘zlarni to‘plash va qiyosiy aspektda tadqiq etish kabi qator dolzarb vazifalar yukladi.

Ma’lumki, har bir til o‘ziga xos leksik tarkibiga hamda lug‘at boyligiga ega. Umuman olganda, o‘zbek tilshunosligida adabiy til, xalq so‘zlashuv va shevalar leksikasini tadqiq etish bo‘yicha mamlakatimizda qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Mazkur sohada anchagina yutuqlarga erishildi, dissertatsiyalar himoya qilindi, monografiyalar nashr etildi va qator ilmiy maqolalar e’lon qilindi.

Shularga qaramasdan, hali o‘zbek tilshunosligi oldida o‘zining lisoniy yechimini kutayotgan qator ishlar mavjud bo‘lib, shulardan birisi o‘zbek tili, uning tarkibiy qismi bo‘lgan Xorazm shevasidagi sug‘orish leksikasidir. Chunki ular o‘zbek xalqining qadimiy va murakkab sug‘orish dehqonchilik madaniyati, ishlab chiqarish tarzi, xo‘jalik faoliyati, uning yer va suvga munosabati, hosil undirish hamda yetishtirishdagi mehnati va hayotiy ehtiyojini ifodalovchi sug‘orishga doir boy leksik birliklar hisoblanadi. Xorazm shevalarining sug‘orish leksikasi monografik planda alohida o‘rganilmagani bilan, bu xususida tilshunos-olimlarimiz F.Abdullayev¹, O.Madrahimov², A.Ishayev³, T.Yo‘ldoshev⁴, R.Yo‘ldoshev va Y.Bobojonovlar⁵ning ishlarida aytib o‘tilgan qimmatli fikrlar va keltirilgan faktik materiallar mazkur ishimiz uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, prof. Z.Do‘simov, R.Yo‘ldoshevlarning mazkur sohaga doir e‘lon qilgan ilmiy maqolalarini alohida ta’kidlash diqqatga molikdir.

Avvvalo, sug‘orish leksikasi deganda shuni qayd etish lozimki, unda suv va u bilan bog‘liq tushunchalar, sug‘orish manbayi va uning tarmoqlari, maydonlar, dalalar hamda ularning qirg‘oqlari, tabiiy hamda sun‘iy suv yo‘llari, havzalar, hovuzlar, quduqlar, suv yo‘llarini qazish va tozalash, unda ishlatiladigan mehnat qurollari, sug‘orish bilan bog‘liq shaxs, kasb-kor, sug‘orish harayoni va holatlari, shuningdek, sug‘orish bilan bog‘liq urf-odatlar va boshqalarni ifoda etuvchi lisoniy birliklar tushuniladi.

Ma‘lumki, sug‘orish leksikasi tarkibida milliy tilimiz hisoblangan o‘zbek tilida uzoq o‘tmish, qadimdan boshlab, qo‘llanib kelinayotgan va ularning ayrimlari iste‘moldan chiqqan bo‘lsa, ayrimlari hozirgi kunda ishlatilayotgan yuzlagan, minglagan leksik birliklar mavjud bo‘lib, davr o‘tishi bilan sug‘orish leksikasi tarkibidagi leksemalarning ma’nolarida o‘zgarishlar sodir bo‘lib turgan, ayrim so‘zlar-terminlar esa o‘zbek tili va uning sheva hamda lahjalarida yangi ma’nolarni ifodalab yurgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, ona tilimizning terminologik tizimini yanada chuqurroq o‘rganish, ilmiy tadqiq qilish ehtiyoji sezilmoqda. Quyida shu va boshqalar xususida fikr yuritimiz.

Odatda, har bir fan yoki uning sohalari, bo‘limlarini o‘rganishda tasnifiy prinsiplar (tamoyillar)dan foydalangan holatda ish tutiladi.

Shunday ekan, biz ham sug‘orish leksikasini uchta tasnifiy guruhlariga ajratgan holda o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik. Bular quyidagilar:

- 1) tabiiy sug‘orish obyektlari;
- 2) sun‘iy sug‘orish obyektlari;

Demak, tabiiy sug‘orish obyektlarini ifodalovchi leksik birliklar tabiiy ravishda sug‘oriladigan yerlar va sug‘orish tizimining asosiy obyektidir. Bularga *yer, tuproq, maydon, dala, otiz* va boshqalar kiradi. Agarda mazkur so‘zlar-terminlarni biz lisoniy jihatdan tahlil qiladigan bo‘lsak, adabiy tilda ham, Xorazm shevasida

¹ Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: Фан, 1960.

² Мадраҳимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент: Фан, 1973.

³ Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1978.

⁴ Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси. –Тошкент: Фан, 1986.

⁵ Худойберганов Р. Хоразм шеваларидаги фразеологизмларнинг семантик хусусиятлари// Тил гулшани. –Урганч, 2008.

ham *yer* termini bir xil ma'noda qo'llaniladi. Ammo keyingi *tuproq* termini esa, Xorazm shevasida talaffuzi jihatidan boshqachadir. Masalan, adabiy tildagi *tuproq* termini Xorazm shevasida fonetik jihatdan *turpoq*, *tupraq*, *to'proq*, *to'rpoq* shakllarida talaffuz qilinadi. Buni tilshunoslik fanining nazariyasi asosida o'rganidigan bo'lsak, demak mazkur o'rinlarda talaffuzda metateza hodisasi sodir bo'lib, so'zlardagi yondosh tovushlarning o'zaro o'rin almashishi kuzatilmoqda. Bundan tashqari, u unlisining o'ga yoki o unlisining a unlisiga almashganini ham uchratish mumkin.

Bundan tashqari, sug'orish leksikasiga doir *dala* termini Xorazm shevasida otiz shaklida qo'llaniladi. Mazkur Xorazm shevasidagi *otiz* termini o'zbek adabiy tilining ayrim shevalarida ham ushbu shaklda qo'llaniladi, biroq kam hududlarda. Shuning uchun ham O'zбекистонning ko'pgina hududlarida *otiz* terminini deyarli tushunishmaydi.

Shuningdek, tabiiy sug'orish obyektlariga *daryo*, *kanal*, *arna*, *irmoq*, *so'z o'zani*, *buloq*, *soy* kabi leksik birliklar ham kiradi. Bunday leksemalar bilan ataluvchi obyektlar, odatda, inson yoki jamoaning qo'l mehnati asosida yaratilmasdan, balki ular tabiiy ravishda hosil bo'lib, mazkur sug'orish obyektlarini ifodalaydigan leksik birliklar sanaladi.

Tabiiy sug'orish obyektlari tarkibiga kiradigan *daryo* terminini Xorazm viloyatining deyarli barcha hududlarida aynan shunday talaffuz qilishadi va aynan shu shaklda hamda ma'noda qo'llaniladi, biroq ta'kidlash joizki, ayrim hududlarda, masalan, Xonqa tumanining ba'zi joylarida *deryo* tarzida ham qo'llashadi.

Sug'orish obyektlari sirasiga kiradigan **kanal** so'zi-termini ilmiy manbalarda shunday talqin qilinadi. Kanal so'zi lotincha **canalis** so'zidan olingan bo'lib, *quvur*, *suv yo'li* ma'nolarini ifodalaydi¹.

Demak, **kanal** so'zi faqatgina tabiiy sug'orish obyektini sirasiga kirib qolmasdan, u sun'iy sug'orish obyektiga ham kiradi. Masalan, yuqorida qayd etilgan lug'atda shunday ta'kidlanadi: "Daryo, ko'l yoki dengizlar o'rtasida kema qatnovini o'rnatish, shuningdek, ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash hamda ortiqcha suvlarni yig'ib, oqizib yuborish uchun maxsus qazilgan suv yo'li"².

Ko'rinib turibdiki, sug'orish leksikasi tarkibiga kiruvchi kanal so'zi-termini tabiiy obyektlar sirasiga emas, balki sun'iy sug'orish obyektlariga qatoriga ham kiradi. Mazkur so'z-termin Xorazm shevasida aynan shu shaklda qo'llaniladi.

Tabiiy sug'orish obyektlari sirasiga kiradigan navbadagi so'z-termin **arna** deb yuritiladi. Mazkur so'z-termining ilmiy manbalardagi talqiniga e'tibor qaratamiz. **Arna** so'zi S.Qoraevning lug'atida quyidagicha sharhlanadi: "Arna chig'atoycha so'z bo'lib, u daryodan hosil bo'lgan kanal ma'nosini ifodalaydi"³. Mazkur olim o'zining ushbu ishida tilshunos Z.Do'simov tomonidan ham arna so'z-terminini Xorazm vohasi bilan bog'liqligi ta'kidlanganini e'tirof etadi.

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2020, 2-жилд, 313-бет.

² Ўша асар, ўша бет.

³ С.Қораев. Топонимы Узбекистана с топонимическим словарем. Ташкент, 2015. С. 158.



Arna soʻzi juda qadimgi hisoblanadi. **Arna** — daryodan hosil boʻlgan kanal¹. V.V.Bartoldning taʼkidlashicha, arna Xorazmchadan kelib chiqqan: X asrlarda Xorazmda boshqa eroniyalar uchun tushunarsiz boʻlgan xalq hali oʻzining ona tilida gapirishda davom etgan va hatto yozma hujjatlarda qoʻllanilgan, bizningcha, bu til keyinchalik forsiy deb surib chiqarilmagan, turkiy til deb hisoblangan, shubhasiz, xorazmiy tilining qoldiqlari, sugʻorishning ayrim sunʼiy terminlari hisoblangan (*arna* — *katta kanal*, *yop* – *kichkina kanal*). V.V.Bartoldning soʻzlari boʻyicha quyidagi havolalar keltiriladi: Xorazmiy tili oʻzbek leksikasining Xorazm shevalarida oʻz izini qoldirgan

(masalan, sugʻorishda xorazmiy terminlari saqlanilgan: **arna** “*katta kanal*”, *yop* “*kichkina kanal, ariq*”²).

Yuqoridagi tahlillardan koʻrinib turibdiki, sugʻorish leksikasi tarkibiga kiradigan arna soʻzi, birinchidan, faqatgina tabiiy sugʻorish obyekti tarkibiga kiradigan leksik birlik emas, balki u sunʼiy sugʻorish leksikasi sirasiga kiradigan leksemdir. Ikkinchidan, arna soʻz-termini sugʻorish leksikasiga sirasiga kiradigan leksik birlik sifatida bevosita Xorazm vohasi bilan bogʻliq ekanini ilmiy manbalarning oʻzida shunday namoyon qilinmoqda.

Maʼlumki, sunʼiy sugʻorish obyektlarini ifodalovchi va unga daxldor leksik birliklar tabiiy sugʻorish obyektlarini ifodalaydigan soʻzlar-terminlarga qaraganda miqdor va tur jihatdan farq qiladi. Buni suv chiqarish va sugʻorish faoliyati oʻzbek xalqining qadimiy faoliyati boʻlganligidan ham bilish mumkin. Chunki dehqonchilik leksikasining tarkibi qismi boʻlgan sugʻorish leksikasida oʻziga xos leksik birliklar mavjuddir. Ayniqsa, mazkur sohaga doir terminlar Xorazm shevasida koʻpchilikni tashkil qilib, ularni quyida keltirib, atroflicha tahlil qilishga harakat qilamiz.

Bular: *karta*, *solma*, *rosh*, *chel*, *qariq*, *buyat*//*boʻyat*// *boʻgat*, *otiz* va boshqalar.

Sunʼiy sugʻorish leksikasi tarkibiga kiruvchi *karta* soʻz-termini rus tili orqali oʻzlashgan boʻlib, mazkur termin ostida dehqonchilikda qoʻllanadigan, ekish uchun moʻljallangan katta va keng hajmdagi maydon, dala tushuniladi. Ushbu soʻz-termin oʻzbek tilining boshqa ayrim shevalarida ham aynan shu maʼnoda ishlatiladi. Sunʼiy sugʻorish leksikasiga kiradigan navbatdagi soʻz-termin *solma* deb atalib, mazkur soʻz-termin faqatgina Xorazm shevasiga xos boʻlib, u sugʻorish uchun ishlangan sunʼiy suv yoʻli hisoblanadi, uni oʻzbek adabiy tili va uning boshqa shevalarida kichkina ariq sifatida qoʻllashadi. Ushbu termin oʻzbek tilshunoslari A.Ishayev, Z.Doʻsimov, R.Yoʻldoshev, Y.Bobojonov ishlarida ham qayd etilgan boʻlib, u faqat sunʼiy sugʻorish obyekti sifatida eʼtirof qilinmagan.

¹ В.В.Радлов. Опыт словаря, т. I, с. 303.

² В.В.Бартольд. Народы Средней Азии и Казахстана, М., 1962, ч. 1, с. 140.

Shuningdek, sun'iy sug'orish leksikasini tashkil qiluvchi Xorazm shevasiga xos so'z-terminlardan biri *rosh* hisoblanadi. U suv toshib ketmasligi uchun yop, ariqning chet qismiga tuproqni uyush orqali sun'iy tayyorlanadi va ushbu so'z-termin ham faqatgina Xorazm shevasida ishlatiladi. Umuman, Xorazm shevasiga xos bo'lgan *solma*, *rosh*, *yop* terminlari, Qoraqalpog'istonning janubiy hududlarida ham qo'llaniladi.

Bundan tashqari, Xorazm shevasidagi sug'orish leksikasi tarkibidan joy olgan navbatdagi terminlardan yana biri bu — *yop* so'z-terminidir.

Xorazm shevasidagi sug'orish leksikasi tarkibiga kiruvchi so'z-terminlardan keyingilari bular – *chel*, *qariq* so'z-terminlaridir. O'zbek tilining Xorazm shevasi qishloq xo'jaligi, aniqrog'i, dehqonchilik leksikasiga qarashli bo'lgan *chel* so'z-termini dehqonchilikda ekin maydonlarini mayda-mayda qismlarga ajratishda shu ekin maydonini *chel* tortish orqali bo'laklarga ajratiladi va mazkur termin ekin maydonlarini bir-biriidan ajratish hamda farqlash uchun o'llaniladi. Shuningdek, Xorazm shevasiga xos bo'lgan va sun'iy sug'orish uchun mo'ljallangan *qariq* so'z-termini ham ekin maydonlarini ekishga tayyorlanganda va qovun, tarvuz, pomidor, bodring, qalampir, qovoq kabi poliz ekinlarini ekishda avval o'sha maydonlarda *qariq* olinadi hamda shu tarzda ekinga tayyorlanadi. *Qariq* olishdan maqsad yuqorida keltirib o'tilgan ekinlarni ekkandan keyin ularning ustini suv bosib ketmasligi uchun maxsus qilinadi. Xorazm shevasi sun'iy sug'orish leksikasi tarkibiga kiruvchi *otiz* so'z-termini mazkur shevada ekin ekiladigan dala, maydon tushunchasini ifodalaydi. Ushbu so'z-termini faqatgina Xorazm hududi va Qoraqalpog'iston Respublikasining janubiy hududlarida ham shu ma'noda keng ishlatiladi. Yuqorida oilb borilgan tadqiqot va tahlillardan ko'rinib turibdiki, Xorazm shevasidagi sug'orish leksikasiga oid atamalar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'zbek adabiy tilining rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

FILOLOGIYA**XORAZM YODNOMALARI ANOMOSTIKASI**

**Doniyor
TOJIBOYEV**

**Urganch
innovatsion
universiteti
o‘qituvchisi**



UO‘K 512.140

Annotatsiya: Ushbu maqolada “IX-XIII asrlar Xorazm yodnomalari tili” mavzulari bo‘yicha afsona va rivoyatlar “Avesto”dagi mifologik qatlam bilan qiyosiy tahlil etildi. Og‘zaki va yozma namunalari o‘rganilishi jarayonida adabiy va badiiy tillarga xos xususiyatlar, ularning o‘zaro ta‘siri aniqlandi.

Аннотация: В статье предания и повествования на тему “Язык хорезмских летописей IX-XIII вв.” сопоставлялись с мифологическим пластом в “Авесте”. В ходе изучения устных и письменных образцов были определены особенности литературно-художественных языков и их взаимодействия.

Annotation: In this article, the legends and narratives on the topic of “The language of Khorezm records of the 9th-13th centuries” were compared with the mythological layer in “Avesta”. During the study of oral and written samples, characteristics of literary and artistic languages and their interaction were determined.

Kalit so‘zlar: Xorazm, Xorazmiy, Avesto, yodnomalari, anomostika, allomalar.

Ключевые слова: Хорезм, Хорезми, Авеста, мемуары, аномостика, ученые.

Key words: Khorezm, Khorezmi, Avesta, memoirs, anomostics, scholars.

Xorazm – Markaziy Osiyoning Turon pasttekisligida, Amudaryo deltasida joylashgan qadimiy tarixiy o‘lkadir. “Xorazm” so‘zi dastlab “Avesto”da uchraydi, “Avesto” Sharq yozma adabiyotimizni eng qadimgi manbasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. “Avesto”da qadimgi Turon o‘lkasi va Eronning o‘ziga xos tarixiy geografiyasi bayon etiladi. “Avesto” Sharqiy Eron va Markaziy Osiyoda istiqomat qiluvchi qadimiy qabilalarning ijtimoiy tuzumi, diniy qarashlari hamda jamiyatda ro‘y berayotgan tabaqalanish haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi. O‘sha davrlarda jamiyat turli tabaqalarga bo‘linib, boylar va kambag‘allar sinflari paydo bo‘la boshlagan.

“Avesto” ruhoniylar, jang aravalarida yuruvchi harbiylar, dehqon-chorvadorlar, hunarmandlar, qullar mavjudligi haqida xabar beradi. Jamiyatning sinflarga bo‘linishi natijasida dastlabki davlatchilik ham vujudga keladi.



“Avesto”da bayon qilingan voqealar, asosan, “Arianam Vayja” mamlakatida, ya’ni olimlar tomonidan “Katta Xorazm” deb atalgan davlatda ro‘y beradi. Miloddan avvalgi I ming yillikning boshlariga kelib, Markaziy Osiyoning nisbatan rivojlangan hududlarida ilk davlat uyushmalari paydo bo‘ldi. Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib, Baqtriya va miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Amudaryoning o‘rta oqimi qismidan Orolga yaqin bo‘lgan yerlarda (Shimoliy-g‘arbiy O‘zbekiston, Shimoliy-g‘arbiy Turkmaniston) hududlarida Xorazm nomi bilan ataluvchi davlatlar vujudga kelgan.

Xorazmiy — XIV asrda yashab, turkiy va forsiy tilda ijod etgan shoir. Biroq bizga uning asosan o‘zbek, qisman tojik tilida bitilgan birgina “Muhabbatnoma” asari etib kelgan. Tarjimayi holi haqida ham shu asardagi ma’lumotlardan boshqa ma’lumotga ega emasmiz. Hatto, uning asl ismini ham bilmaymiz. “Muhabbatnoma”da shoirning o‘zi qayd etishicha, Oltin O‘rda xoni Jonibekxonning Sirdaryo muzofotidagi hukmdorlaridan biri Muhammad Xojabek forsiy tilda she‘rlar yozib, mashhur bo‘lgan Xorazmiydan: “Bu qish mening yonimda yurib, bizning tilda (ya’ni turkiyda) bir kitob yozsang”, — deb iltimos qiladi:

Ko‘ngul bahrinda ko‘p gavharlaring bor,
Ochunda porsiy daftarlaring bor.
Muhabbat nardini ko‘plardin uttung,
Shakartek til bila olamni tuttung.
Tilarmenkim, bizing til birla paydo
Kitobe aylasang bu qish qotimdo, —
Kim ush eldek kechar ayyomi foniy,
Jahonda qolsa bizdin armug‘one.

“Muhabbatnoma” shu tariqa milodiy 1353-yili dunyoga kelgan. Demak, shoir tojik tilidagi daftarlari, ya’ni to’plamlari, “shakartek til” bilan el orasida ma’lum-u mashhur bo’lgan. Muhammad Xojabek esa undan aynan o’zbekcha asar yozishni so’rayapti. Adabiyotimiz tarixi uchun bu muhim bir fakt. Chunki shoirlarimizning o’z tilimiz qolib, forsiyda asarlar yozishiga qarshi kurash Alisher Navoiy yashagan XV asrning ikkinchi yarmiga qadar davom etdi. Taxallusidan ham bilish mumkinki, shoir – xorazmlik. Lekin asar Sirdaryo yoqalarida bitilgan. Yana bir narsani unutmash kerakki, faqat Amudaryoning Orolga quyiladigan joylarigina emas, Sirdaryoning dengizga tutash bo’lgan hududlari ham Xorazm deyilgan bo’lishi mumkin. Shuning uchun «Xorazm» degan joy nomi anglatgan hozirgi tushuncha bilan XIV asrdagi hudud bir biridan keskin farq qilishi tabiiy hol.

Shoir unga bo’lgan insoniy mehr-muhabbatini izhor etadi. Asar nomi



“Muhabbatnoma” deyilishi ham, asli, shundan. Shuning uchun bu asarda real shaxs timsolini yaratish asosiy maqsad qilib qo’yilgan. Bir baytda bu hukmdorning Qo’ng’irot urug’idan ekanini qayd etib o’tadi: Shoir dastlab o’n nomadan iborat asar yozishni mo’ljallagan, ammo keyin yana bir noma qo’shgan (Burun o’n dedim, u o’n bir bo’ldi).

Zihi arslon yurak Qo’ng’irot urug’i,
Kichik yoshdin ulug’larning ulug’i.

Lekin nomalar boshlangandan keyingi qismlarida ham zimdan hukmdorga iliq munosabat, ishoralar bilan uni ta’rif-tavsif etish bor. Bu aksar g’azallar mazmunida ham aks etadi. Bir g’azalda bevosita lirik qahramon bilan hukmdor munosabatlari qalamga olinadi. Jumladan, unda shunday bayt bor:

Bizing bek yodig’a ishrat qiloli,
Nechakim yo’qtururbiz son ichinda.

Shoir ba’zan g’azalning matla’sidayoq bunga ochiq ishora qiladi:
Yaratqonkim, tan ichra jon yaratti,

Seni ko‘rkluklar uzra xon yaratti.

Ayniqsa, maqta’larda shoir lirik qahramoni to‘g‘ridan-to‘g‘ri Muhammad Xojabekka murojaat qilib, undan himmat va karam kutadi:

Siza teb keldi, Xorazmiyni asrang,

Kim asrarlar qamuq shahlar gadoyin.

Hatto, shaklan ishqiy mavzuda bo‘lgan nomalar va g‘azallar mohiyatida ham ana shu hukmdor ta’rifi yotganini sezish qiyin emas. Ba’zan buni go‘yo bir o‘xshatishdek qilib yoxud istiora shaklida bildirib o‘tadi:

Qilur o‘z jonig‘a qasd o‘zi boyiq,

Gadoekim, bo‘lur sultona oshiq.

Yoki:

Ayit mendinkim, ul miskin urur oh,

Qachon ingay gadoning evina shoh?

Nomalardagi “olam podshohi”, “qamuq ko‘rkluklari uzra podshosen”, “gulchehralar molik riqobi”, “shohi qaboyil”, “ohu nazarlar shahriyori” kabi ifodalardan foydalanish ham biryo‘la asar bag‘ishlangan hukmdorni esdan chiqarmaslik ilinjida qilingan. Muallif shunday yo‘l tutganki, bu parchalarni hukmdorga emas, yorga bag‘ishlangan deb o‘qisangiz ham, ma’no chiqaveradi, badiiyat hech narsa yo‘qotmaydi. Eng muhimi, ishq bu erda hukmdorga muhabbatdan sevikli yorga, undan esa Yaratgan Egamga muhabbatga aylana borgan. Chunki tasavvuf yurtimizda keng qanot otgan bu davrlarga kelib ilohiy ishqdan xoli tarzda muhabbat mavzusini yoritishni tasavvur qilish mushkul: Buni shoir asar oxiridagi “Iltimosin aytur” faslida shunday bildirib o‘tadi:

Muni kim ish birla o‘qug‘ay,

Haqiqat olamini munda bilg‘ay.

Bu yerdagi “haqiqat” tasavvufiy ma’noga ega. Ya’ni Xudoga ishqning yo‘li shariat, tariqat va haqiqatdan iborat deb qaralgan. Haqiqat – Allohga etishni anglatadi. Tasavvuf ahli ishqni Xudoga muhabbat tarzida tushungan va talqin etgan. Insonga, ya’ni do‘stga yoki yorga muhabbat Allohga bo‘lgan ishqning bosqichlaridan deb qaralgan. “Muhabbatnoma” o‘zbek adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. U she’riyatning keyingi taraqqiyotiga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Hatto, Alisher Navoiy ham bu asardan yaxshi xabardor bo‘lgan. Ulug‘ o‘zbek shoirining forsiy va turkiy til muqoyasasi, turkiy tilning ko‘p jihatlardan ustunligini isbotlashga bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” risolasida turkiylar kattaroq xolni “meng” deyishi, bu ifoda forsiy tilda yo‘qligi haqida gapira turib, misol tariqasida:

Aningkim, ol enginda meng yaratti,

Bo‘yi birla sochini teng yaratti, – baytini keltiradi.

Navoiy bu misralarni qaysi asar yoki qay bir shoirdan olganini aniq aytmagan. Aslida, bu — Xorazmiy “Muhabbatnoma”sining oltinchi bayti. Navoiy bu baytni aynan Xorazmiyning “Muhabbatnoma”sidan olganini isbotlovchi boshqa jiddiy dalillar ham bor. Xorazmiy keltirilgan baytda kecha va kunduzni bir chiroyli qiz yoki kelinchak kabi tasvirlab, Alloh uning qizil yuzida meng, ya’ni katta xol yaratdi, shuningdek, bo‘yi bilan sochini teng yaratdi, deydi. Bundagi “qizil yuz” va “bo‘y” ramzan – kunduzni, “meng” va “soch” – kechani bildiradi. Demak, Xudo kunduz bilan kechani teng qildi, deyilmoqchi. Umuman olganda,

yil davomidagi jami kunduzlar bilan barcha kechalar yig‘indisi tengda. Shoir baytda aynan shuni ko‘zda tutgan. “Bo‘yi birla sochini teng yaratti” – turkiy she‘riyatga Xorazmiy qo‘shgan go‘zal ifodaviy topilma. Navoiy esa adabiyot, xususan, turkiy she‘riyatdagi yilt etgan biror narsani ko‘zdan qochirmagani aniq. Xulosa qilib aytganda, Xorazmiy g‘azal, qit‘a va fardning XIV asr o‘zbek adabiyoti uchun dastlabki namunalarini ijod qildi. Bu asarlar ana shu jihati bilan ham alohida ahamiyatga ega. Asar Muhammad Xojabek iltimosi bilan yozilgani, “buyurtmachi” undan bir nom qolishini istagani uchun uning ta‘rif-tavsifiga ko‘p o‘rin ajratilgan. Shaklan olib qaraganda, shoir Muhammad Xojabek madhini nomalardan oldin saranjomlab, keyin “Muhabbatnoma” bunyod etishga kirishgandek qilib yozadi. Ana shu madh qismidagi masnaviy va g‘azallarda Muhammad Xojabek ochiq maqtaladi. Xorazmiyning “Muhabbatnoma”si o‘zbek mumtoz adabiyotidagi noma janrining ilk yorqin namunasi sanaladi. Albatta “Muhabbatnoma” faqat nomalar yig‘indisi emas, unda g‘azal, qit‘a, fard kabi kichik lirik janrlarga xos asarlar ham mavjud. Lekin asardagi o‘n bir noma asar tuzilishining bosh xususiyatini belgilaydi. Shoir shundan kelib chiqib “noma” so‘zini asar nomiga ham kirgizgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doschanov T. Ma‘mun akademiasining olis va yaqin yulduzlari, Toshkent: TMI, 2005. -B.124.
2. Matniyozov M. Xorazm tarixi. — Urganch: Xorazm, 2005. -B.45.
3. Mahmudov M. Xorazmshoh Ma‘mun akademiasini. — Toshkent: TMI, 2005. — B.60.
4. Ma‘mun akademiasini va tibbiyot. Ilmiy anjuman materiallari. — Urganch: Birinchi ToshDTI Urganch filiali, 2005. -B.25.
5. Rasulova F., Do‘stjonov T., Hasanov S. Xorazm Ma‘mun akademiasining olis-yaqin yulduzlari. -Toshkent: Ma‘naviyat, 2005. -B.89.

FILOLOGIYA**TIL O‘RGANISHDA O‘YINLARNING ROLI****UO‘K 512.140****Gulnoza
SABIROVA****Urganch innovatsion
universiteti
o‘qituvchisi**

***Annotatsiya:** O‘yinlar erta bolalik davrida va undan keyingi davrda sog‘lom rivojlanish uchun zarurdir. O‘yin bolalarga o‘zlari bilgan narsalarini – u dunyoviy bilim bo‘lsin, yoki ilmga asoslangan bilim, mustahkamlashga va bilmagan narsalarini mashq qilishga imkon beradi. Bu ularga sinab ko‘rish va xatosini tushunish orqali tajriba o‘tkazish, muammolarga yechim topish, eng yaxshi strategiyalarni ishlab chiqish va yangi ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, bilgan narsalariga ishonchni oshirishga ko‘maklashadi.*

***Аннотация.** Игры важны для развития в раннем детстве и на следующих этапах. Игры дают возможность закрепить и отработать полученные на уроке или в реальной жизни знания. Этот этап помогает им проверить свои знания и осознать ошибки, решить проблемы, разработать стратегии и улучшить принципы, а также повысить уверенность в своих знаниях.*

**Sevinchoy
SOATBOYEVA****Urganch innovatsion
universiteti talabasi**

***Annotation:** Games are important for developing in the early childhood and in the next steps. Games give an opportunity to consolidate and to practice their knowledge taken during their lesson or in their real life. This stage helps them to try their knowledge and to realise the mistakes, to solve the problems, to make strategies and to improve the principles, and to increase the confidence to their learnings.*

***Kalit so‘zlar:** O‘yin, muloqot, tinglash, sinf, auditoriya, motivatsiya, talaba.*

***Ключевые слова:** Игра, общение, слушание, класс, аудитория, мотивация, ученик.*

***Key words.** Game, communication, listening, class, audience, motivation, student.*

O‘yinlarni sinfga kiritish har qanday ta‘lim dasturida muhim vositadir. Ba‘zi o‘quvchilar mashg‘ulot materiallarini o‘qish orqali o‘rganishsa, boshqalarga o‘rnidan turib, xuddi shu material bilan faol shug‘ullanish yaxshidir. O‘qishga yo‘naltirilgan talabalar yo‘nalishlar, hikoyalar yoki ssenariylar va boshqa yozma tarkibni o‘z ichiga olgan sinf o‘yinlaridan foydalanishlari mumkin.

Faolroq o‘quvchilar dars tamoyillariga tayanadigan faoliyat orqali ishlaganda sinf g‘oyalarini o‘rganishlari mumkin. Tengdoshlari bilan tushunchalarni tushuntirish yoki muhokama qilishda muvaffaqiyat qozongan talabalar jamoaviy muloqotni o‘z ichiga olgan hamkorlikdagi o‘yinlar yoki tadbirlardan foyda olishlari mumkin.

O‘yinlar va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari, har bir talaba uchun materialni o‘zining individual ta‘lim uslubiga mos keladigan tarzda sinab ko‘rish imkoniyatini beradi.

O‘yinlarning ijobiy tarafi: o‘quvchilarning yuqori faolligi va har qanday o‘quvchiga dars mavzusini yetkazishning noyob usullari kiradi. Shuningdek, ijtimoiy-emotsional o‘rganishni targ‘ib qilishda tanqidiy fikrlashni mashq qilish imkoniyatini beradi va bu qatorni quyidagilar bilan davom qilamiz:

O‘yinlar muhim hamkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘rgatadi. Individual va guruh o‘yinlari davomida talabalar maqsadga erishish uchun bir qator muammolarni hal qilishadi. Harakat rejaları yangi muammolar paydo bo‘lganda o‘zgarishi mumkin. Talabalar tegishli yo‘llarni muhokama qilishda xavflarni baholashlari mumkin. Bularning barchasi davomida strategiyani ishlab chiqish va tez qaror qabul qilish zarurati talabalarga muvaffaqiyat rejasini ishlab chiqishda muhim bo‘lgan tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o‘rganishga yordam beradi.

Hamkorlikda ishlash. Jamoaviy o‘yinlarda o‘quvchilar umumiy maqsad sari harakat qiladilar. Jamoa a‘zolarining barchasi bitta birlik sifatida muvaffaqiyatga erishsa yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, hamkorlik muhim bo‘ladi. Faoliyat boshida talabalar jamoada kim qanday vazifalarni bajarishini guruh a‘zolari orasida muhokama qilishlari kerak. Bunda ularning barchasi o‘zlarining yoki boshqa talabalarning muhim kuchli tomonlarini aniqlashlari kerak. Keyin talabalar ushbu kuchli tomonlardan kelib chiqqan holda jamoaning roli va mas‘uliyatini tartibga solishlari kerak. O‘yin davomida qo‘shimcha qiyinchiliklarga duch kelganda, jamoa a‘zolari ham yangi to‘siqlarni qayta sozlash va yengish ustida birgalikda ishlashlari kerak.

Sinf o‘yinlari ijtimoiy-emotsional o‘rganishni kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sinfda o‘yin o‘ynash ***muloqot, tinglash va empatiya kabi ijtimoiy-emotsional*** ta‘limning muhim tarkibiy qismlarini kuchaytiradi.

Muammolarni hal qilishda talabalar bir-birlari bilan faoliyatga nima hissa qo‘shishni xohlashlari yoki jamoa nima qilishi kerakligi haqida gapirishlari kerak. Shu bilan birga, ular jamoaning qolgan qismi rollar, qarorlar, taraqqiyot va boshqalar haqida qanday fikrda bo‘lishidan xabardor bo‘lishlari kerak. Agar bir talaba juda jim bo‘lsa, boshqasi e‘tiborga olishi va jamoaning qolgan qismiga ularni himoya qilishga qaror qilishi mumkin. Yoki o‘yinni qanday o‘ynash haqida

bahslashayotganda, talabalar yakuniy qarorga kelishdan oldin jamoaning barcha a'zolari variantlar haqida qanday fikrda ekanligini hisobga olishlari mumkin.

O'yinlar talabalarning diqqatini jamlash va sinfni boshqarishga yordam beradi. Ta'limda o'yinlardan foydalanish ham muhim sinfni boshqarish vositasidir. Faoliyatlar sinfni qayta yo'naltiradigan qo'shimcha hissiy tajribalarni taqdim etishga yordam beradi. Bu talabalar uzoq sinovdan charchaganlarida, maktab ta'tilidan endigina qaytganlarida yoki diqqatni jamlashga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan boshqa chalg'itishni boshdan kechirganlarida foydali vositadir.

Ushbu faolroq o'rganish uslubi, shuningdek, sinf ichidagi faollikni oshirishga yordam beradi. O'quv tajribasi ustidan ko'proq nazorat berilsa, o'quvchilar materialga, munozaralarga ko'proq jalb qilinadi va sinfda o'z daxldorlik hissini uyg'otadi. O'yinlar ushbu ishtirok etish va imkoniyatlarni oshirish imkoniyatini beradi va o'quvchilarni yanada chuqurroq jalb qilish va diqqatni jamlashga yordam beradi.

Sinf o'yinlari ichki motivatsiyani oshiradi (va shunchaki qiziqarli). Boshqa barcha ta'lim afzalliklaridan tashqari, o'yin o'rganishni yanada qiziqarli qiladi. Diqqatning materialdan faoliyatga o'tishi o'quvchilar uchun o'rganishni kamroq ish kabi his qilishi mumkin. Ish varag'idagi faktlarni eslab qolish va savollarga javob berishga e'tibor qaratish o'rniga, talabalar o'yinni hal qilishadi. Ular bir vaqtning o'zida dars rejasi ustida ishlayotganliklarini ham anglamaydilar. Bu nafaqat sinfingizning umumiy kayfiyatini yaxshilaydi, balki qiyinroq tushunchalarni hal qilishga yordam beradi. Muammo darslik orqali emas, balki o'yin orqali taqdim etilsa, o'quvchilarning tushkunlikka tushishi yoki haddan tashqari ishtiyoqmand bo'lish ehtimoli kamroq. Ular, shuningdek, qo'shimcha qadamlar qo'yishlari yoki an'anaviy ta'lim modelida bo'lmagan yangi g'oyalarni sinab ko'rishlari mumkin. O'qituvchilar doimo talabalar va material o'rtasidagi tafovut va bo'shliqni bartaraf etishga, yoki to'ldirishga harakat qilishadi. Sinf o'yinlari ta'limni hamma uchun qulayroq va qiziqarli qilishga yordam beradi.

Misol tariqasida 2 ta o'yinni ko'rib chiqamiz. Birinchi o'yin turida o'quvchilar so'zlarga definition – tushuntirish berishni o'rganishadi.

“You will never guess!” - O'ylab topolmaysan!

Maqsad: matndagi kalit so'zlar yordamida yangi so'zlarni topish

Kerakli jihozlar: qog'oz va ruchka

Talabalardan biri bir so'zni ta'riflaydi. 1- gapdan qaysi so'zligini topsa 4 ball; 2-gapdan topsa 3 ball; 3-gapdan topsa 2 ball; 4-gapdan topsa 1 ball beriladi.



Ta'riflanadigan soʻzlar bir xil soʻz turkumiga yoki bir xil oilaga (masalan: oziq-ovqat, hayvonlar, fe'llar...)

For example:

1. It is round and green, it can be red and yellow.
2. It is a type of food.
3. It is usually ripen in autumn.

Only question! - Faqat savol!

Maqsad: ingliz tilida savol tuzishni, turlarini mashq qilish. Ikkita talaba doskaga chiqadi va faqat savollar orqali gaplashadi. Savolga javob berish mumkinmas.

For example:

A:-What is your name?

B:-Don't you know my name?

A: -Is it hard for you to tell your name?

B: -Where are you coming?

A:-Is it hard for you to guess my condition?...

Xulosa. Bolalar uchun jamoaviy va individual oʻyinlar har qanday ta'lim rejasida tez-tez ishlatiladigan vositalar boʻlishi kerak. Talabalar nafaqat ushbu mashgʻulotlar orqali yuqori faollikdan bahramand boʻlishadi, balki ular sinfdan tashqarida dividendlar keltirib chiqaradigan ijtimoiy-emotsional koʻnikmalarni rivojlantiradilar.

BIOLOGIYA**BALIQLAR TABIIY OZIQASINING TARKIBIY QISMINI
TASHKIL QILUVCHI ORGANIZMLAR**

**Zoxid
NARBOYEV**

**Urganch davlat
universiteti
o'qituvchisi**

UO'K 639.3.043.2

Annotatsiya: Ushbu maqolada baliqlar tabiiy oziqasining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi zooplankton organizmlar to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Undan tashqari baliqlarning oziqlanish stadiyalari to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Аннотация: В статье представлены сведения об организмах зоопланктона, составляющих естественную пищу рыб. Кроме того, представлена информация об этапах питания рыб.

Annotation: This article presents information about zooplankton organisms that make up the natural food of fish. In addition, information on the feeding stages of fish is provided.

Kalit so'zlar: zoobentos, plankton, lichinka, kolovratka, infuzoriya, batometr.

Ключевые слова: зообентос, планктон, личинка, коловратка, инфузория, батометр.

Key words: zoobentos, plankton, lichinka, kolovratka, infuzoriya, batometr.


Har xil turdagi baliqlar va ularning turli yoshdagilari suvdagi turli guruhdagi organizmlarni is'temol qilishadi. Ikrasidan chiqqan baliq lichinkalari tashqi muhitdan oziqa qabul qilmaydi, rivojlanishi uchun sariq tanachadan foydalaniladi. Biroz vaqt o'tgach lichinkalar asta-sekinlik bilan suv havzasidagi organizmlar bilan oziqlanishga o'tadi. Baliq lichinkalari suv havzasidagi juda ham mayda, ko'zga ko'rinmaydigan organizmlar (planktonlar)- mikroskopik ko'rinishdagi suv o'tlari va dafniidalarning nauplius bolachalari bilan oziqlana boshlaydilar. Lichinka tanasining o'sishi bilan birgalikda uning og'iz apparati ham kattalashib, lichinkalar katta hajmdagi organizmlar (mo'ylovchali va eshkakoyoqli qisqichbaqalar) bilan oziqlanishga o'tadi.

Oziqlanish baliq organizmining asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Baliqning o'sish va rivojlanishi, oziq moddalar (oqsil, yog', uglevod) bilan chambarchas bog'liq. Chunki oziq moddalar baliq hayoti uchun energiya manbai

hisoblanadi. Baliqchilikda baliqlarni oziqlantirish uchun tabiiy va qo‘shimcha oziqalardan foydalaniladi.

Tabiiy oziqalar suvda tabiiy yo‘l bilan rivojlanadigan, suvda o‘sadigan o‘simliklar, planktonlar, qisqichbaqasimonlar, bakteriyalar, detritlar, bentoslar, yuqori tabaqadagi o‘simliklar, hashoratlar va ularning lichinkalari, suv hayvonlari va baliqlar kiradi.

Barcha baliq chavoqlari endogen oziqlanishdan chiqib donaogen oziqlanishga o‘tishi bilan albatta zooplankton va fitoplankton bilan oziqlanishga o‘tadi. Zooplaktonlar asosan kolovratkalar, kladotseralar va kopepodalardan iborat.



Baliq o‘shishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan oziq-moddalarni – oqsil, yog‘, uglevodlar, mineral tuzlar, vitaminlarni tabiiy oziqasidan hamda qo‘shimcha omuxta yemdan oladi. Tabiiy va sun‘iy suv havzalarining baliq ozuqasi bo‘lib – suv muhitining asosiy organizmlari – gidrobiontlar, ya’ni tuban va yuksak suv o‘simliklari va hayvonlari hisoblanadi. Tabiiy oziqa turlaridan zooplanktonlar quyidagi 1-jadvalda berilgan:

1-jadval

Baliq tabiiy oziqasining tarkibiy qismini tashkil qiluvchi organizmlarining ro‘yxati

Zooplankton	Bo‘lim		
	Retatoriya-kolovratkalar	Cladocera-shoxdor mo‘ylovlilar	Copepoda-kurakoyoqlilar
Diaphanosoma brachyurum		+	
Daphnia longispina		+	
Ceriodapnia reticulate		+	
Ceriodapnia quadrangula		+	
Simocephalus isetulus		+	
Macrothrix spinosa		+	

Chydorus sphaericus		+	
Alona rectangular		+	
Asplanchna girodi	+		
Lecane sp	+		
Euchlamis dilatata	+		
Brachions angularis	+		
Brachions calyciflorus	+		
Brachions nilsoni	+		
Keratella isalga	+		
Hexarthra sp	+		
Polyarthra sp	+		
Acantodiaptomus			+
Salinus			+
Eucyclopus serrulatus			+
Paracyclopus sp			+
Mesocyclopus Crassus			+
Harpacticoiola sp			+
Zoobentos	Xironomid lichinkalar	hasharot lichinkalar	Nektobentos
Chironomus plumosus	+		
Chironomus thumi	+		
Chironomus reductus	+		
Cryptochironomus conjgens	+		
Limnochironomus neriso sus	+		
Tanytarsus mancus	+		
Odonata (ninachilar)		+	
Plecoptera (bahorlilar)		+	
Hemiptera (suv kanallari)		+	
Trichoptera (buloqchilar)		+	
Colioptera (suv qo'ng'izlari)		+	
Ostrocooda			+
Mysidacea (mizidlar)			+
Gammaridae (gammaridlar, Krivetkalar)			+

Tabiiy oziqa bazasining obyektlaridan biri bu suv tubi umurtqasiz hayvonlar, ya'ni zoobentos hisoblanadi. Zoobentos bilan hovuz baliqlaridan



asosan karp oziqlanadi. Tabiiy suv havzalarida esa zog‘ora, lesh, karas, vobla zoobentos bilan oziqlanadi.

Baliqlar lichinkalari donaogen oziqlanishga o‘tishi bilan kolovratkalar va infuzoriyalar bilan oziqlanadi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlar oshqozonining oldingi qismida endodinomorfa turkumiga mansub bo‘lgan 120 turga yaqin infuzoriyalar yashaydi. Qoramolning toza go‘ngi, oshqozon mahsuloti baliq lichinkasi uchun oziqa hisoblanadi. Oziqa obyekt bo‘lib infuzoriya ham hisoblanadi.

Zooplanktonni asosiy guruhini tashkil qiladigan organizmlar shoxdor mo‘yovlilardir. Asosan suvning plankton organizmini tashkil qiluvchilar hisoblanadi. Baliq lichinkalik stadiyasidan o‘tgandan keyin og‘irligi 1-2 gramm bo‘lgach aynan shu organizmlar bilan oziqlanadi. Kladotseralar yoki shoxdor mo‘yovlilar barcha baliq chavoqlari va mayda baliqchalarning ozuqa obyektlari hisoblanadi.

Zooplanktonning yana bir ozuqabop guruhi bu qisqichbaqasimonlardan kopepodalar yoki kurakoyoqlilardir. Bular ancha yirik va sermahsul. Ayniqsa, *Acanodiaptomus salinus*, *Cyclopus wicinus*, *Mesocyclops* sp.lar ko‘p uchraydi. Hovuzlarda yashovchi turlarida suv havzasi qurib qolganda tuxumlari qattiq qobiqlarga o‘raladi va yana suv kelishi bilan jonlana boshlaydilar. Ayniqsa, kurakoyoqlilarning nauplius, yuvenial formalari bilan baliqlarning chavoqlari oziqlanadi.

Baliqlarning tabiiy oziqlarini yig‘ish va aniqlash uchun baliqshunos olim bir qancha ishlarni bajaradi. Dastlab olim “Djedi” to‘ri bilan zooplankton, batometr asbobi bilan fitoplankton va dnogeriatel Peterson asbobi bilan baliq boqilayotgan hovuzdan zoobentoslarni yig‘adi. Yig‘ilgan zoobentos hayvonlar laboratoriyada asboblardan tozalab olinadi va mikroskop yordamida tekshiriladi. Zoobentos, zooplankton hamda fitoplankton soni va miqdorini aniqlaydi. Shu tartibda baliqshunos olim suv havzasidagi tabiiy ozuqa turlari va biomassasini aniqlaydi.

Demak, baliq chavoqlari chiqishi bilan sariqlik hisobidan oziqlanib, kattalashishi bilan kattaroq zooplankton organizmlar bilan oziqlanishga o‘tadi ya’ni infuzoriya, kolovratkalar, kladotseralar hamda kopepodalar bilan oziqlanadilar.

MATEMATIKA**MATEMATIKA DARSLARIDA MATNLI MASALALARNI YECHISH
METODIKASI**

**E'tibor
SARIYEVA**

**Urganch
innovatsion
universiteti
stajyor-
o'qituvchisi.**



**Dilfuza
AHMEDOVA**

**Urganch
innovatsion
universiteti talabasi**

UO'K 821.

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarida matnli masalalarning ahamiyati hamda matnli masalalarni yechish metodikasi tahlil qilingan.

Аннотация: В статье проанализировано о важности текстовых задач на уроках математики и методике решения текстовых задач.

Annotation: The article talks about the importance of text problems in mathematic lessons and the methodology for solving text problems.

Kalit so'zlar: Masala, mashq, progressiya, foiz, harakat, birgalikda bajariladigan ish, tenglamalar sistemasi.

Ключевые слова: прогрессия, процент, speed, математический анализ, уравнение .

The keywords: rate problems, work problem, progression, percentage, movement, rate, system of equations.

Masala deb ma'lum shartlarga ko'ra qo'yilgan savolga javob berishni talab etuvchi har qanday jumlagga aytiladi. Masalani yechish – bu masalada bevosita yoki bevosita mavjud bo'lgan sonlar, miqdorlar, munosabatlar ustida amallar va operatsiyalarning mantiqan to'g'ri ketma-ketligi orqali masalalarning talabini bajarish (uning savoliga javob berish) demakdir. Matnli masalalarni yechish bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi:

Masalani tahlil qilish;

Bu bosqichda masalaning sharti va talabi aniqlanadi. Masalani sxematik yozib olish; Bu bosqichda qonunlardan

foydalanib, berilgan va izlanayotgan kattaliklar orasidagi bog'lanishlar o'rganilishi natijasida tenglamaning tarkibiy qismlari aniqlanadi.

– Yechish usulini izlash (tenglama tuzish); Bu bosqich masala shartidagi ma'lumotlardan foydalanib izlanayotgan kattaliklarni topishga imkon beradigan tenglik yoziladi, ya'ni matematika tiliga aylantiriladi.

– Ma'qul topilgan biror usulda yechib chiqish; Bu bosqichda hosil bo'lgan algebraik tenglama yechiladi.

– Hosil bo'lgan yechimlarning masala shartlarini qanoatlantirishini sinab ko'rish;

– tekshirish (mazkur shartlar asosida masala yechimga ega yoki yechimga ega emasligi tekshiriladi);

Masala yechimining bayonini berish;

yechish usulini tahlil qilish (ratsional yoki umumiy yechish usuli bor-yo'qligi haqida xulosalar). Masala javobini ifodalash; bu bosqichda masala yechimining to'g'riligiga ishonch hosil qilingandan keyin, masalaning javobi matematika tilida aniqlanadi. Bu bosqichlar umumiy bo'lib, uning ba'zilar yechish jarayonida bajarilmasligi mumkin. Matematika fanini o'qitishda matnli masalalarni yechishning o'rni muhimdir. Bunday masalalarni yecha borib o'quvchilar matematik bilimlarni egallaydilar, amaliy faoliyatga tayyorlana boradilar. Masalalar ularning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantirishga imkon beradi. Shuning uchun o'quvchilarning matnli masala hamda, uning tuzilishi haqida chuqur tasavvurga ega bo'lishi va masalalarni turli usullar bilan yecha olish qobiliyatlariga ega bo'lishi muhimdir.



Matnli masala biror bir vaziyatning tabiiy tildagi ifodasi bo'lib, unda bu vaziyatning biror-bir komponentiga miqdoriy tavsifnoma berish, uning komponentlari orasidagi ba'zi munosabatlar bor-yo'qligini aniqlash yoki bu munosabat turini aniqlash talab etiladi. Bir masala bir necha usul bilan yechilsa, uni bajargan o'quvchi, unda qo'llanilayotgan turli faktlarning o'zaro aloqador ekanligini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ko'rilayotgan masalalar standart yoki nostandart bo'lishi mumkin. Standart masalalar deb, shunday masalalarga aytiladiki, ularning har birining yechish tartibi biror bir matematik qoida yoki tasdiqlar bilan aniq beriladi. Nostandart masalalarni bunday yechish yo'li, odatda, sun'iy usul (yoki "Evrik" qoida) deb ataladi.

Ilmiy fanlarda evrestik usul odatda ma'lum bir muammo bo'yicha eng yaxshi natijaga erishish uchun ishlatiladi. Evrestika Qadimgi Yunonistonda mavjud bo'lgan, ammo bu atamani matematik Jorj Polya o'zining "Qanday qilib hal qilish kerak" kitobida ommalashtirgan. Ushbu manbaada u evrestik usulni matematika o'quvchilariga va undan o'rganishni istaganlarning barchasiga tushuntiradi. O'z navbatida, faylasuf va matematik Lakato, evrestika bu ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin bo'lgan usullar yoki qoidalar to'plamidir, bu ularning qaysi biri muammoning yechimini topishi mumkin bo'lgan ideal harakatlar ekanligini ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, evrestik usul bu maqbul yoki

qoniqarli yechimni topish qiyin bo'lgan holatlarda muammoni topish va hal qilishda foydalanilayotgan usul va uslublar to'plamidir. Shu sababli, ilmiy fanlarda evrestik usul odatda mavlum bir muammo bo'yicha quyidagi tipdagi algebraik masalalarni yechishda tenglamalar tuzib yechish maqsadga muvofiqdir:

1. Progressiyaga doir masalalar;
2. Protsentga doir masalalar;
3. Harakatga doir masalalar.
4. Birgalikda bajariladigan ishga doir masalalar;
5. Aniqmas tenglama, tenglamalar sistemasi tuzib yechiladigan masalalar;
6. Natural sonlarga doir masalalar.

Masala: 20 kg li mis qotishmada mis 40% ni tashkil etadi. Unga necha kilogramm qo'rg'oshin qo'shilsa, qotishmaning 20% ini mis tashkil etadi?

Yechilishi:

x kg deb so'ralayotgan qo'rg'oshin miqdorini belgilasak $(20+x)$ kg qotishmaning 20% i mis bo'lishi talab qilinadi.

Unda $\frac{20+x}{100} \cdot 20$ kg mis bor.

Dastlabki 20 kg li qotishmaning 40% i mis edi, demak uning tarkibida $\frac{20}{100} \cdot 40$ kg mis bor.

Lekin hosil qilinishi kerak bo'lgan va berilgan qotishmadagi og'irlikda misning massasi bir xil bo'ladi.

Tenglama tuzamiz:

$$\frac{20+x}{100} \cdot 20 = \frac{20}{100} \cdot 40$$

$$\frac{20+x}{5} = \frac{40}{5}$$

$$20+x = 40$$

$$x = 40 - 20$$

$$x = 20$$

Demak, berilgan qotishmaga 20 kg qo'rg'oshin qo'shish kerak. [3:15]

Ushbu nazariy bilimlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, matematika darslarida matnli masalalarning ahamiyati katta hamda matnli masalalarni yechish metodikasi o'quvchilarning aniq fanlarni o'zlashtirishida muhimdir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilim va ko'nikmalariga qo'yilgan talablar barkamol avlod tarbiyasida katta ro'l o'ynaydi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'бири bilan aytganda: "Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muaffaqiyatli ishlab ketadi".

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev. Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. Jumayev M.E Matematika o'qitish metodikasi. (OO'Y uchun darslik) Toshkent. "Turon-Ikbol", 2016
3. Saxayev M.S. Elementar matematikadan masalalar to'plami. – Toshkent: "O'qituvchi", 1977
4. Umirbekov A.U. Shoabzalov Sh.Sh. Matematikani takrorlash – Toshkent: "O'qituvchi", 1989.

IQTISODIYOT

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

UO‘K: 332.1



**Dilshod
Xudayberganov**

Iqtisodiyot
fanlari doktori.



**Damir
Uzakbergenov**

QQXA instituti
o‘qituvchisi.



**Durdona
Urinova**

UrDU
o‘qituvchisi.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish mohiyati, uni Xorazm viloyati mintaqasi uchun keng taraqqiy qildirish zarurati hamda amalga oshirish yo‘nalishlari bilan bog‘liq imkoniyatlari yoritib berilgan.*

***Аннотация:** В статье описывается сущность устойчивого развития региональной экономики, необходимость его экстенсивного развития для региона Хорезмской области и возможности, связанные с направлениями реализации.*

***Annotation:** This article describes the essence of sustainable development of the regional economy, the need for its extensive development for the region of Khorezm region, and the opportunities related to the directions of implementation.*

***Kalit so‘zlar:** Iqtisodiyot tarmog‘i, barqaror rivojlanish, bozor munosabatlari, yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsuloti, iste‘mol tovarlari, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar, qurilish ishlari, chakana savdo tovar aylanmasi, xizmatlar, tashqi savdo aylanmasi, eksport, import.*

***Ключевые слова:** Экономическая сеть, устойчивое развитие, рыночные отношения, валовой региональный продукт, промышленная продукция, товары народного потребления, сельское, лесное и рыбное хозяйство, вложения в основной капитал, строительство, розничный товарооборот, услуги, внешнеторговый оборот, экспорт, импорт.*

***The keywords:** Economic network, sustainable development, market relations, gross regional product, industrial output, consumer goods, agriculture, forestry and fisheries, fixed capital investment, construction works, retail trade turnover, services, foreign trade turnover, export, import.*

Bugungi kunda respublikamizni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ayniqsa bu borada barqaror taraqqiy qildirish muhim yo'nalish bo'lib qaraladi. Bu



orqali respublikamiz mintaqalarida iqtisodiyot tarmoqlarini keng va samarali rivojlantirish mexanizmlari tashkil etadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'kidlaganidek: "Biz jonajon Vatanimizning xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta'minlashga har tomonlama qodirmiz. Tinch va osoyishta hayotimizni asrab, mustaqilligimizni mustahkamlab, barqaror taraqqiyot yo'limizni jadal davom ettiramiz" [1]. Shunday ekan, mamlakatning rivojlanishi barqaror taraqqiyot omili sifatida, ayniqsa, mintaqalarning iqtisodiyot tarmoqlarini, har bir muhim tarmoq tarkibini barqaror rivojlantirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Barqaror iqtisodiy rivojlanish barqaror iqtisodiyotni ifodalaydi. Barqaror iqtisodiyot bo'lishi uchun iqtisodiyot tarmoqlari o'z ichiga turli rivojlangan iqtisodiy tarmoqlarni, xususan sanoat, qishloq xojaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa tarmoqlar kiritilib, ushbu tarmoqni turli darajalarda rivojlantirish asosiy masala bo'lib hisoblanishi lozim. Barcha sanoat va qishloq xo'jalik, ishlab chiqarish, qurilish, transport, aloqa va madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadigan korxonalar va tashkilotlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin [2]:

- respublika;
- mintaqaviy;
- munitsipal.

Shunisi muhimki, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim jihatini yalpi ichki mahsulot (YIM) tashkil etadi hamda bu jihat ushbu ko'rsatkichning o'sishi bilan belgilanadi. YIM real hajmining o'sishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini umumlashtirgan holda aks ettiruvchi, aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini, turmush sifatini yaxshilash qobiliyatini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi [3].

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish bozor munosabatlarini samarali amalga oshirish orqali ham ta'minlanadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi

navbatda jamiyat hayotida, aniqrog‘i iqtisodiyotda barqarorlikka erishish omillari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi lozim. Shu bois, iqtisodiyotni moliyaviy ahvolini barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning muhim sharti bo‘lib xizmat qiladi. Hamda iqtisodiyot sohasi barqaror rivojlansagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o‘tishi mumkin. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish — bozorni shakllantirish yo‘lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir [4]. Zamonaviy bozor va iqtisodiyotni shakllantirish uchun ham barqaror rivojlantirishni ta‘minlash muhim masala bo‘lib qolishi lozim. Bu masala mintaqa miqyosida uni iqtisodiyotini samarali keng taraqqiy qildirishni o‘z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar. Xorazm viloyati mintaqasida barqaror rivojlantirish asosini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar holati tashkil etib, ularning natijalari bevosita ushbu ko‘rsatkichlar asosida statistik hisob-kitoblarni amalga oshirilishi tashkil etadi. Ushbu makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qatoriga yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsulotlari, iste‘mol tovarlari, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar, qurilish ishlari, chakana savdo tovar aylanmasi, xizmatlar, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import hajmi kabi ko‘rsatkichlar kiradi (1-jadval).

1-jadval. Xorazm viloyatining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari haqida ma‘lumot [5]

Ko‘rsatkichlar	Yillar						
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi hududiy mahsulot, mlrd. so‘m	10336,6	12008,1	15977,2	19241,1	21467,9	26900,3	31963,1
Sanoat mahsuloti, mlrd. so‘m	2802,7	4070,4	6457,2	8538,6	9615,9	13658,1	18325,8
Iste‘mol tovarlari, mlrd. so‘m	1671,2	2374,3	3904,7	5673,9	7745,8	8591,6	11466,1
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, mlrd. so‘m	7699,3	9351,3	12727,8	14447,6	16957,6	20327,9	24610,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so‘m	1560,5	2175,9	3013,8	5032,0	5391,8	8292,0	8806,6
Qurilish ishlari, mlrd. so‘m	1220,9	1375,8	1878,3	2496,8	2856,8	4228,5	4891,7
Chakana savdo tovar	3365,9	3948,5	5269,2	6915,5	8589,2	10539,8	13414,8

aylanmasi, <i>mlrd. so‘m</i>							
Xizmatlar, jami, <i>mlrd. so‘m</i>	3119,0	3645,5	4562,8	5763,3	6461,2	8325,8	10303,2
Tashqi savdo aylanmasi, <i>mln. AQSH dollari</i>	216,6	256,0	272,0	557,7	469,3	516,7	785,5
Eksport, <i>mln. AQSH dollari</i>	95,6	122,7	102,1	146,9	169,6	231,2	245,2
Import, <i>mln. AQSH dollari</i>	121,0	133,3	170,0	410,8	299,7	286,0	540,3

Ushbu jadval ma’lumotlari 2010-2021-yillar uchun aniqlik kiritilgan yoki qayta baholab chiqilgan ma’lumotlarni hisobga olgan holda aniqlangan. Barcha ko’rsatkichlar holati 2016-yildan 2022-yilgacha barqaror o’sish qiymatiga ega bo’lgan, Ya’ni, mazkur 1-jadval tahliliga ko’ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi 2016-yilda 10336,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo’lsa, 2022-yilda 31963,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan. Ushbu yillarda sanoat mahsuloti hajmi, 2802,7 mlrd. so‘m va 18325,8 mlrd. so‘mni, iste’mol tovarlari hajmi 1671,2 mlrd. so‘m va 11466,1 mlrd. so‘mni, qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi hajmi 7699,3 mlrd. so‘m va 24610,4 mlrd. so‘mni tashkil etgan hamda shu davrlarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 1560,5 mlrd. so‘m va 8806,6 mlrd. so‘mni, qurilish ishlari hajmi 1220,9 mlrd. so‘m va 4891,7 mlrd. so‘mni, chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 3365,9 mlrd. so‘m va 13414,8 mlrd. so‘mni, jami xizmatlar hajmi 3119,0 mlrd. so‘m va 10303,2 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Shular bilan birga, tashqi savdo aylanmasi hajmi 216,6 va 785,5 mln. AQSH dollarini, eksport hajmi 95,6 va 245,2 mln. AQSH dollarini, import hajmi 121,0 va 540,3 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Ushbu jadval ko’rsatkichlarning qiymatlari keltirilgan yillar miqyosida o’sish sur’atiga ham ega bo’lib, xususan, ushbu holat 2016-2022-yillarda o’zgarish dinamikasiga ega bo’lgan (2-jadval).

2-jadval. Xorazm viloyatining makroiqtisodiy ko’rsatkichlari o’sish sur’ati, foizda [5]

Ko’rsatkichlar	Yillar						
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Yalpi hududiy mahsulot	104,8	104,5	103,0	105,7	101,4	109,2	105,7
Sanoat mahsuloti	93,1	121,4	121,5	107,5	106,1	117,2	115,1
Iste’mol tovarlari	93,8	110,8	130,4	124,1	100,1	117,7	125,5
Qishloq, o’rmon va baliq xo’jaligi	106,9	101,5	98,1	104,1	102,4	103,4	103,4
Asosiy kapitalga investitsiyalar	97,8	128,5	111,7	150,7	92,7	139,3	94,5
Qurilish ishlari	101,8	108,2	114,0	119,3	97,4	130,9	102,1

Chakana savdo tovar aylanmasi	114,0	100,7	110,7	114,5	109,7	109,8	112,6
Xizmatlar, jami	115,9	108,2	110,1	113,4	101,5	118,9	114,6
Tashqi savdo aylanmasi	102,5	118,2	106,3	205,0	84,1	110,2	151,9
Eksport	85,8	128,4	83,2	143,9	115,4	136,4	106,0
Import	121,1	110,1	127,6	241,7	73,0	95,4	188,9

Ushbu jadval tahliliga ko‘ra, 2022-yilda yalpi hududiy mahsulot hajmi 105,7 foizga, sanoat mahsuloti hajmi 115,1 foizga, iste‘mol tovarlari hajmi 125,5 foizga, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hajmi 103,4 foizga, asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 94,5 foizga, qurilish ishlari hajmi 102,1 foizga, chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 112,6 foizga, jami xizmatlar hajmi 114,6 foizga, tashqi savdo aylanmasi hajmi 151,9 foizga, eksport hajmi 106,0 foizga, import hajmi 188,9 foizga teng bo‘lgan. Biroq ushbu ko‘rsatkichlardan qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar, chakana savdo tovar aylanmasi hamda jami xizmatlar kabi ko‘rsatkichlarning 2022-yildan 2016-yilga nisbatan pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Xulosa va takliflar. Xorazm viloyati mintaqasi iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish iqtisodiyotning keng taraqqiy qildirishga qaratilgan. Mintaqaning iqtisodiy barqarorligini ifodalovchi jami 11 ta ko‘rsatkich (yalpi hududiy mahsulot, sanoat mahsuloti, iste‘mol tovarlari, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar, qurilish ishlari, chakana savdo tovar aylanmasi, xizmatlar, tashqi savdo aylanmasi, eksport va import) holati uning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatini belgilaydi. Ushbu imkoniyatlarni hisobga olib, mintaqada barqaror iqtisodiy rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun puxta o‘ylangan rejalar orqali aniq maqsadli dasturlarni amalga oshirish, har bir iqtisodiy tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan samarali moliyalashtirish siyosatini olib borish, iqtisodiy, raqobat va tadbirkorlik muhitlarini yanada keng taraqqiy qildirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil 20-dekabr. // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
2. Berkinov A.A., Ashurova D.S., Abdullayev I.E. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash. O‘quv qo‘llanma. — O‘.: TDIU, 2010. — 20 b.
3. Abdullayev S.A., Xajiyev B.D., Mambetjanov Q.Q. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. Darslik. — O‘.: “Barkamol fayz media”, 2018. — 106 b
4. Mamaraximov B.E., Abdullayeva M.K. Ijtimoiy iqtisodiyot va davlat siyosati. O‘quv qo‘llanma. — T.: Innovatsion rivojlanish nashriyat-matbaa uyi, 2022. — 13 b.
5. <https://xorazmstat.uz/uz/rasmiy-statistika/release-calendar-2>

IQTISODIYOT**O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY IQTISODIY NAZARIYALAR
RIVOJLANISHINING AMALIY AHAMIYATI**

**Gulmira
Matrizayeva**

**Urganch
davlat
universiteti
talabasi.**



UO‘K 339.1

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda zamonaviy iqtisodiy nazariyalar rivojlanishi xususiyatlari, imkoniyatlari, amaliy ahamiyati va yo‘nalishlari yoritilib, ularni amalga oshirish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Аннотация: В статье освещаются особенности, возможности, практическое значение и направления развития современных экономических теорий в Узбекистане, и делается вывод об их реализации.

Annotation: This article highlights the features, possibilities, practical importance and directions of the development of modern economic theories in Uzbekistan, and concludes on their implementation.

Kalit so‘zlar: Ilm-fan, nazariya, iqtisodiy nazariya, konsepsiya, zamonaviy iqtisodiy nazariya, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot.

Ключевые слова: Наука, теория, экономическая теория, концепция, современная экономическая теория, микроэкономика, макроэкономика.

The Keywords: Science, theory, economic theory, concept, modern economic theory, microeconomics, macroeconomics.

Ilm-fanning muhim tushunchalaridan biri nazariya hisoblanadi. Nazariya olimlar tomonidan to‘plangan g‘oyalar asosida shakllangan bilimlar majmuasi sifatida qaraladi. Nazariya ham usul orqali namoyon bo‘ladi. Ya’ni, nazariyada tasodifiy yoki juz’iy emas, aniqrog‘i doimo takrorlanib turadigan iqtisodiy hodisalarni bilish uchun abstraksiyalash usuli qo‘llaniladi hamda asosiy mezon bo‘lib hisoblanadi. Nazariya turli sohalarga nisbatan qo‘llanilib, ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan g‘oyalarning to‘planishiga xizmat qiladi. Jumladan, bugungi kungacha iqtisodiyot sohasida nazariyalar mavjud bo‘lib, bu jamiyatning sohasi va iqtisodchi-kadrlar uchun boshlang‘ich muhim fan hisoblangan iqtisodiyot nazariyasi yoki iqtisodiy nazariyani shakllanishiga sabab bo‘lgan. Ya’ni, iqtisodiy nazariya – jamiyat hozirgi va kelajakdagi iste’mol uchun tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni ta’minlash orqali muqobil ravishda foydalaniladigan cheklangan resurslarni joylashtirishni tanlashini o‘rganadigan ijtimoiy fandır.

Iqtisodiy nazariya ma'lum qoidalar asosida shakllanadi va rivojlanadi. Jumladan, iqtisodiy nazariyani ta'rifi resurslarni cheklanganligi va ulardan jamiyat tomonidan samarali foydalanish zarurati kabi asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi. Iqtisodiy nazariyaning asosini iqtisodiy samadorlikni oshirish yuzasidan to'plangan g'oyalar va qarashlar ham tashkil etib, bu yerda samaradorlik resurslar yo'qolishi va ulardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Unga xarajatlar qilish bilan maksimal natijaga erishiladi. Agar natija berilgan bo'lsa, unda unga eng kam xarajat bilan erishish lozim.



Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, O'zbekistonda turli nazariyalar bo'yicha olimlarning tadqiqotlari asosida zamonaviy iqtisodiy nazariyalar shakllanib, uning rivojlanishi amaliy ahamiyat kasb etib bormoqda. Chunki, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat barpo etish maqsad qilib qo'yildi. Bu borada ta'kidlanganidek, "Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat" [1]. Bu borada bozor iqtisodiyotiga o'tishning jahon miqyosidagi tarixiy tajribalari o'rganilib, bozor iqtisodiyotiga o'tish konsepsiyasi yaratildi. Ushbu konsepsiya O'zbekistonning mavjud shart-sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo qilish asosiy maqsadga aylanib, bu borada yangi demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, iqtisodiyotda kundan-kunga yangi yo'nalish va

sohalar yaratilmoqda. Odamlarimiz ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot yo'nalishlarida aniq-aniq masalalarni ko'tarib, ular bo'yicha tizimli yechimlarni ham taklif etmoqda [2]. Shular qatorida, masalan, iqtisodchilar tomonidan energetika sohasida erkin bozorga o'tish taklif qilinmoqda. Mazkur holatlar davlat tomonidan e'tiborga olinib, istiqbolli chora-tadbirlarga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, davlat tomonidan iqtisodiy nazariyaning mavjud qoidalari asosida iqtisodiy siyosat yuritiladi. Bu borada ichki iqtisodiyotni rivojlantirish va unda bo'lishi mumkin chuqur inqirozli holatlarni oldini olish muhim ustuvor vazifadir. Bunda iqtisodiy nazariyaning amaliy vazifasi iqtisodiyot tarmoqlarini inqirozdan chiqishning optimal yo'llarini izlab topish va ijtimoiy bozor iqtisodiyotiga o'tishning maqbul yo'nalishlarini asoslash bilan belgilanadi. Ya'ni, ushbu yo'nalish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy mexanizmning ta'sirini kuchaytirish, mulkchilik shakllarini muvozanatlash vositalarini ishlab chiqish va uni yangi tashkiliy-iqtisodiy shakllarni izlab topish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.



Shuningdek, zamonaviy iqtisodiy nazariyaning tatbig'i orqali jahon rivojlanish tajribasi o'rganilib, ular ichidan eng ilg'or iqtisodiy shakllar ajratib olinadi. Iqtisodiy nazariya iqtisodiy siyosatning konseptual asosi sifatida unda amaliy faoliyat sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlar harakatlarini rag'batlantiriladi. Iqtisodiy nazariya iqtisodiy fikrlash va insonning oqilona iqtisodiy xulq-atvorini shakllantirishda ham ahamiyatli bo'lib, bu orqali iqtisodiy fikrlashni shakllanadi hamda natijada foyda va xarajatlar hajmi hisobga olinib, oqilona xulq-atvor ta'minlanadi va iqtisodiy faoliyat samaradorligi oshiriladi.

Bugungi kunda respublikamizda mavjud zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning turli yo'nalishlari, ya'ni neoklassik, neoliberal, neokeynsian, neoinstitutsional va neomarksistik kabilar hisobga olinib, ilm-fan sohasida

yangiliklarni yaratishga erishilmoqda. Bevosita ushbu yo‘nalishlar umumiy konseptual yondashuvlar sifatida iqtisodiy muammolarni tahlil qilish usullaridan foydalanish va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shunisi muhimki, zamonaviy iqtisodiy nazariyani amaliy yo‘nalishi iqtisodiyot sohasini turli qismlarga ajratilishi bilan bog‘liq. Iqtisodiyot tarkibi asosan mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot sohalarga bo‘linadi. Shularga asosan, ular tarkibida mikro, makro, mezo va megaiqtisodiyot shakllari ajratib o‘rganiladi.

- mikroiqtisodiyot asosida iqtisodiy birliklar xatti-harakatlari va ular maqsadlarini muvofiqlashtirish mexanizmini o‘rganish muhim bo‘lib sanaladi. Mikroiqtisodiyot o‘z ichiga quyidagi alohida iqtisodiy subyektlar faoliyatini oladi [3]: xo‘jalik yurituvchi subyekt – iste‘molchilar, ishchilar, kapital yegalari, zamindorlar, firmalar va hokazo, alohida bozorlar – ishlab chiqarish vositalari bozori, ishchi kuchi bozori, iste‘mol mollari bozori va hokazo, alohida tarmoqlar – sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va hokazo;

- makroiqtisodiyot mintaqaviy va milliy darajalarga xos bo‘lgan iqtisodiy omil, jarayon va hodisalar majmuini o‘z ichiga oladi;

- mezoiqtisodiyot milliy iqtisodiyotning mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o‘rtasidagi oraliq quyi tizimlari mazmunini aks ettirib, ularga agrosanoat, mudofaa-sanoat komplekslari va infratuzilma tarmoqlari kiradi;

- megaiqtisodiyot ushbu masalalarni davlatlararo (kamida ikki va undan ko‘p davlatlar miqyosida) darajada o‘rganadi.

Umuman olganda, mamlakatimizda zamonaviy iqtisodiy nazariyaning asosiy yo‘nalishlari va xususiyatlari amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, ular bugungacha ma‘lum bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlarning mavjudligini asoslaydi hamda ularni takomillashtirish zarurligini taqozo qiladi, shuningdek ilmiy qarashlar uzluksizligi va talablarga mos keladigan, iqtisodiy ehtiyojlariga mos yangi ilmiy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarni ko‘rsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2022-yil 22-dekabr. Manba: <https://review.uz/oz/post/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-2023-yil-uchun-murojaatnomasi-toliq-matn>
2. Babakulov B.M., Yuldashev K.Sh., Sharifov Sh.S. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 122-123 b.
3. G‘afurov U.V., Mamarahimov B.E., Sharipov Q.B., Otaboyev F.O. Zamonaviy iqtisodiy nazariyalar. — T.: “IQTISODIYOT”, 2019. – 9 b.

SAN'ATSHUNOSLIK**“CHANGAK LAZGI” HAQIDA MULOHAZA****UO‘K 570.15**

**Atabek
SAPARBAYEV**

O‘zbekiston
davlat
xoreografiya
akademiyasi
Urganch filiali
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada nomoddiy-madaniy merosimiz bo‘lgan “Lazgi” raqsining tarixi yoritilgan. Shuningdek “Changak lazgi” raqsining tarixi, ijro uslubi hamda bugungi kundagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация: В статье рассматривается научная литература по истории танца «Лазги», являющегося нашим нематериальным культурным наследием, а также история, стиль исполнения и значение танца «Чангак Лазги» в наши дни.

Annotation: The article discusses the scientific literature on the history of the “Lazgi” dance, which is our intangible cultural heritage, and the history, performance style, and importance of the “Changak Lazgi” dance today.

Kalit so‘zlar: Tarix, “Avesto”, Xorazm, “Lazgi” raqsi, “Changak lazgi”, ijrochi, uslub.

Ключевые слова: История, «Авеста», Хорезм, танец «Лазги», «Чангак лазги», исполнитель, стиль.

The keywords: History, “Avesta”, Khorezm, “Lazgi” dance, “Changak Lazgi”, performer, style.



**Bobur
SHAHANOV**

O‘zbekiston
davlat
xoreografiya
akademiyasi
Urganch filiali
“Lazgi” bo‘limi
boshlig‘i

Raqs san’ati qadimdan inson bilan birga yashab, avloddan-avlodga necha asrlardan buyon zavq-u shavq ulashib, butun insoniyatni o‘zining sehriga tortib, jamiyatlar o‘rtasidagi do‘stlikni birlashtirib kelgan. U hozirgi davrda san’at sohasida ta’lim ko‘rgan raqqos va raqqosalardan, alohida ijroni talab etuvchi katta raqs tizimiga aylandi. Ma’lumki, “Lazgi” raqsi o‘zbek raqs san’atining katta o‘yinlari jumlasiga kiradi. Xorazm raqs san’atining ko‘rki, gultoji bo‘lgan “Lazgi” raqsi qadimdan davom etib kelayotgan ijro harakatlari uslubini o‘zida saqlab kelmoqda. U ijrochilarning qomatlarini qay holatda tutishlari, chalingan kuy va musiqaning ichiga darhol kirib yashashi, yuz, ko‘z, qosh, iyaklar harakati alohida musiqaga mos ritmlarni, yelkalarining titrama birin-ketin beixtiyor o‘ziga xos mazmunli harakatlar ixtiro etishi bilan murakkablik kasb etadi. Bu murakkablikni ayniqsa, barmoqlar va panjalarning ko‘p sirli harakatlarni bajarishida, oyoq harakatlari ham hech bir xalqning ijro

uslubiga o‘xshamasligi bilan ajralib turishida ko‘rishimiz mumkin.

“Lazgi raqsining payda bo‘lish tarixi haqidagi ilk ma‘lumotlarni Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”, buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari va Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” asarlari orqali shuningdek, tarixchi, etnograf, arxeolog olim, Xorazm sivilizatsiyasining kashfiyotchisi S.P.Tolstovning “Qadimgi Xorazm”, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” kitoblaridan bilib olishimiz mumkin.”[1]



Keyingi yillarda san‘atshunoslik, xususan raqs san‘ati sohasida qilingan ilmiy izlanishlar natijasida “Lazgi” raqsining amaliy jihatlari bilan bir qatorda nazariy jihatlari ham tadqiq qilinib kelinmoqda. “O‘zbekiston xalq artisti, Xorazm raqs san‘ati tadqiqotchisi, faxriy professor Gavhar Matyoqubovanning say-harakatlari tufayli bu latif san‘at turning to‘qqiz xil turi dunyo xalqlariga yetkazildi. Quyida biz Xorazm xalqining urf-odat va marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan “Changak” lazgi raqsining tarixi, ijro uslubi va bugungi kundagi ahamiyati haqida ma‘lumotlar bermoqchimiz.”[2]

“Changak” lazgi raqsining paydo bo‘lishi Xorazm viloyatining olis qishloqlaridan biri bo‘lgan Oqdarband qishlog‘i (Qo‘shko‘pir tumanida) aholisi bilan bog‘liq. O‘zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubovanning bergan ma‘lumotlariga qaraganda, Xiva xoni Olloqulixon zamonida Xorazm bilan Eron o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushlarda Eronning Jomli, Mashhad, Oqdarband qal‘alari zabt etiladi, aholisi asir qilib olib kelinadi. Ular xonlikning janubi-g‘arbiy tomoniga joylashtirilgan. Qo‘riq yerlarni o‘zlashtirib, dehqonchilik qilishlari uchun xon ularga sharoit yaratib, katta kanal qazdirib, suv chiqarib bergan. 1873-yili asirlar ozod etilib, o‘z yurtiga qaytishga ruxsat berilgan. Eron hukumatiga o‘z fuqarolarini qabul qilish uchun noma yozib yuborilgan. O‘shanda 11 ming 500 nafar tutqun o‘z yurtlariga jo‘nab ketgan. 22 ming 500 nafar asir bo‘lsa o‘z ixtiyori

bilan xonlikda qolgan. Hozirgi davrga kelib, ularning ko‘pchiligi yerli xalq bilan aralashib ketgan va o‘z ona tili, urf-odatlarini unutib yuborgan. Faqat Qo‘shko‘pir tumanining Oqdarband qishlog‘idagi aholining malum qismini eroniylar tashkil qiladi. Ular hamon o‘z milliy urf-odatini, tilini yo‘qotmasdan kelmoqda. Ma‘lumki, eroniylar shia mazhabiga mansub. Shialar har yili muharram oyining o‘ninchi kuni “Ashuro” bayramini nishonlashadi. Avvallari “Ashuro” bayramida ko‘chalarda motam yurishlari o‘tkazilgan va bu yurishlarda ularning qatnashuvchilari ko‘pincha o‘zlarini o‘zlari urar, gohida o‘ziga xanjar urib qon chiqarar ekanlar. Bu marosim xorazmlik eroniylar tomonidan ham yashirincha



nishonlangan. Keyinchalik ular yerli xalq bilan chatishib, qon-qarindosh bo‘lib ketgani sababli, bu marosim barham topib ketdi. Uning ta‘siri faqat san‘atda qolgan. Yillar o‘tishi bilan ozchilik bo‘lgan eroniylarga ko‘pchilik bo‘lgan yerli xalqning urf-odatlari, madaniyati va san‘ati o‘z ta‘sirini o‘tkazgan. Natijada, Eron xalqining urf-odati va milliy raqslari ta‘sirida yangicha uslubda “Eroniylar lazgisi”, ya‘ni “Changak lazgi”si paydo bo‘lgan.

“Changak lazgi” raqsini qadimdan ekraklar ijro qilgan. Bu raqsning ijrosida avval “lazgi” kuyi chalinadi. Raqqos shaxdam qadamlar bilan davraga yugurib chiqadi va qo‘llarini kuyga mos holda havoda silkitib davrani aylanib, markaziga kelganda birdan harakatdan to‘xtab qotib qoladi. Kuyning nolasiga monand raqqosning qo‘llari 2-3 takt davomida qotib turaveradi. Musiqa ijrosi bilan asta-sekin oldin barmoqlar, panjalar so‘ng yelkalar va raqqos tanasining barcha qismi harakatga kela boshlaydi. Bu raqsning nomlanishiga monand raqqos asta-sekin qo‘llarini bukib, xuddi changakdek qayiradi. Raqqos changak qilib qayirgan qo‘liga qarab tebrana boshlaydi. Changak bo‘lgan qo‘llar asta tushib, gavda

changak bo‘la boshlaydi. Raqqos xuddi azon aytayotgandek, o‘ng qo‘lini qulog‘iga tekkizib, chap qo‘lini yana changak qiladi. Shu holda raqqosning oyoqlari harakatga kelib, qimirlay boshlaydi. Avvaliga ikkala oyoqni ham harakatga keltiradi, keyin bir oyog‘ini changak qilib, bir oyog‘ini yerga ozgina teqqizib, turgan joyida bir oyoqlab aylanadi. Tizzasini ozgina bukib, birdan yana harakatdan to‘xtab qotadi. Keyin musiqaga hamohang holda o‘ng qo‘lini qarsillatib, chap qo‘li bilan o‘ng yelkalariga uradi. Bu harakatni qo‘llarning o‘rnini almashtirgan holda takrorlaydi. So‘ngra raqqos tanasining yarmi (beldan yuqorisi) qotgan holda goh o‘ng tomonga, goh chap tomonga, oyoq tinch turgan holda chayqala boshlaydi. Keyin o‘tirgan holatda tizzalarini yerga tekkizib-tekkizmay xuddi charxpalakdek aylanadi. Raqqos butun vujudi bilan changak bo‘la boshlaydi. Qo‘llarini samoga ko‘tarib qarsillatib, epchil, yengil harakatlar bilan tezlashib tizzasini yerga tekkizib olib yana qotib qoladi. Kiyin oyoqlar changak bo‘ladi, qo‘llar birin-ketin yelka, bosh, ko‘krakka ura boshlaydi.

Bu harakatlar ikki xalqning madaniyati va san‘ati aralashuvi natijasida paydo bo‘lgan “Changak lazgi”sining asosiy elementlaridir. “Changak lazgi”sining boshqa lazgilarga qaraganda farqli tarafi shundaki, bu raqs ijrosida ijrochi qotma holatga ko‘proq kirishi, qo‘l va oyoqlarini changakdek egiluvchan holatga olib kelib turli harakatlarni bajarishidadir. Bu harakatlarni bajarayotganda raqqosning qo‘llari va oyoqlari qotadi, ammo harakat bajarayotganda gavda egiluvchan bo‘lib, tana bo‘shashib sehrli va jozibali raqs harakatlarini ifodalaydi, tomoshabinlarga zavq bag‘ishlaydi.

Bugungi kunda “Changak lazgi” xalqimiz orasida bayramlarda, to‘y-tomoshalarda, bazmlarda san‘at ixlosmandlari va qiziquvchilar tomonidan ijro etilib, insonlarning ichki bir emotsiyalarni jilolashda, madaniy va jismoniy hordiq olishda asosiy raqslardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Qilichev “Xorazm xalq teatri” Toshkent – 1988-yil. G’.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. G.Matyoqubova, Ofatijon “Lazgi”. Toshkent – 1993-yil. Adabiyot va san‘at nashriyoti.

SAN'ATSHUNOSLIK**“LAZGI” ANSAMBLI TARIX VA BUGUN****UO‘K 570.15**

**Atabek
SAPARBAYEV**

O‘zbekiston davlat
xoreografiya
akademiyasi Urganch
filiali katta
o‘qituvchisi



**Shahnoza
SAMANDAROVA**

O‘zbekiston davlat
xoreografiya
akademiyasi Urganch
filiali katta ilmiy
xodimi

Annotatsiya: Mazkur maqola Xorazmda “Lazgi” ansamblining tashkil topishi tarixi, uning o‘zbek musiqa madaniyatida tutgan o‘rni va XX asrning ikkinchi yarmidagi faoliyatiga bag‘ishlanadi. Ansamblning turli mamlakatlar bo‘ylab konsert safarlari hamda uning tarkibida xizmat ko‘rsatgan ijrochi va xonandalar xususida fikr yuritiladi.

Аннотация: Данная статья посвящена истории создания ансамбля «Лазги» в Хорезме, его месту в узбекской музыкальной культуре, деятельности во второй половине XX века. Обсуждаются гастроли ансамбля по разным странам и исполнители и певцы, служившие в его составе.

Annotation: This article is devoted to the history of the creation of the "Lazgi" ensemble in Khorezm, its place in the Uzbek musical culture, and its activities in the second half of the 20th century. The concert tours of the ensemble in different countries and the performers and singers who served in its composition are discussed.

Kalit so‘zlar: Xorazm vohasi, “Lazgi” ansambli, san’at, musiqa truppalari, “Lazgi” raqsi, konsert.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, ансамбль «Лазги», искусство, музыкальные коллективы, танец «Лазги», концерт.

The keywords: Khorezm oasis, "Lazgi" ensemble, art, music troupes, "Lazgi" dance, concert.

Xorazm bir necha ming yilliklarga borib tutashdigan ko‘hna madaniyat, serqirra san’at makonidir. Uning xalq raqs san’ati negizida va ularga bo‘lgan ijodiy “munosabatlar samarasida rivojlanib, muayyan qonun-qoidalariga asoslangan raqs namunalari yuzaga kelgan.”[1] Milliy ma’naviyatni asrashning muhim omillaridan biri ajdodlardan qolgan madaniy merosni chuqur o‘zlashtirish va ommalashtirishdan iborat. 1957-yilda Xorazm vohasida bir qancha truppalar mavjud bo‘lgan. Xorazm raqs maktabi asoschilaridan biri

Gavhar Rahimovaga Xorazmdan bir qancha san'atkorlar, hofizlar, raqqos va raqqosalarni to'plab poytaxtga olib kelish haqida topshiriq bo'lgan. Ko'plab



mashaqqatlar evaziga moddiy ahvol yaxshi emasligiga qaramasdan bu ishni qilish shart bo'lgan. Avvalo, Xorazmda barcha san'atkorlarni to'plab, ularni tinglab ko'rish uchun ancha vaqt sarf qilinadi. Nihoyat ularni saralab, bir yuz ellikka yaqin san'atkorlar truppasini Gavhar Rahimova tomonidan poytaxtga olib kelishga muvaffaq bo'lingan. Poytaxtda bir necha kun tayyorlanib, Moskvada bo'lib o'tadigan oltinchi jahon festivaliga jo'nab ketishgan. Festival qatnashchilari orasida Otamurod Hojiyev, Gulsara Yoqubova, Maryam Karimova, Bekajon Hayitova singari ko'plab san'atkorlar bo'lishgan. Festival natijalariga ko'ra Otamurod Hojiyev oltin, Gulsara Yoqubova va Mariyam Karimova kumush medal sohiblari bo'lishgan. Toshkentga qaytishgandan

so'ng bir qancha san'atkorlar Xorazmga qaytib ketishgan. Bir qancha san'atkorlar esa poytaxtda qolishgan. Ular bilan Toshkent shahrida "Ashula va raqs" ansambli tashkil etilgan. Shu davrda Gavhar Rahimova Xorazmda 1957-1958-yillar orasida bir qancha truppalarni tashkil etib, mehnat faoliyatini davom ettirgan. 1958-yil poytaxtga qaytib "Ashula va raqs" ansamblini boshqarishni xalqimiz orasida ma'lum va mashhur bo'lgan Komiljon Otaniyozovga topshiradi. Bu jarayonlarda, ansambllar tashkil etish, ularga yaxshi mutaxassislarini saralash kabi mashaqqatli ishlarda Gavhar Rahimovaning yonida hamnafas, yordamchi bo'lgan Tursunboy G'iyosovni e'tirof etishimiz lozim. Chunki barcha og'ir mehnat uning zimmasida bo'lgan. O'sha davrda filarmoniya qoshida musiqa bo'limi faoliyat yuritgan bo'lib, Quvondiq Iskandarov, Olmaxon Hayitova, Faxriddin Umarov va bir qancha raqqosalar-u san'atkorlar filarmoniya musiqa bo'limida faoliyat ko'rsatishgan. Komiljon Otaniyozov ikki yillik ansambl rahbarligi faoliyatidan so'ng Xorazmga qaytib ketadi. "1968-yili Gavhar Rahimova boshchiligida Davlat tasarrufida "Lazgi" ansambli tashkil etilib, Gavhar Rahimova shu ansamblning badiiy rahbari etib tayillangan." [2] "Ufori soxta", "O'zbekiston go'zallari", "Jayhun misoli", "Lazgi", "Ko'zim qarog'i", "Lazgi salomi" va boshqa jozibali

raqslarni sahnalashtirgan. “Lazgi” ansambli bilan Marokash, Tunis, Belgiya va Yevropa mamlakatlarga gastrollar uyushtirib, o‘zbek raqs san’atining durdonalarini xorijiy mamlakatlarda ham namoyish etib olqishga sazovor bo‘lishgan. Gavhar Rahimova 1982-yildan boshlab “Lazgi” ansamblida ish faoliyatini to‘xtatib nafaqaga chiqadi. “Lazgi” ansambliga elimizning sevimli san’atkori, xushovoz xonanda Ortiq Otajonov rahbarlik qila boshlaydi. Ravshanoy Sharipova “Lazgi” ansambliga bosh baletmeyster etib tayinlanadi. “Shu paytlarda men ham baletmeyster bo‘lganman, deydi suhbatda



O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist G‘iyosova Zita opa. Zita opa, nega sizning ikkita ismingiz bor? So‘rasang, -men 1949-yilda Qo‘qonda tug‘ilganman.

1947-1948-yillarda nemislar bilan urush tugagan paytlarda troveyniy kinochilar kelgan. Ularning ichida Hindiston filmida raqqosa bo‘lib suratga tushgan Zita bo‘lgan. Xolam o‘sha Zitaga taqqoslab ismimni Zita qo‘ygandilar. Lekin

dadam guvohnoma olishga borganda Zuhra deb qo‘ygan. Mening ismim Zuhraligini birinchi sinfda bilganman. “Lazgi” ansamblida dugonam Gulsara Yoqubova ishlar edi. Meni ham ilk bor ansamblga u taklif qilgan. Ustozim – turmush o‘rtog‘im Tursunboy G‘iyosov bo‘lgan. “Lazgi” ansambli bilan juda ko‘p chet el safarlariga borardik. Raqsga tushishni yaxshi ko‘rardim. Ikki yillik mehnat faoliyatidan so‘ng Ortiq Otajonov ansambl rahbarligini Xorazmning yana bir zabardast hofizi Rahmatjon Qurbonovga topshirdi. Rahmatjon Qurbonov o‘ta talabchan, odamlarga mehribon, raqs san’atini hurmat qiladigan yosh rahbar edi. Shu davrda Xorazmda bo‘lib o‘tgan bir katta konsertda, rahbariyat tomonidan Komiljon Otaniyozov nomidagi “Lazgi” ansambli maqomi berildi. 1986-yili men raqqosa sifatida nafaqaga chiqdim va shu vaqtda Ravshanoy Sharipova “Bahor” ansamblidan ketdi, men esa bosh baletmeyster bo‘lib ishimni davom ettirdim.

“Lazgi” ansambli raqqosalari bir-biridan chiroyli raqslar qo‘yib Belgiya, Koreya, Moskvada gastrol safarlarida bo‘lganmiz. Ansamblimizda Zamira G‘afforova, Feruza Solihova, Elgiza Zaripova, Nigora Jumaniyozova, Dilnoza Otaqulovalar kabi iste’dodli mohir raqqosalar ishlagan. 1996-yili biz

Samarqandda Sohibquron Amir Temurning 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda qatnashib taniqli rejissor Bahodir Yo'ldoshev bilan ishlaganmiz. O'shanda rahbarlarimizdan biri Bahodir Yo'ldoshev va Yulduz Ismatovalardan Davlat mukofotiga kimlar sazovor bo'lishi haqida so'rashgan. Yulduz Ismatova meni tavsiya qilgan va men "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvonini oldim. 1997-yilda "O'zbekraqs" tashkil qilingan va "Bahor", "Tanovor", "Yetti go'zal", "Zarafshon" va "Lazgi" ansambllarini birlashtirilib "O'zbekraqs" tasarrufiga qo'shilgan. San'at fidoyilardan tashkil topgan ushbu ansambl chet eldan kelgan mehmonlarga "Lazgi" ansambli repertuaridan "Ufori navo", "Qora dali" xalq kuyi bo'lgan "To'y" sahnasi, "Namangancha raqs", Feruza Solihova ijrosida "Surnay lazgisi", Zamira G'afforova ijrosida "Cho'girma", "Qovun" raqsini Feruza Muhamedova chol bo'lib ijro qilardi. Feruza Muhamedova qo'g'irchoq bilan ijro qilgan "Oxov polvon-Moxov polvon" raqsini juda katta olqishlar bilan kutib olishgan edi. Keyinchalik chet el safarlariga borganimizda iste'dodli raqqos Erkin Qahhorov men o'rgatgan "Oxov polvon-Moxov polvon" raqsini mahorat bilan ijro etgan edi. "O'zbekraqs" tugatilgandan so'ng "Lazgi" ansambli bir muddat Toshkent shahar Ko'zi ojizlar jamiyati binosida kichik bir xonani ijaraga olib, ish faoliyatini davom ettirdi. Xodimlar soni kamayib ketganiga qaramasdan mashaqqatli mehnatdan charchamasdik. Gulibonu xususiy markazi say-harakatlari, yordami bilan "Lazgi" ansambli yilda bir marta chet el festivallariga borib kelar edi. Bora-bora ansambl yo'q bo'lish darajasiga borib



qolgan edi. Ammo "Lazgi" ansambli faoliyatida 2015-yil 5-yanvardan yangi bosqich boshlandi. Hukumat qarori bilan "Lazgi" ashula va raqs ansambli qaytadan tashkil qilindi. Ansamblga O'zbekiston xalq artisti Og'abek Sobirov badiiy rahbar, Xorazm raqs ustalaridan biri, mahoratli pedagog Shonazar Botirov bosh baletmeyster etib tayinlandi. Bugungi kunga qadar "Lazgi" ansambli bir qator

hukumat tadbirlari, gastrol safarlari va konsert dasturlarida qatnashib kelmoqda. Ansamblning yangi dasturidagi ilk konsertida Xurshid Sobirov, Anvar Sobirov,

Zafar Qurbonboyev va Og‘abek Sobirovlar ishtirok etishdi. Hozirgi kunda ansamblda Og‘abek Sobirov, Feruzbek Normetov, Anvar Sobirov, Xurshid Sobirov, “Nihol” Davlat mukofoti sovrindorlari Rohila Ro‘zimova, Dilfuza Qobilova va boshqa iste‘dodli san‘atkorlar faoliyat ko‘rsatib kelmoqdalar. Raqs jamoasida 10 nafar raqqosa va 10 nafar raqqos faoliyat olib bormoqda. “Lazgi” ansambli repertuari juda ham boy va rang-barang bo‘lib, shu kungacha mahoratli baletmeysterlar tomonidan 100 dan ortiq raqslar sahnalashtirildi. “Gusfand”, “Orazibon”, “Norim-norim”, “Ushlini uforisi”, “Xorazm Lazgisi”, “Qayroq Lazgi”, “Dutor Lazgi”, “Masxaraboz Lazgi”, “Garmon Lazgi” va “Yallali raqs” hamda boshqa milliy va zamonaviy raqslar shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda Dilnoza Otaqulova bilan raqslar qo‘yib ijoddan to‘xtamadik, ish qizg‘in. ”Lazgi” ashula va raqs ansambli Mustaqillik va Navro‘z umumxalq bayramlari va barcha davlat tadbirlarida faol ishtirok etib kelmoqda[3].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Qilichev. Xorazm xalq teatri.- Toshkent – G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1988
2. G.Matyoqubova, Ofatijon Lazgi. Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent – 1993
3. Z.G‘iyosovadan yozib olingan xotiralar.

SAN'ATSHUNOSLIK**ISTE'DOD YOXUD “YETMISH BESHGA KIRGAN
O'N BESH YASHAR QIZ”**

**Aynura
UMRZAQOVA**

**Urganch davlat
universiteti
pedagogika fakulteti
talabasi**

UO'K 570.20

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek xalqining sevimli san'atkori Guloro Rahimovaning hayoti va ijodiy faoliyati yoritib beriladi.*

***Аннотация:** В статье освещена жизнь и творчество любимой искусственнице узбекского народа Гулоро Рахимовой.*

***Annotation:** In this article, the life and creative work of Guloro Rahimova, the favorite artist of the Uzbek people, will be covered.*

***Kalit so'zlar:** Teatr, san'at, mahorat, rol ijrosi.*

***Ключевые слова:** Театр, искусство, мастерство, актерское мастерство.*

***The keywords:** Theater, art, skill, acting.*

Iste'dod – bu hamma-hammada ham mavjud bo'lavermaydigan, yaratgan tomonidan hammaga ham ato qilinavermaydigan xislatdir. Buyuk-buyuk yozuvchilar, ulkan muvaffaqiyat egalarning hayoti va faoliyatiga nazar tashlasangiz ularni keng ommaga mashhur qilib yuborgan asosiy omillar qatorida albatta, iste'dod va talantning yuksak mavqeda shakllanganligining guvohi bo'lasiz. O'tgan va undan oldingi asrlar kishilik jamiyatida xalqning, odamlarning ishonchi-yu mehrini, e'tiborini qozonish qay darajada oson yoki mushkul bo'lganligini aniq ayta olmaymiz-u, ammo bugun biz yashayotgan jadal globallashuv davrida jamiyatning, keng ommaning nazariga tushish va ularning qalbidan mustahkam o'rin olish judayam qiyin masala. Chunki bugungi kunning zukko farzandi shunday tezkor, jadal sivilizatsiya muhitini boshidan kechirayotgan ekan, uni haminqadar iste'dod yoki normal va ijobiy qobiliyatlar orqali hayron qoldirish va hurmat-ehtiromiga sazovor bo'lish oson ish emas.

Keling, endi el-yurtning o'sha nozik qalbini, yuksak didlarini zabt eta olgan Xorazm diyorining matonatli farzandi, teatr va san'atning, san'at sahnasining suyukli va fidoyi jonkuyari O'zbekiston xalq artisti Gulora Rahimova va uning xalq sevgan artist maqomiga erishishida katta ahamiyat kasb etgan iste'dodi, talanti to'g'risida fikr yuritsak. Gulora Rahimova o'zining 45 yillik umrini Xorazm teatr san'atini rivojlantirish uchun sarf etgan fidoyi san'atkorlardan biridir. U “Layli va Majnun” spektaklida Layli, Ne'mat Salayevning “To'maris” asari asosida ishlangan spektaklda To'maris rolini, Erkin

Samandarovning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi asosida qo‘yilgan sahna asarlarida sarkardaning onasi, E.Samandarning “Olma pishganda keling” musiqali dramasiidagi Zuhra obrazlarini ... yoritib bergan.¹ Joriy yilning 5-aprel sanasida Urganch davlat universiteti qoshidagi Madaniyat saroyida Gulora



Rahimovaning 75 yoshni qarshilagani munosabati bilan “Yoshlar va san’at arboblari bilan uchrashuv” nomli kecha bo‘lib o‘tdi. Tadbirda “ustoz-shogirdlarning yoshlik davrlariga qaytib, o‘sha davrlarni xotirlab so‘zlagan nutqlari, oradagi lirik chekinishlar, bizdan oldin ham shakllanib kelayotgan ustoz-shogird an’anasining qanchalik muqaddas ekanligi haqida esda qolarli, o‘rnak qilib ko‘rsatsa arziydigan erkin muloqotlar bo‘lib o‘tdi. Tadbir, haqiqatan ham, noodatiy tarzda o‘tkazildi. Garchi kecha ssenariysi ikki-uch kun oldin yozilib, oldindan rejalashtirilgan bo‘lsada, tadbirga tashrif buyurgan kechamiz qahramonining ustoz va murabbiylari, u bilan bir sahnada peshqadam bo‘lib rollar ijro qilib, xalqqa xizmat ko‘rsatib kelayotgan hamkasblarining Gulora Rahimovaga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbatlari toshib so‘zlagan nutqlari butun boshli tadbirda keskin burilish yasadi va kechani haqiqatan ham “san’at arboblari bilan uchrashuv” deb nomlanganligini amalda isbotlashdi. Sababi, tadbir faqat tavallud ayyomi nishonlanayotgan shaxs bilangina cheklanib qolmasdan, uning ustoz san’atkor, aktyor sifatidagi maqomi shu yerda ishtirok qilgan oliygoh o‘qituvchilari va ularning bugungi kundagi jamiyatda egallagan o‘rni bilan ham belgilab berildi. Urganch davlat universiteti musiqiy ta’lim kafedrasini mudiri, Gulora Rahimovaning shogirdlaridan biri B.Rahimovning bu kechani to‘g‘ridan to‘g‘ri “Uch avlod uchrashuvi” deb e’tirof etishiga sabab bo‘ldi. Bu sahnada, bu zalda, hozir faqat, siz-u biz, ya’ni ustoz-shogirdlar uchrashuvi emas, balki uch avlod uchrashuvi bo‘lib o‘tmoqda. Ustoz, ushbu kechani tashkillashtirgan tashkilotchilar biz emas, bizning shogirdlarimizdir, sizning shogirdlaringizning shogirdlaridir,- deydi u tabrik nutqida. Aytingchi,

bunday fidoyi insonlar hurmatiga atab o‘tkaziladigan kechalar biz Yosh avlodga nima beradi? yoshlar, tomoshabinlar psixologiyasiga qanchalik ijobiy ta’sir ko‘rsatadi?

Birinchidan, bu kabi kechalar, boringki, xotira kechalari nafaqat bizdan oldingi, balki biz yoshlar ongiga Alloh tomonidan omonat qilingan umrni shunchaki, bekorchiliklar bilan havoga sovurmasdan vaqtning, aql-u tafakkurimizning qadriga yetishimiz lozimligi haqidagi ma’lumotlarni singdiradi.

Ikkinchidan, kechani kuzatib borayotgan kuzatuvchi ishtirokchilar orasida bolalikdan shakllanib kelayotgan iste’dod, yashirin iqtidorlarning yanada



rivojlanishi uchun sezilarli motivatsiya bo‘ladi.

Uchinchidan, yoshlarda kelajakka umid hissi paydo bo‘ladi. Bugun ular qimmatli vaqtlarini behudaga sarflashayotgan bo‘lsa, bunday fidoyi insonlar, ulkan muvaffaqiyat egalari bilan suhbat va uchrashuvlardan so‘ng ularda shijoat, “harakatchan bo‘lishimiz kerak” degan tuyg‘u va asosiysi, ishonch hosil bo‘ladi.

Yoshlarda ushbu uchrashuvlarning ijobiy psixologik, ijtimoiy-ruhiy, ma’naviy harakatchanlikni yuzaga keltirgan jarayonlardan biri sifatida quyidagi voqeani ham misol qilsak arziydi:

Gulora Rahimovaning hamkasbi, rejissyor, “Mehnat shuhrati” ordeni sohibi Adamboy Abdullayevning tabrik nutqi orasida “Hozir qarshingizga 75 yoshli ayol emas 15 yoshli qiz tashrif qiladi. Siz 75 yoshli insonni qanday tasavvur qilishingiz menga ayon, lekin hozir sahnemizga chiqadigan ayolning 75

yoshga kirganligiga shubha bilan qarab qolishingiz turgan gap”, — deya birdaniga tadbirni kulminatsion cho‘qqiga olib chiqqanligi, kecha qahramoni Gulora Rahimovaning sahnaga chiqib kelishi va aytilgan tabriklarga, barvasta, ko‘ksini g‘oz tutib munosabat bildirishi, o‘zi sevgan rollardan "Oshiqi G‘arib va Shohsanam" dostoni asosida "Bir aktyor teatri" (bunda sahnadagi barcha rollar bitta aktyor tomonidan ijro etiladi)ni namoyish qilganidan keyingi taassurotlarni oliygoh talabalaridan eshitgan odam ushbu sanani kelasi yilgacha intizorlik bilan



kutib qolardi.

Gulora Rahimovaning hayot yo‘li, faoliyat jarayoni to‘g‘risida oylab, yillab gapirish, uning teatr sahnalarida ijro qilgan jonli rollari va jonli ijrodagi monologlari haqida yuzlab kitoblar, ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish mumkin. Keling, yaxshisi, uning hayoti va faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, Musiqiy ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi Baxtiyor Amanbayevning "Teatr fidoyilari" nomli to‘plamidan batafsil o‘rganib olishingizni tavsiya qilgan holda bevosita Guloraxonimning kechagi tadbirda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoniga haqiqatan ham munosib ekanligini qanday isbotlab bergani haqida o‘rtoqlashsak. Qahramonimizning 75 ga kirgan 15 yashar qiz deya ta‘riflanishiga:

sahnada o‘zini ham jismonan ham ruhan tetik tutishi;

“Bir aktyor teatri” sahnasida ham Oshiq G‘arib, ham Shohsanam, ham muallif gapi qatnashgan monologlarni hech qanday fonogrammasiz, hatto, mikrofonsiz, jonli tarzda ijro etganligi;

bir holatdan ikkinchi holatga (vazminlikdan, qayg‘u-iztirob, yig‘i holatlariga) hech qanday qiyinchiliklarsiz o‘tishi;

shu yoshga chiqib ham, jonli ijroda, xuddi yoshlardagi bo‘ladigan shijoat, otashin ruh bilan baxshichilik an‘anasining taftini tomoshabinlarga singdira olganligi;

eng ta'sirlisi, birvarakayiga, erkak rolida ham uning ruhiyatini o'g'lonlarga xos, mos tarzda ifodalab bera olganligi va hakoza sabab bo'ldi hamda uning shu unvonga loyiq ko'rilganligini butun mehmonlar va oliygoh talabalari ichidan tan olishdi (ming marta eshitgandan bir marta ko'rgan afzal. Tadbirdan olingan qisqa-qisqa lavhalarni ijtimoiy tarmoqlardan t.me/AynuraHamidovna havolasi orqali ulanib, qahramonimizning sohir ovozi, undagi otashin ruhga ishonch hosil qilishingiz mumkin).

O'n besh yoshli qizda yuksak darajadagi jonli ovoz yoki barvasta qad bo'lmasligi mumkindir, ammo unda olovli qalb, tirishqoqlik, kelajakdan orzu-umidlar mujassam bo'ladi.

Taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov o'zining "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" kitobida ta'kidlaganidek: "Katta iste'dod avval xalq e'tiborini, keyin xalq muhabbatini va nihoyat xalq e'tiqodini qozonadi. Aslida, mana shu uch bosqichning har bittasi bir umrga teng". Gulora Rahimova 75 yillik umrini o'ziga Oллоh tomonidan hadya qilingan iste'dodni shakllantirib, u orqali butun Ona Vatanimizning mehr-u muhabbatini qozonishga sarfladi va sarf qilib kelyapti desak yanglishmaymiz. Qolaversa, Gulora Rahimova o'zidagi bu iste'dod va qobiliyatlarni, avvalambor, Allohning inoyati deb hisoblaydi. Keyinchalik, shu paytgacha erishib kelgan va kelayotgan yutuqlariga birdan-bir sababchi kitob,-deya ko'rsatadi. Buning isboti sifatida, uning bolaligidan to bugungi kunga qadar o'qigan kitoblarini jamlab, bugungi kunga kelib, o'zining shaxsiy uy kutubxonasini tashkil qilganligini, hozirda ushbu kutubxonada 15 mingdan ziyod o'zbek-rus adabiyotlari jamlanganligini katta ixtiyor ila aytishimiz mumkin. Uning oilaviy hayoti va kundalik tarzi bilan qiziquvchilarga, so'nggi yillarda televideniya ushbu ayol haqida tayyorlangan ko'plab lavhalar, videoroliklarda aks etgan, o'z bog'ida savat-savat meva terib, non yopib, polizda ketmon chopib yurgan suratlarini misol qilishimiz mumkin. "Mehnat insonni ulug'laydi", – deyiladi o'zbek xalq maqollaridan birida. Bu maqolning haqiqatga qanchalik yaqinligi esa Gulora Rahimova timsolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Agar Guloraxonim o'zini jismoniy mehnatda toblantirmaganda bugun biz kelajak avlodlari qarshisida ko'ksini shahdam tutib, jonli-jonli rollar ijro etmagan bo'lardi. Agar Guloraxonim o'zini qishloqning qalbi, shaharning aql-u idroki bilan tarbiyalamaganida uni shahar-u qishloqni birdek sevmagan bo'lardi. Bir so'z bilan aytganda, Gulora Rahimova bugungi kelajak avlodga o'z kasbining sevishi, unga butun bir umrini baxshida qilib bo'lsa ham hayotda o'zidan bir nurafshon iz qoldirib ketish lozimligini uqtirib qo'ydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

**3-4 (2)
2023-yil, aprel-may.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Mas’ul kotib:	U.Bekimmetov
Musahhih:	J.Sobirov
Texnik muharrir:	M.Kuranbayev
Navbatchi:	M.Kuranbayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 11:00. Topshirildi: 11:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 11 b.t. Buyurtma №0002.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22